

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



**M.G. UMARXODJAYEVA, A.R. ISMAILOV**

**KORPORATIV  
BOSHQARUV-2**

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan  
5231900-korporativ boshqaruv bakalavriat ta'lif  
yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT - «IQTISODIYOT» - 2019**

UO'K: 347.214.21(075)

KBK 67.404.1

K 98

Yo-18

**Umarxodjayeva M.G., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv-2. O'quv qo'llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 216 bet.**

O'quv qo'llanma mazkur fan bo'yicha ma'ruza boblarininig tayanch konspekti, mustaqil ta'limga oid topshiriqlar, oraliq nazoratga oid o'quv loyihalarining namunaviy boblari, yakuniy nazoratga oid namunaviy savollar va topshiriqlar, har bir bob bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashi uchun bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini hamda glossariylarni o'z ichiga olgan bo'lib u 5231900-korporativ boshqaruv bakalavriat ta'lim yo'nalishining "Korporativ boshqaruv-2" fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

V uchebnoe posobie predstavlen bazovyy obzor temы leksiy po etomu predmetu, zadaniya dlya samostoyatelnogo obucheniya, primernye temы uchebnogo plana dlya promejutochnogo kontrolya, primernye voprosы i zadaniya dlya itogovogo kontrolya, studentы Vklyuchaet spisok literaturы i glossariev, kotorые trebuyutsya dlya samostoyatelnoy rabotы, i rekomenduetsya v kachestve uchebnika po «Korporativnoe upravlenie-2» v ramkax korporativnogo bakalavriata 5231900.

The manual provides a basic overview of the topic of lectures on this subject, tasks for self-study, sample topics of the curriculum for intermediate control, sample questions and tasks for final control, students Includes a list of literature and glossaries that are required for independent work, and is recommended as textbook on "Corporate governance-2" with in the framework of corporate undergraduate 5231900.

**ISBN 978-9943-6004-6-1**

UO'K: 347.214.21(075)

KBK 67.404.1

© «IQTISODIYOT», 2019

© Umarxodjaeva M. G., Ismailov A.R., 2019

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>5</b>
<b>1. Korporativ boshqaruvning maqsadi, vazifalari va mohiyati</b>	<b>8</b>
1.1. Korporativ boshqaruvning fanining predmeti va maqsadi	8
1.2. Korporativ boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	14
1.3. Korporativ boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari	17
<b>2. Korporativ boshqaruv tizimini joriy etishning milliy amaliyoti</b>	<b>27</b>
2.1. Korporativ boshqaruv tizimi mikrodarajadagi ahamiyati	27
2.2. Korporativ boshqaruv tizimi makrodarajadagi ahamiyati.	28
2.3. Korporativ boshqaruv tizimi sanoat korxonalaridagi ahamiyati.	30
<b>3. Korporativ boshqaruvning xorijiy tajribasi</b>	<b>33</b>
3.1. Xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi.	33
3.2. Moliya-sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv tizimi	39
3.3. Oilaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi	44
<b>4. Korporativ boshqaruv strategiyasi, ijtimoiy ma’suliyat va barqarorlik</b>	<b>52</b>
4.1. Korporativ strategiya mazmuni va mohiyati	52
4.2. Korporativ ijtimoiy mas’uliyatning mohiyati	55
4.3. Strategik rejalashtirishning yo‘nalishlari	62
4.4. Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayoni	62
4.5. Korporativ maqsad - korporativ strategiyalarning ahamiyati	63
<b>5. Korporativ boshqaruvda hamkorlik prinsiplari</b>	<b>66</b>
5.1. Korporativ boshqaruvda hamkorlik rivojlanishning muhim omili.	66
5.2. Korporativ boshqaruvda Korporatsiyalarni boshqarishda davlatning o‘rni.	68
5.3. Korporativ boshqaruv tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishda jahon amaliyoti.	74
<b>6. Korporativ boshqaruv funksiyalari</b>	<b>77</b>
6.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya jozibadorligi va unga ta’sir etuvchi omillar.	77
6.2. Korporativ tuzilmalarda raqobat muhitini shakllantirish.	90
6.3. Raqobat muhitini rivojlanishida korporativ munosabatlar	100
<b>7. Axborotlar shaffofligi va korporativ boshqaruv</b>	<b>111</b>
7.1. Korporativ boshqaruvda axborot va uning vazifalari	111
7.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkorish etish tartibi	123
7.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotning shaffofligini ta’minlash yo‘llari	130
<b>8. Ijro organi faoliyati samaradorligini baholash mezonlari</b>	<b>135</b>
8.1. Ijroiya organ a’olarinng faoliyati baholash	135
8.2. Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatlar	138
<b>9. Korporativ boshqarish tizimida davlat ishtiroki</b>	<b>148</b>
9.1. Davlatning korporativ boshqaruvda qatnashishi	148
9.2. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsad va tamoyillari	149

9.3. Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimi	153
<b>10.Korporativ boshqaruvda nazorat</b>	164
10.1.Taftish komissiyasi faoliyati va uning huquq va majburiyatlari	164
10.2. Tashqi auditorlik faoliyati va uning huquq va majburiyatlari	168
10.3. <b>Korxonalardagi</b> ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari	171
<b>11. Listing kompaniyalarda korporativ boshqaruvning roli</b>	179
11.1.Listing kompaniyalarini faoliyati	179
11.2.Listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli	181
11.3. Birjalar faoliyati yo‘nalishlari	182
<b>12.Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish</b>	187
12.1. “Korporativ boshqaruv risklari” tushunchasi va uning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyati.	187
12.2. Risklarning tasniflanishi va uning turkumlari.	189
12.3. Korporativ boshqaruvda risklarni aniqlash usullari.	191
12.4. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo‘llari.	192
12.5. Korporativ boshqaruvda investitsion loyihalarda risklarni baholashning matematik usullari	194
<b>KORPORATIV BOSHQARUV-2 FANI BUYICHA TESTLAR №1</b>	197
<b>GLOSSARIY</b>	207
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	211

## KIRISH

Bugungi kunda, korporativ boshqaruv - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlari birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitallari birlashtiriladi. Mamlakat iqtisodiy - huquqiy tizimida mohiyatiga ko‘ra kichikroq shartliliklar bilan, aynan aksiyadorlik jamiyatları jahon xo‘jalik va huquqiy amaliyotida umum qabul qilingan korporatsiya tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Korporativ boshqaruvda aynan korporatsiyalar faoliyatini rivojlanish darajasi biznesni iqtisodiy o‘sishini, unumdorligini, shug‘ullanishliligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi №PF-4947 sonli Farmoning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida ta’kidlaganidek, 3.4-bandida - “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish”.<sup>1</sup>

Korporativ boshqaruvning samarali rivojlanishiga erishish uning asl mohiyatini chuqr anglash va tushunishni, uning ilmiy soha sifatida shakllanishiga imkon bergen ilmiy-nazariy èndashuvlarini tadqiq qilishni taqozo etadi.

SHuni ham aytish joizki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish natijasida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro aloqalarning mustahkamlanib borishi samarali korporativ boshqaruv tizimi kengroq joriy qilinishini talab etmoqda. Demak, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish iqtisodiyotning barcha sohalariga investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi. SHu bois O‘zbekiston Respublikasida o‘z milliy korporativ boshqaruv modelini shakllantirish jarayoni boshlang‘ich bosqichlarida turganligi sababli korporativ boshqaruvni tadbiq etish va

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, 70 modda.

uni kelajakda istiqbolli rivojlantirish, iqtisodiyotning u yoki bu modeli muammolarini hal etishga qaratilishi kursning asosiy vazifalaridan hisoblanadi

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlar iqtisodiy negizi keskin o‘zgarib bormoqda. Ko‘p ukladli iqtisodiyot bo‘lganligi uchun turli mulk shakllariga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o‘zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma korporativ boshqaruv yo‘nalishi talabalarini amaliy va kasbiy tayyorlash uchun belgilangan o‘quv rejasi bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshirishni hamda tizimli yetkazib berishni ta’minlaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi mikrodarajada va makrodarajada, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruv tizimi, xo‘jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi, oilaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi, xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi moliya-sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv tizimi, korporativ boshqaruv tizimida nazorat: tashqi auditorlik ahamiyatini tushuntirish hamda mos keluvchi mutaxassisliklar bo‘yicha malakalarni shakllantirishning zarurligini ko‘rib chiqqan holda talabalarda shu sohada nazariy va amaliy professional bilim va ko‘nikmani shakllantirishdir. Mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo‘lgan bilimlar bilan quollantiradi.

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida Aksiyadorlik jamiyatlar iqtisodiy negizi keskin o‘zgarib bormoqda. Ko‘p ukladli iqtisodiyot bo‘lganligi uchun turli mulk shakllariga asoslangan Aksiyadorlik jamiyatlar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o‘zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma korporativ boshqaruv yo‘nalishi talabalarini amaliy va

kasbiy tayyorlash uchun belgilangan o‘quv rejasi bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshirishni hamda tizimli yetkazib berishni ta’minlaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma korporatsiyalarni boshqarish usullari va ularning amaldagi tizimi, korporatsiyalarni boshqarishning hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari, korporativ boshqaruv andozalarini joriy etish masalalari ko‘rib o‘tilgan. Korporativ tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati, O‘zbekiston Respublikasida mulk shakllarini o‘zgartirish jarayonlarini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolar va ularning turlari, shuningdek, ularni bartaraf etish masalalariga alohida to‘xtalgan.

O‘zbekiston Respublikasida korporativ boshqarishning milliy modelini shakllantirish jarayonlari davom etmoqda, shu sababli ushbu uquv qo‘llanmada korporativ boshqaruv muammolari va ularni bartaraf etish boblariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi talabalarda korporativ boshqaruv tizimi va tarkibi, kompaniyalarda korporativ madaniyatni joriy etish bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishdir.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifalari - bu korporativ boshqaruv tizimini va asosiy nazariyalarini o‘rganish, kompaniyalarni boshqarish faoliyati tamoyillari, korporativ nizolarni echish va ularning huquqiy me’yoriy ko‘nikmalarini hosil etishdan iborat.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiy mutuxassisliklar talabalari uchun iqtisodiy faoliyatni yuritish maqsadida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi mumkin. Korporativ aloqalarini kuchaytirish va hamkorlikni mustahkamlash ochiq iqtisodiyot yo‘lida izchil rivojlanishimizning muhim omili hisoblanadi.

# **1-bob. KORPORATIV BOSHQARUVNING MAQSADI, VAZIFALARI VA MOHIYATI**

**Reja:**

**1.1. Korporativ boshqaruvning fanining predmeti va maqsadi.**

**1.2. Korporativ boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.**

**1.3. Korporativ boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari**

**Tayanch iboralar: korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv modeli, minoritar aksiyadorlar, korporativ boshqaruv tizimi, Aksiyadorlar, Aksiyadorlik jamiyatları, korporativ tuzilmalari.**

## **1.1. Korporativ boshqaruvning fanining predmeti va maqsadi.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlay oladigan ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarini isloh qilish tajribasi shuni tasdiqlamoqdaki, ma’muriy - rejali iqtisodiyotdan xo‘jalik yuritishning bozor modeliga uyg‘un o‘tishning muhim vositasi xususiylashtirish va aksonerlashtirish bo‘lib, bu haqiqiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga va xususiylashtirilgan mulkni korporativ boshqarishning samarali usullarini joriy etishga ko‘maklashadi. O‘zbekistonning korxonalarida korporativ menejmentni shakllantirish uchun shart - sharoitlar 1997 - 1998 yillarda boshlandi va muayyan rasmiy -tashkiliy asoslar mustaqillikning ilk yillaridayoq sobiq davlat korxonalarining o‘zgartirilishi davomida yuzaga keldi.

Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanishi bir nechta bosqichga bo‘lish mumkin:

1. XVII asrda Ost - Ind (East India Kompaniya) kompaniyasi 24 a’zodan iborat bo‘lgan direktorlar kengashini tashkil qildi. Birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo‘lib olindi;

2. 1776- yili Adam Smit o‘zining “Halqlarning boyligining sabablari va tabiatlari haqidagi tadqiqotlari” asarida takidlaydiki: “Tashlab qo‘yilgan mulklar

boshqaruv uchun muammolarni keltirib chiqaradi”, ya’ni boshqaruv va menejerlarni nazorat qilish uchun salbiy mexanizm hisoblanadi;

3. 1844- yilda birinchi marta aksionerlik jamiyatlari haqida qonun qabul qilindi. Qonunchilikka mulkchilikning yangi javobgarligi shaklidagi majburiyatlar joriy etildi;

4. 1931- yilda A. Berli va G. Minzlar «Zamanoviy Korporatsiya va xususiy mulkdor» nomli maqolasini nashrdan chiqardi (AQSH). Unda birinchi marta mulkchilik vazifalarini nazorat vazifalaridan to‘la to‘kis farqi ajratib berildi;

5. 1933-1934 yillarda AQSHda qimmatbaho qog‘ozlar haqida qonun qabul qilindi, 1933-yilda qabul qilingan ushbu qonun fond bozorini tartibga soldi. Ushbu bosqichda “Qimmatbaho qog‘ozlar va birjalar to‘g‘risida”gi (1934 y.) aktga asosan axborotlarning ochiq berilishi imkonи mavjud bo‘ldi va ushbu yili qonunlarni bir tartibda nazorat qiladigan, qimmatbaho qog‘ozlar bozorini va birjalar faoliyati bo‘yicha komissiya tuzildi;

6. 1968- yilda Yevropa ittifoqi «Kompaniyalar to‘g‘risida» qonun qabul qildi;

7. 1990 - yillarning boshida – tadbirkorlik imperatsiyasi inqirozga uchradi. Buyuk Britaniyada kelishmovchiliklar yuzaga keldi: bir qator kompaniyalar (Polly Peck, BCCI, Maxwell), Aksiyadorlarni aldash bilan shug‘ullanganliklari korporativ boshqaruvning amaliyotda investorlarni himoyalashni takomillashtirish kerakligini ko‘rsatdi;

8. 1992- yil. Kedberi qo‘mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo‘yicha kodeksi nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993 yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi;

9. 1992 – 2003 yillarda korporativ boshqaruv bo‘yicha qator ma’ruzalar qabul qilindi, shundan asosiyлари:

1) Angliyada Rutmanning moliyaviy hisobot va ichki nazorat haqidagi ma’ruzasi;

2) Korporatsiyalar ishtirokchilarining har tomonlama hisobi haqidagi Kinganing ma’ruzasi;

- 3) Angliyalik Grinberining yuqori mansab shaxslarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi ma’ruzasi;
- 4) Angliyalik Xempelaning korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi ma’ruzasi;
- 5) Fransiyalik Venoning korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari haqidagi ma’ruzasi;
- 6) Niderlandiyalik Pitersning korporativ boshqaruvning umum qabul qilingan andozalariga rioya qilmaslik va javobgarlik haqidagi ma’ruzasi;
- 7) AQSHda Sarbeys - Okslining moliyaviy ekspertlarning auditи bo‘yicha qo‘mita tarkibini aniqlash bo‘yicha qonuni;
- 8) Angliyalik Xiggsning ish faoliyatini bajara olmayotgan direktorlar haqidagi ma’ruzasi.

O‘zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:

- 1980 – 1985 - yilgacha mavjud bo‘lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya’ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy halotining rivojlanishiga to‘sinq bo‘ldi.
- 1987 - 1991 yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarning qatnashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug‘urta sektori rivojlanishiga yo‘l ochildi.
- 1991 - 1994 yillarda – xususiylashtirish jarayoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatlari shakllandi, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko‘rsatib berilmadi.
- 1994 - 1998 yillardagi korxonalarni xususiylashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlari to‘g‘risida qonun, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investitsion fondlar, depozitarilar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalari, qo‘shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

- 1998 - 2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning etishmasligi, kapitalning O‘zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko‘rib chiqila boo‘landi. Bularning barchasi hissadorlarning o‘z huquqini anglab etishi asosida amalga oshirildi. Aniq Korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya’ni korporativ kodeks, hissadorlik to‘g‘risidagi, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunlar bo‘yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me’yor va usullarining aprobatsiyasidan keyin keng qo‘llanila boshlandi.

. 2002 -yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to‘g‘risidagi kodeksi, korporativ boshqaruv bo‘yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan joriy etilishi ta’milmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksioner jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakalotlariga aniqliq kiritib beradi.<sup>2</sup>

O‘zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institutsional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izoxlanadi:

“Korporativ boshqaruv” atamasining o‘zi tarixan 1970- yillarning o‘rtalarida AQSHda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o‘tkazilishi davom ettilgan. Tadqiqotlar natijasida shu aniq bo‘ldiki, “korporativ boshqaruv” atamasi birinchi marta R.Ills tomonidan “korporativ tizimning strukturasi va faoliyati” mohiyatini ochib berish uchun qo‘llanilgan.

Korporativ boshqaruv alohida fan sifatida 1980- yillarda yuzaga kelgan. “Korporativ boshqaruv” nomli birinchi kitob 1984- yilda chop etilgan. 1993- yildan boshlab “Corprate Governance: An International Review” deb nomlangan nazariy jurnal chiqsa boshlagan. Unga muvofiq, kompaniyalarni tashkil etish, boshqarish va samarali o‘zaro faoliyat yuritish asosida yotgan huquqiy konsepsiylar va

---

<sup>2</sup> Корпоратив бошқарув Б.Ю.Ходиев,

tartibotlarning umumiy nomlanishi “korporativ boshqaruv” nomini olgan.

Korporativ boshqaruv prinsiplar va amaliyoti tushunchalarining mazmun va mohiyati bu prinsip (lotincha so‘z bo‘lib, principum- asos, negiz, ibtido) degan ma’noni bildirib, korporativ boshqaruvning asosiy qonun-qoidasi, faoliyat uchun aos qilib olinadigan bosh g‘oya, bosh qoidalardan iborat bo‘ladi. Korporativ boshqaruv tizimida ba’zi adabiyotlarda “prinsip” tushunchasi tamoyil tushnchasini bildirib, shu sohada tartib, qoida tusini olgan tadrijiy yo‘nalishni belgilab beradigan asosiy

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasiga kompaniya ma’muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslari orasidagi munosabatlar majmuasi deb ta’rif berilgan.

Boshqa ta’riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me’yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Korporativ boshqaruv tamoyillari” IHTT Kengashining 1999- yil 26-27 maydagi yig‘ilishida birinchi marta qabul qilingan bo‘lib, u korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari sohasida asosiy hujjat hisoblanadi. Shundan so‘ng IHTT korporativ boshqaruv tamoyillari o‘ziga xos mezonlari o‘lchovi bo‘lib qoldi. Ularni standart sifatida moliyaviy barqarorlik bo‘yicha Forum, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyatilarida hamkorlik qilayotgan muayyan mamlakatlarda korporativ boshqaruvni yaxshilash maqsadida qo‘llashni boshladi.

Keyinchalik 2004- yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda 30 mamlakat hukumatlari tomonidan yangi, qayta ko‘rib chiqilgan “korporativ boshqaruv tamoyillari” tasdiqlandi. 2015- yilda esa ushbu tamoyillar yana ko‘rib chiqilib, yangi tahrirda nafaqat IHTTga ya’zo davlatlari tomonidan balki G20 (katta yigirmatalik) davlatlari tomonidan ham tasdiqlandi. Hozirgi paytda ushbu tamoyillar “G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari” deb nomlangan bo‘lib, u IHTT va G20 ning nafaqat a’zo davlatlar, shuningdek fond birjalari, investorlar, kompaniyalar va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan boshqa shaxslarga ham mo‘ldallangan. G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari majburiy emas, balki tavsiyaviy harakterga ega bo‘lib, hukumatlar tomonidan amaldagi milliy qonunchilikni baholash va takomillashtirish uchun shuningdek korporatsiyalar tomonidan korporativ boshqaruv tizimini yaratish va korporativ boshqaruv sohasida “ilg‘or tajriba”ni ishlab chiqish uchun qo‘llanishi mumkin.

Aksiyadorlarning huquqlari, ular bilan teng huquqli munosabatda bo‘lish hamda mulkchilikning asosiy funksiyalari tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi va ruyobga chiqarilishini engillashtirishi hamda barcha, shu jumladan minoritar va xorijiy aksiyadorlar bilan teng huquqli munosabatda bo‘lishini ta’minalash lozim. Barcha aksiyadorlar o‘z buzilgan huquqlari uchun samarali tarzda zararni qoplash imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Institutsional invenstorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi butun investitsiyalar zanjiri bo‘ylab asosli rag‘batlantiruvchi vositalarni ta’minalash hamda fond bozorlarining yaxshi korporativ boshqaruvga hissa qo‘sghan holda faoliyat yuritishini ta’minalashi lozim.

Manfaatdor shaxslarning korporativ boshqaruvdagagi roli tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi manffatdor shaxslarning qonun bilan yoki o‘zaro kelishuv asosida o‘rnatilgan huquqlarini tan olishi hamda moddiy boyliklar, ish o‘rinlarini yaratish va moliyaviy sog‘lom korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minalash yo‘lida korporatsiyalar va manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi faol hamkorlikni rag‘batlantirish lozim.

Axborot oshkorali va shaffofligi tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi korporatsiyaga oid barcha muhim masalalar, shu jumladan kompaniyaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari, mulkchilik va boshqaruvi to‘g‘risidagi axborotni o‘z vaqtida va aniq oshkor etilishini ta’minlash lozim.

Kengashning majburiyatlari tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi kengash tomonidan kompaniyani strategik boshqaruvini, rahbariyat ustidan samarali monitoringni olib borishni hamda kengashning kompaniya va aksiyadorlarga hisobdorligini ta’minlash lozim.

Korporativ boshqaruv asosiy tip bo‘lib ajralib turadi, boshqarish obyekti sifatida u o‘z hususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko‘zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta’minlash, aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyati vujudga keladi va tartib qoidalarning tamoyillari, urf-odatlari va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ boshqaruvning maqsadi korporatsiyalarning investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining barcha faoliyat turlaridan imkon qadar yuqoriqoq foyda olishdir. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samarali usullarini, xalqaro satndartlarni joriy etish uchun korporativ boshqaruvning milliy modelini xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqli.

## **1.2. Korporativ boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**

Korporativ boshkaruv tizimini turli shakllardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tashkil qilishning keng imkoniyatlari ularning afzalliklaridan foydalanishga asoslanib, korporativ tuzilmalarni yaratish variantlaridan foydalangan holda ular urtasidagi uzaro munosabatlarni modellashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Ularning asosiyлari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

1. Aksiyalar chiqarish orqali pul mablag‘lari jalb qilish qobiliyati cheklanmagan sonli investorlarning mablag‘larini jamlash imkonini va bu investorlarga jamiyatni boshqarishda ishtirok etishda ma’lum bir tanlov huquqini beradi.
2. Boshqariluvchanlik muammosini hal etilishi engillashadi. Tashiliy rasmiylashtirishning tugallanganligi, vakolatlar va javobgarliklarni aniqlashda reglamentga rioya qilish nazorat funksiyalarini aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi, bu esa boshqaruv jarayonini professionallash imkoniyatini anglatadi.
3. Aksiyadorlar tarkibiga kirish va chiqishning soddalashtirilgan tarkibi manfaatdor shaxslarning o‘rnini almashtirish uchun keng imkoniyatlar va mos ravishda, investitsiya taklifi dinamikasi yuqori bo‘lgan sharoitlarda yuqori moslashuvchanlikni ta’minlaydi.
4. Cheklangan javobgarlik tamoyili risklarni kamaytirishga imkon beradi. Cheklangan javobgarlik tamoyilining qo‘llanilishi risklarni aksiyadorlar va boshqaruvchilar o‘rtasida taqsimlash orqali yirik korporatsiyalar yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Korporativ boshqaruv bu – biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashuvini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir. Korporativ boshqaruvni uning xususiyatlari boshqaruv obyekti sifatida korporatsianing o‘ziga xosliklari bilan izohlanadigan alohida bir turga ajratib, aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorligi hamda ularning korporatsiyani rivojlantirish va boshqarishdagi roliga asoslangan, aksiyadorlarning o‘zaro aloqa qilishini ko‘zda tutadigan (korporativ kommunikatsiyalar) mulkchilik huquqining amalga oshirilishini hisobga oladigan, butun korporatsiyani rivojlantirish strategiyasiga asoslangan va nihoyat, korporativ madaniyatni, ya’ni xulq - atvor tamoyillari, umumiylan'analar kompleksini vujudga keltiradigan boshqaruv sifatida tavsiflash mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarining rahbariyati va menejerlari tomonidan biznesni

korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani yetarli darajada o'rganilmaganligi, shuningdek mazkur muammo nazorati hamda korxona faoliyatini boshqarish organlari tomonidan kompleks yondashuvning yo'qligi kooperatsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur nazorat va boshqaruv organlari Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish jarayonlarini realizatsiya qilishning o'ziga xos tomonlarini yetarlichcha hisobga olmaydi.

O'zbekiston Respublikasida mulkchilikning Aksiyadorlik shakli Aksiyadorlar uchun o'zini o'zi qoplaydigan va investorlar uchun foydali bo'libgina qolmasdan, balki xo'jalik yuritishning bunday shakli mulkchilikning boshqa shakllariga (davlatga tegishli, qo'shma, hususiy) nisbatan samarali ekanini yaqqol ko'rsatuvchi namuna vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi quyidagi shakllarda tijorat tashkilotlarini tashkil qilish imkoniyatini nazarda tutadi:

- Aksiyadorlik jamiyati;
- mas'uliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat;
- to'liq shirkat va kommandit shirkat;
- ishlab - chiqarish kooperativi;
- xususiy korxona;
- unitar korxona.

aksiyadorlik jamiyatlarinig farqli jihatlari

Aksiyadorlik jamiyati (korporatsiya) investorlar (aksiyadorlar) kapitalini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan hamda o'z aksiyadorlari foydasi manfaati yo'lida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan tijorat tashkilotining tashkiliy - huquqiy shaklini bildiradi.

Jamiyatning ajralib turuvchi xususiyatlari – egalik qilish va boshqaruv funksiyalarining ajratilishi:

- o'z mulkini joriy boshqarishda shaxsan qatnashishdan ixtiyoriy voz kechgan mulkdorlar (aksiyadorlar);
- jamiyat mulkiga egalik qilmaydigan va begona mulkni boshqaradigan menejerlar;

- mulkdorlar (Aksiyadorlar) jamiyat mulkining emas, balki o‘z hissasining (Aksiya, ulush) egasidir. Kompaniya mulkining egasi – huquqiy shaxs bo‘lgan kompaniyaning o‘zidir.

Tomonlar manfaatlari bir - biriga to‘g‘ri kelmasligi va sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Qanday qilib, qaysi usullar yordamida menejerlarning hokimiyatini cheklash va Aksiyadorlarning manfaatini himoya qilish mumkin? SHu bilan birga, menejerlarni bo‘g‘ib tashlamaslik, ularning tashqi sharoit o‘zgarishlariga befarq bo‘lmasligiga qanday qilib erishish mumkin? Aynan shu masalalar faqat korporativ boshqaruv tomonidan hal qilinishi mumkindir.

### **1.3. Korporativ boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari**

Korporatsiya (lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko‘rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil subyektini – huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir<sup>3</sup>.

Korporatsiyalar - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlari birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitallari birlashtiriladi<sup>4</sup>.

Mamlakat qonunchiligidagi “korporatsiya” tushunchasi yuridik jihatdan mustahkamlab qo‘yilmaganligi sababli bu tushunchani talqin qilishda ikki xil ma’no kuzatiladi. Ayrim belgilar bo‘yicha korporatsiyalar qatoriga tijorat tashkilotlari hisoblangan va a’zolikka asoslangan barcha xo‘jalik subyektlari, boshqa belgilar bo‘yicha esa – faqat aksiyadorlik jamiyatlari kiritiladi.

Biroq mamlakat iqtisodiy - huquqiy tizimida mohiyatiga ko‘ra kichikroq shartliliklar bilan, aynan aksiyadorlik jamiyatlari jahon xo‘jalik va huquqiy amaliyotida umum qabul qilingan korporatsiya tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Aytib o‘tish kerakki, korporatsiya tushunchasi hozirgi sharoitlarda yana bir o‘ziga xos jihatni kasb etmoqda. U bir nechta yuridik shaxslar tomonidan tashkil

<sup>3</sup> Иванова Е. А., Шишикина Л. В. Корпоративное управление. Ростов н/Д.: «Феникс», 2007

<sup>4</sup> Курбонов Х.А. Корпоративные финансы -Т.: «Консайдитинформ». 2007й. 66.

etilgan xo‘jalik subyektini belgilash uchun foydalanilib, ularning har birini boshqa mulkiy munosabatlar, birgalikda biznes yuritish, umumiylar maqsadlar va manfaatlari, umumiylar tashkiliy struktura bilan bog‘liq mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida ko‘rib chiqish mumkin. SHunday qilib, O‘zbekistonda korporatsiya mustaqil aksiyadorlik jamiyatni bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik faoliyatini korporativ tashkil qilishning keng imkoniyatlari ularning afzalliklaridan foydalanishga asoslanib, korporatsiyalar yaratish variantlaridan foydalangan holda firmalararo munosabatlarni modellashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

1. Aksiyalar chiqarish orqali pul mablag‘lari jalb qilish qobiliyati cheklanmagan sonli investorlarning mablag‘larini jamlash imkonini va bu investorlarga jamiyatni boshqarishda ishtiroy etishda ma’lum bir tanlov huquqini beradi.

2. Boshqariluvchanlik muammosini hal etilishi engillashadi. Tashiliy rasmiylashtirishning tugallanganligi, vakolatlar va javobgarliklarni aniqlashda reglamentga rioya qilish nazorat funksiyalarini aksiyadorlik jamiyatni boshqaruv organlari o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi, bu esa boshqaruv jarayonini professionallash imkoniyatini anglatadi.

3. Aksiyadorlar tarkibiga kirish va chiqishning soddalashtirilgan tarkibi manfaatdor shaxslarning o‘mini almashtirish uchun keng imkoniyatlar va mos ravishda, investitsiya taklifi dinamikasi yuqori bo‘lgan sharoitlarda yuqori moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

4. Cheklangan javobgarlik tamoyili risklarni kamaytirishga imkon beradi. Cheklangan javobgarlik tamoyilining qo‘llanilishi risklarni aksiyadorlar va boshqaruvchilar o‘rtasida taqsimlash orqali yirik korporatsiyalar yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Korporativ boshqaruv bu – biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashuvini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir.

Korporativ boshqaruvni uning xususiyatlari boshqaruv obyekti sifatida korporatsiyaning o‘ziga xosliklari bilan izohlanadigan alohida bir turga ajratib, aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorligi hamda ularning korporatsiyani rivojlantirish va boshqarishdagi roliga asoslangan, aksiyadorlarning o‘zaro aloqa qilishini ko‘zda tutadigan (korporativ kommunikatsiyalar) mulkchilik huquqining amalga oshirilishini hisobga oladigan, butun korporatsiyani rivojlantirish strategiyasiga asoslangan va nihoyat, korporativ madaniyatni, ya’ni xulq - atvor tamoyillari, umumiylar an’analari kompleksini vujudga keltiradigan boshqaruv sifatida tavsiflash mumkin.

“Korporativ boshqaruv” tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Jahon bankining ta’rifiga ko‘ra korporativ boshqaruv – qonunchilik, me’yorlar va hususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilingan holda o‘z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko‘paytirish orqali o‘zining mavjudligini saqlab qolishni ta’minlaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasiga kompaniya ma’muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslari orasidagi munosabatlar majmuasi deb ta’rif berilgan.

Boshqa ta’riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me’yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va


iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Korporatsiyalar aktivlarni joylashtirish siyosatini o‘ziga qamrab oladi. Odatda har qanday xo‘jalik subyektlari ma’lum biznes turlari bo‘yicha mablag‘larini asosiy va aylanma aktivlarga investitsiya qiladi. Hozirgi kunda deyarli barcha kichik va yirik biznes korporatsiya shaklida tashkil qilingan. Misol uchun: British Airways, Nokia, Microsoft, Nestle, Sony, Unilever, Volkswagen va boshqalar.

Korporatsiyalar 3 asosiy farqli jihatlarga ega bo‘ladi:

1. Korporatsiyalar o‘zlarining egalaridan yuridik jihatidan mustaqildir va soliqlarni to‘laydi.
2. Korporatsiyalar mas’uliyati cheklangan, qaysiki, aksionerlar kompaniya qarzlari uchun javobgar bo‘la olmaydi.
3. Har doim ham korporatsiya egalari menejer bo‘la olmaydi, bu egalik qilishning boshqarish bilan cheklanishiga olib keladi.

Korporativ boshqaruv asosiy tip bo‘lib ajralib turadi, boshqarish obyekti sifatida u o‘z hususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko‘zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta’minlash, aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi (1-rasm).



**1-rasm. Korporativ muhit**

Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyati vujudga keladi va tartib qoidalarning tamoyillari, urf-odatlari va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ muhitni shakllantirish jarayonida turli xil shaklardagi xujalik yurituvchi subyektlar va turli xil shaxslar jalg qilinadi.

Korporatsiya rahbariyati qarorlar qabul qilish jarayonida jamiyatni tashkil etuvchi turli xil xo‘jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini hisobga olishi lozim.

**Aksiyadorlar** korporatsiyalar bilan alohida iqtisodiy aloqalarni tashkil etadi: ular korporatsyaning tashkil etilishining sababchilari bo‘lib, “xatarli” kapitalning yetkazib beruvchilari hisoblanadi, ularning kaptali orqali korporatsiyalarning rivojlanish va o‘sishi kuzatiladi. Korporatsiyalarning barcha harakat va jarayonlarida aksionerlarning manfaati hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Ist’emolchilar, o‘ziga alohida e’tibor talab qiluvchilardan biri hisoblanib, korporatsiyalar ularsiz faoliyat olib borishi mumkin emas. Ist’emolchilar sifatli mahsulot va xizmatlarni qoniqarli darajadagi narxda olishni va talabga javob beradigan xizmat turlarini va haqiqiqatga yaqin reklamalarni qabul qilishni istaydi. Agarda korporatsiyalar ist’emolchilarning hohishini qoniqtirishga barcha kuchini sarflamasa, korporatsiyalarning asosiy strategik maqsadlarini quidan boy berilganligidan dalolat beradi va korporatsiyalar o‘zoq va qisqa muddatli omodsizliklarga duch kelishi mumkin.

**Xizmatchilar**, korporatsiyalardan oddiy talablarni qondirishini so‘raydi, ya’ni oddiy ish haqini to‘lashdan boshlab, to ish beruvchi va xizmatchilar bilan buladigan boshqa jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Imkoniyatlarning tengligi, ish joyida sog‘lijni ximoya qilish, moliyaviy bexatarlik, shaxsiy hayotga aralashmaslik, mustaqillik va o‘ziga ta’luqli yashash sharoitini ta’minalashni talab qiladi.

**Mahalliy aholi**, ishlab chiqarish jarayonida korporatsiyalar ularga katta ta’sirini kursatadi. Aholi korporatsiyalardan mahaliy muammolarda ishtirok etish va ularning muammolarini echishda bevosita ishtirokini: ya’ni ta’lim, transportni tashkil etish, dam olish uchun sharoit qilish, sog‘lijni saqlash tizimini, atrof muhitni ximoyalashni kutadi.

**Jamiyat**, korporatsiyalar ularga xalqaro va milliy darajada ta'sir kursatadi. Ularning faoliyati har xil shakllardagi korxona va tashkilotlarning, shuningdek, boshqarish tuzilmalarning va ommaviy axborot vositalarining e'tiborida buladi.

Korporatsiyalardan milliy va xalqaro miqiyosidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash kabi muammolarni echish amalga oshirishini kutadi. Korporatsiyalarning jamiyat oldidagi asosiy majburiyatlaridan biri o'z iqtisodiy hayotiyligini qulab quvvatlash va saqlab qolishdan iboratdir. SHu orqali ish joyilarini kupaytirish, ya'ni dunyodagi global muammolaridan biri ishsizlikning oldini olish va ishlab chiqarishda ekologik xavf xatardan ximoyalashi lozimdir.

**Mol yetkazib beruvchilar**, odatda ularning asosiy qismini kichik korxonalar, ya'ni korporatsiyalar bilan haqqoniy savdo aloqalarini, va o'z vaqtida to'lovlarini amalga oshirishni va ijobjiy hamkorlikni amalga oshirishni avzal kuradi. Korporatsiyalarning va ularning mol yetkazib beruvchilari o'rtasidagi hamjihatlik iqtisodiy tizimning asosiy bug'ini hisoblanadi, chunki kichik korxonalarning hayotiyligi korporatsiyalarning ularga nisbatan jiddiy va haqqoniy aloqalariga bog'iq hisoblanadi.

Korporatsiyalar turli xil prinsipial qarorlarini qabul qilishda korporativ aloqalar ishtirokchilari ehtiyojlari tengligini hisobga olsa, korporatsiyalar mohiyatini va muhimligini oshiradi. SHu maqsadda yirik korporatsiyalar korporativ muhitni va o'z aro aloqalarini mustahkamlash uchun qo'yidagi hujjatlar ro'yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

- ◊ Axloq kodeksi;
- ◊ Ish haqi to'lash va xizmatchilarni rag'batlantirish, ularning xuquqlarini ximoyalash, shaxsiy hayotga aralashmaslik, erkinlik bo'yicha takliflarni kiritish;
- ◊ Ishchilarni ish joylarida xavf- xatardan saqlash, sog'liqni saqlashni ta'minlash va ularga oid me'yor va tartiblarni o'rnatish;
- ◊ korporatsiyalarning xayriya faoliyati qoidalarini tartblashtirish;
- ◊ korporativ munosabatlardagi mavjud menejerlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, dasturlarni axborotlashtirish.

Korporativ boshqaruv va korporativ menejment tushunchalarini bir-biri bilan adashtirib yuborish hollari mavjudligini ta'kidlash joiz. Aytib o'tamizki, menejment korporativ boshqaruvni ham qamrab oladigan torroq tushuncha hisoblanadi. Bundan tashqari, korporativ menejment faqat kompaniya menejmenti (oliy rahbariyat bo'g'ini) tomonidan, korporativ boshqaruv esa kompaniya boshqaruv organlari (aksiyadorlar, direktorlar kengashi, bosh direktor va menejment) tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ boshqaruv ko'proq strategik harakterga ega bo'lib, kompaniyaning tashqi muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yo'naltirilgan bo'ladi (aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, hukumat organlari, hamkorlar, kreditorlar va boshqalar bilan aloqa qilish).

Korporativ boshqaruvni (corporate governance) menejment (management) bilan tenglash to'g'ri emas. Bu turli tushunchalardir. Korporativ boshqaruv uchun muhim narsa – halol, mas'uliyatli, ravshan korporativ hulq va hisobotni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlardir. Menejment esa korxona biznesining professional mutaxassislar tomonidan yuritilishiga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutadi. Korporativ boshqaruv menejmentga nisbatan rahbarlik qilishning yuqoriq pog'onasida joylashgan bo'lib, kompaniya faoliyatini uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida boshqarilishini ta'minlaydi. Korporativ boshqaruv va menejment vazifalarining o'zaro kesishuvi faqat kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Korporativ boshqaruvning maqsadi korporatsiyalarning investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining barcha faoliyat turlaridan imkon qadar yuqoriq foyda olishdir. Normal holatdagi korporativ boshqaruvni amalga oshirish uchun korporativ tizimga tez moslasha olish uchun uning qulay yo'llarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqsadni echishda korporatsiya menejmenti, marketing oldida har tomonlama katta hajmli, ko'p rejali ishlarni amalga oshirilishi kutib turadi. Belgilangan ishlarni quyidagicha bosqichma - bosqich amalga oshirish zarurdir:

◊ korporatsiya faoliyati maqsadlarini va mulkdorlarning jamlash usullarini to‘g‘ri aniqlash;

◊ aksiyadorlar nazorati ostida korporatsiyalarni qayta tarkiblashni o‘z-o‘zini boshqarish darajasigacha olib borish;

◊ qo‘yilgan maqsadlarga mos holda tashkiliy tarkibni tanlash: ishlab chiqarish, mahsulotni sotish, innovatsiya va marketing;

◊ Korporatsiya faoliyatini yagona tamoyillarni ishlab chiqqan holda ya’ni missiya, falsafa va boshqa asos bo‘luvchi hujjatlar negizida ishlab chiqish;

◊ ayniqsa oliv menejerlarga va ishchilarga haq to‘lash falsafasini o‘zgartirish.

Mulkchilikning aksiyadorlik shaklini korporativ boshqarish usullarini joriy etishda ko‘rsatib o‘tilgan jihatlarning mavjudligi korporativ hamjamiatning turli ishtirokchilari manfaatlarining uyg‘unligini va bozor talablari asosida aksiyadorlik korxonalarini rivojlantirishning raqobatbardosh strategiyalaridan foydalanishni taqazo etuvchi sifat jihatdan yangi menejmentni shakllantirishni talab etadi.

Bundan tashqari, korporativ hamjamiatning turli ishtirokchilari manfaatlarini keskin bozor iqtisodiyoti pozitsiyalaridan bir - biriga bog‘lay oladigan va tez o‘zgaruvchan raqobat muhitida korxonalarni rivojlantirishning moslanuvchan strategiyasini shakllantirishga qodir yangi avlod menejerlarini jalb qilmasdan turib biznesini korporativ boshqarish vazifalarini bajarib bo‘lmaydi.

Respublika korxonalarida korporativ menejment va korporativ munosabatlarning hozirgi ahvolini hisobga olib, korxonalarda korporativ menejmentini takomillashtirishning birinchi o‘rindagi vazifalari sifatida quydagilarni belgilash mumkin:

◊ kuzatuv kengashi a’zolari va boshqaruvchilar tomonidan hamda aksiyadorlarning o‘zi tomonidan ham korporativ huquqning mazmun-mohiyati va imkoniyatlarini chuqur anglab etilishi;

◊ bevosita aksiyadorlik korxonalari boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi to‘liq me’yoriy hujjatlar paketini ishlab chiqish va qabul qilish;

◊ aksiyadorlik jamiyatları ishini ongli boshqarishga aksiyadorlarning keng doirasini eng yuqori darajada jalb qilish;

◊ korxonalar faoliyatining aksiyadorlar va investorlar uchun maksimal ochiqligi va oshkoraligni ta'minlash;

◊ aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvining yuqori va ijro organlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasini oshirish.

“Oqilona ish haqi” tamoyilidan har bir ishchining real qo'shgan hissasini hisobga olgandagi to'lanadigan ish haqi tamoyiliga o'tish, joriy foydaga ega bo'lish, korporatsiyaning kapitalizatsiyalangan foydasini shakllantirish muammosini hal qilishda aksiyadorlarning shaxsiy qiziqishlarini korporativ menejment orqali echish mumkin.

O'zbekiston respublikasi 1996- yili 26- aprelda qabul qilingan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonuniga binoan O'zbekiston milliy korporativ boshqaruv modeli tuzilmasi qo'yidagi rasmda izohlanadi.

### **Mustaqil ishslash bo'yicha nazorat savollari:**

1. Korporativ boshqaruvning fanining predmeti va maqsadi nimadan iborat?
2. Korporativ boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
- 3 Korporativ boshqaruvning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlarini tushuntirib bering?
4. Korporativ menejment va korporativ munosabatlarning hozirgi ahvolini tushuntirib bering?
5. Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi to'liq me'yoriy hujjatlar sanab bering?
6. Mulkchilikning aksiyadorlik shaklini korporativ boshqarish usullarini qanday turlarga bo'linadi?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

10. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
11. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **4-bob. KORPORATIV BOSHQARUV STRATEGIYASI, IJTIMOIY MA'SULIYAT VA BARQARORLIK**

**Reja:**

- 4.1. Korporativ strategiya mazmuni va mohiyati**
- 4.2. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati**
- 4.3. Strategik rejalashtirishning yo'nalishlari**
- 4.4. Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayoni**
- 4.5. Korporativ maqsad - korporativ strategiyalarning ahamiyati**

**Tayanch iboralar: Korporativ strategiya, ijtimoiy ma'suliyat, strategik rejalashtirish, korporativ maqsad, Korporatsiyalar**

### **4.1. Korporativ strategiya mazmuni va mohiyati**

**Korporativ strategiya** - kompaniya maqsadi, uning aksiyadorlari uchun qiymat yaratish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Boshqa tashkilotlar uchun bu juda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, bu borada aksiyadorlar asosiy hisoblanadi va aksiyadorlar qiymat yaratishda yirik firma va kompaniyalarning kelgusida erishishi zarur bo'lgan strategik rejalashtirish asosida o'z vazifalarini belgilab olishadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona yoki firma yagona milliy iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi va ayni paytda, iqtisodiy jihatdan alohida bo'g'ini hisoblanadi. Korxona tarmoqlarni kengaytirib kattalashishi yoki o'z faoliyatini o'zini-o'zi boshqarish usuli orqali nazoratni o'rnatishi mumkin. Shuningdek, bozorni egallagan, ishlab chiqarishga asoslangan korxonalar o'z harajatlarini o'zi qoplashi asosida foyda (daromad) olish maqsadida yuritadigan birlamchi xo'jalik subyekti hisoblanadi. Korxonalar ishlab chiqarish, savdo, tijorat-visitachilik, transport, sug'urta, bank, injiniring, moliyaviy investitsiya, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va turli xizmatlar ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi.

Korxona (firma) faoliyatining asosiy maqsadi foyda (daromad) olish hisoblanadi. Shuningdek, korxonaning manfaatlariga ishlab chiqarishni kengaytirish, personalning kasbiy mahoratini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida texnologiya va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan va

taklif etilayotgan mahsulotning iste'molchilar, mijozlari va insofli sherik, hamkorlarning sonini ko'paytirish ham kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxona, tashkilot va muassasalarning iqtisodiy jihatdan xo'jalik subyektlari sifatidagi muvaffaqiyati ularning iqtisodiy manfaatlari talablarini qanday bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Korxonaning muhim iqtisodiy manfaatlariga iste'molchilar talablari va tadbirkorlik tavsifidagi ichki omillarga bog'liq holda vujudga keladigan noaniq kutilmagan vaziyatlarga moslashish qobiliyati kiradi.

Korxona o'zining foyda olish maqsadini amalga oshirishi uchun muntazam ravishda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirishga, mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini oshirishga, ularni sotish jarayonlariga ko'proq e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi. Shuningdek, undan aylanma mablag'lar harakatini tezlashtirish, barcha turdagи zaxiralarni kamaytirish, reklama, hamkorlar bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish, kelishuv majburiyatlariga rioya etish talab etiladi. Mahsulotni sotish va xizmat ko'rsatish jarayonida korxonaning iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqadi. Iqtisodiy manfaatlar korxonaning barqaror, ishonchli, moliyaviy-iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishi, yyetarli darajada moddiy, informatsion intellektual salohiyatga ega bo'lishidan manfaatdorligidan ham yuzaga keladi.

An'anaviy firma nazariyasi uning yagona iqtisodiy manfaati foydani maksimallashtirishga qaratilganini asoslaydi. Menejerial nazariyaga ko'ra firmaning faoliyatini uning egalari emas, balki menejerlari belgilab beradi. Ularning iqtisodiy manfaatlari ishlab chiqarish va mahsulotlar sotish hajmini hamda daromadni maksimallashtirish hisoblanadi. Firma qisqa muddatli davrda tovar sotish hajmini maksimallashtirishga, uzoq muddatli davrda esa foydani maksimallashtirishga harakat qiladi. Firma egalari kapitalni o'stirish, shaxsan boyishni xohlaydilar. Bunday xohish cheksiz bo'lib, menejerlar ish haqi, obro'-e'tibori, firmadagi o'z mavqeyini o'stirishni istaydi.

Ko'p maqsadlar konsepsiyasiga ko'ra firma bir necha maqsadni, ya'ni foyda, sotish hajmi, iqtisodiy o'sish va boshqalarni ko'zlaydi. Shuning uchun qiymat

yaratish maqsadida, firma va kompaniyalar resurslardan unumli foydalanish uchun raqobat afzalligini yaratish maqsadida ikkita ko'rsatkich: savdo aylanmasi va uning moliyaviy muhitga ta'sirini ko'rib chiqishadi.

Strategiya umumiylar tarzda korxonaning mavqeini mustaxkamlash, iste'molchilarining talablarini qondirish va qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqarish rejasidir. Aniq strategiyani tanlash - rivojlanishning mumkin bo'lgan turli yo'llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olish demakdir. Korxonani boshqarish rejasidir quyidagi asosiy funksiya va bo'linmalarni o'z ichiga oladi: ta'minot, ishlab chiqarish, moliya marketing, xodimlar, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar.

Strategik tanlash - bu biznes yechimlar va raqobatga bardoshlilik harakatlarini yagona tizimga bog'lash demakdir.<sup>12</sup>

Strategiyani ishlab chiqish menejerlarning asosiy funksiyalaridan biridir. Ba'zi menejerlar kuchli strategiya ishlab chiqadilar, biroq uni xayotga tadbiq eta olmaydilar. Boshqalari o'rtacha strategiya ishlab chiqadilar va uni mohirona amalga oshiradilar. Strategiya qanchalik yaxshi o'ylangan va moxirona amalga oshirilgan bo'lsa, kompaniyaning mavqeい shunchalik kuchayadi. Boshqarish yaxshi tashkil etilgan kompaniyalar ham kutilmagan noxush vaziyatlarga duch keladi. Pirovard natijada yaxshi strategiya bozorda kuchli mavqeni egallash, kutilmagan holatlarga, kuchli raqobatga va ichki muammolarga qaramay muvaffaqiyatli ishlashga zamin yaratadi.

Korporativ strategiya kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga ta'alluqlidir. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruvning negizini tashkil qiladi va kompaniyada menejmentning yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatuvchi eng to'g'ri belgi bo'lib xizmat qiladi.

Strategiyaning mazmuni quyidagilardan iborat:

- korxona biznesining yo'naliш va asosiy maqsadlarni belgilab olish;
- korxonaning tashqi muhitini tahlil qilish;

---

<sup>12</sup> Strategic Management concepts and cases. Arthur A. Thompson. Jr. A.J Strikland. p 4

- undagi ichki vaziyatni tahlil qilish;
- korxona yoki xo‘jalikning o‘rta bo‘g‘inlarida strategiyani tanlash va ishlab chiqish;
- diversiyalangan korxonaning portfelini tahlil qilish;
- uning tashkiliy strukturasini loyihalash;
- integratsiya darajasini va boshqaruv tizimini tanlash;
- “strategiya - struktura – nazorat” majmuasini boshqarish;
- korxona faoliyatining ba’zi sohalardagi siyosatini va uning fe’l-atvor me’yirlarni belgilash;
- kompaniya strategiya va natijalarining teskari aloqasini ta’minlash;
- strategiyani, strukturani va boshqaruvni takomillashtirish.

Strategiya - tashkilotning tashkiliy vazifa va maqsadlariga erishishda foydalaniladigan tashkiliy hatti-harakatlar va boshqaruvga yondashuvlari tarzidir. Biznes sohasini belgilash, maqsadni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni (dasturlarni) aniqlash, maqsadga erishish strategiyasini belgilab olish strategik rejani tashkil qiladi.

## **4.2. Korporativ ijtimoiy mas’uliyatning mohiyati**

Oxirgi yillarda butun dunyo bo‘ylab davlat, fuqarolik institatlari va xususiy kompaniyalar o‘rtasidagi munosabatlarda ro‘y bergan o‘zgarishlar ijtimoiy hamkorlikning yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib keldi. SHunday shakllardan biri ixtiyoriy ravishdagi o‘zaro munosabatlar tizimiga asoslanuvchi – korporativ ijtimoiy mas’uliyatdir. Hozirda biznes muhitida “korporativ ijtimoiy mas’uliyat” tushunchasi faol qo‘llanilmoqda, biznes hamjamiyatlari korporativ ijtimoiy mas’uliyat strategiyalarini ishlab chiqmoqdalar va tashkilot tuzilmasida korporativ ijtimoiy mas’uliyatni amalga oshirish bo‘limlarini tashkil etmoqdalar. Yevropa mamlakatlarida esa butun bir ilmiy tekshirish institatlari bu xodisani o‘rganish bilan shug‘ullanmoqda.

Korporativ ijtimoiy mas’uliyat – bu kompaniyaning izchil iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlari tizimi bo‘lib, manfaatdor tomonlarning doimiy o‘zaro

harakati asosida amalga oshiriladi va nomoliyaviy tavakkalchilikni pasaytirishga, kompaniyaning imidj va ishbilarmonlik nufuzini oshirishga, shuningdek korxonaning barqaror rivojlanishi va daromadliligini ta'minlaydigan kapitalizatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgandir[1].

Hozirgi kunda korxonaning ijtimoiy faoliyati va sha'ni o'zaro bog'liq bo'lган bir paytda biznesning ijtimoiy mas'uliyat masalasi birinchi o'ringa chiqqan. Agar korxona o'z xodimlarini ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlagan va realizatsiya qilinayotgan tovar va xizmatlar sifati va xavfsizligini kafolatlagan holda ijtimoiy dasturlarga mablag' kiritsa, istiqbolda korxona qulay ijtimoiy muhitga, oqibatda esa barqaror moliyaviy-iqtisodiy holatga erishadi.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat atamasining kelib chiqishi XX asrning 50-yillariga borib taqaladi. Amerikalik olim G. Bouen o'zining "Biznesmenning ijtimoiy mas'uliyati" kitobida bir qator ijtimoiy masalalarni biznesning mas'uliyat doirasiga kiritish zarurligini ko'rsatgan. Mamlakatlarning intensiv iqtisodiy rivojlanishi, bozor munosabatlarining mustahkamlanishi va biznesning jamiyatga ta'sirining o'sishi biznes mas'uliyati masalasiga va uning sotsiumning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va roliga bo'lган qiziqishni oshirdi[2]. Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning juda ko'p ta'riflari mavjud. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatga turli xalqaro tashkilotlar (shu jumladan, BMT va Jahon banki) tomonidan berilgan ta'riflarni umumlashtiradigan bo'lsak, ijtimoiy mas'uliyat zamonaviy menejmentning tamoyili sifatida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- korporativ ijtimoiy mas'uliyat raqobat kuchayib borayotgan va biznesga bo'lган ishonchning susayib borayotgan sharoitida kompaniyaning ixtiyoriy tanlovini ko'zda tutadi;
- qonunchilik tomonidan belgilangan soliq to'lash, ish joylarini yaratish va foyda olish majburiyatlari doirasidan tashqarida bo'lган mas'uliyatni bildiradi;
- korporativ ijtimoiy mas'uliyat mahalliy hamjamiyatning barcha subyektlariga (biznes, OAV, hokimiyat, aholi, investorlar va b.) aloqador;
- jamiyatdagi ayrim muammolarini biznes hisobidan hal etishdan biznesning o'zi faoliyat yuritayotgan muhitni yoki hududni rivojlantirishda ishtiroy etishiga

o‘tish;

– ushbu yondashuv kompaniyaning barqaror rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, uning moliyaviy ko‘rsatkichlariga bevosita uzoq muddatli ta’sir o‘tkazishi kerak.

Korporativ ijtimoiy mas’uliyatga turli xil yondashish mumkin va bu kompaniyalarning ko‘lami, biznes sektori, an’analar hamda mulkdorlar va asosiy aksiyadorlarning xohish-intilishlariga bog‘liq. Ba’zi bir kompaniyalar korporativ ijtimoiy mas’uliyatning faqat bir tarkibiy qismiga masalan, ekologik siyosat yoki mahalliy hamjamiyat uchun ijtimoiy dasturlarga urg‘u beradi. Boshqalari esa ijtimoiy mas’uliyat falsafasiga korporatsiyaning butun faoliyatini bo‘ysundirishga intiladilar va bunday yondashuvga korporativ boshqaruv bir misol bo‘la oladi. Ko‘pgina ijtimoiy mas’uliyatli korporatsiyalar o‘z tarkiblarida axloq yoki ijtimoiy mas’uliyat qo‘mitalarini yaratadilar. Ularning vazifasi kompaniyaning strategik rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan joriy korporativ amaliyotini baholash, menejerlarga ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga amal qilish borasida maslahat va tavsiyalar berishdan iborat. Bunday qo‘mitalar mavjud bo‘lmagan kompaniyalarda mas’uliyat direktorlar kengashi zimmasida bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘pgina ijtimoiy mas’uliyatli kompaniyalar ijtimoiy mas’uliyat masalalarini asosiy ichki hujatlarda, mehnat shartnomalarining shartlarida, personal uchun tartib qoidalari, direktorlar kengashining faoliyatini tartibga solish qoidalarda inobatga oladilar. Yirik kompaniyalarda ishbilarmonlik hatti-harakati va axloq-odob normalari kodeksi ham mavjud.

Umuman, ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyasining asosiy g‘oyalari va uni ijtimoiy mas’uliyatli hatti-harakat orqali amalga oshirish yondashuvlari XX asr o‘rtalarida AQSHda paydo bo‘ldi va o‘z rivojlanishi davrida 3 bosqichni bosib o‘tdi.

Birinchi bosqich (XX asrning 60-70 yillari) filantropiya va xayriyaning gullab-yashnashi bilan tavsiflanadi. O‘sha davrda ishbilarmonlik faoliyati va ijtimoiy faollik ayri holda amalga oshirilgan. Ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish uchun yordam korxona rahbarining shaxsiy xayrixohligi asosida asosan moddiy yordam ko‘rinishida ajratilgan.

Ikkinchi bosqich (XX asrning 70-80 yillari) strategik filantropiyaning paydo

bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu davrga kelib biznes ijtimoiy masalalarini hal etishni korporatsiyaning strategik maqsadlari bilan bog‘lay boshladi.

Uchinchli bosqich (XX asrning 80-yillari oxiri) ijtimoiy investitsiyalarni amalga oshirish amaliyotining rivojlanishi bilan harakterlanadi. Ma’lum bir ijtimoiy muammolarni hal etish uchun tijorat, notijorat va davlat sektorlari o‘z urinishlarini birlashtira boshlaydilar.

1979-yilda amerikalik olim A.Keroll tomonidan korporativ ijtimoiy mas’uliyatning o‘ziga xos talqini taklif etildi. Unga ko‘ra, korporativ ijtimoiy mas’uliyat ko‘p pog‘onali mas’uliyat bo‘lib, uni piramida ko‘rinishida aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. A.Keroll piramidasini quyidagi rasmida aks ettirilgan.

Keroll piramidasining asosi bo‘lgan iqtisodiy mas’uliyat korxonaning bozorda tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi sifatida iste’molchilarining ehtiyojlarini qondirish majburiyatini va shu orqali o‘z foydasini olishini aks ettiradi.

Huquqiy mas’uliyat bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesning mavjud qonunchilikka rioya qilish zaruriyatini, kompaniya faoliyatining huquqiy normalarda belgilab qo‘yilgan jamiyat kutishlariga mosligini nazarda tutadi.

Axloqiy mas’uliyat korxona faoliyatining huquqiy normalarda belgilab qo‘yilmagan, ammo mavjud axloq normalarida asoslab berilgan jamiyat manfaatlariga mos bo‘lishini talab etadi.

Filantrropik mas’uliyat korxonani muhtojlarga yordam berishga qaratilgan, shu jumladan, ijtimoiy dasturlarni hayotga tatbiq etishda xayriya faoliyatiga undaydi.

Muhitga nisbatan korporativ ijtimoiy mas’uliyatda 2 darajani ajratish mumkin: ichki va tashqi.

Ichki korporativ ijtimoiy mas’uliyatga tashkilotning mehnat va ijtimoiy-mehnat munosabatlari doirasidagi mas’uliyati kiradi. Mehnat munosabatlari – mehnat shartnomasida belgilangan ma’lum bir ishni xodim tomonidan bajarish to‘g‘risidagi ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi kelishuv natijasida yuzaga keladigan munosabatlar. Ijtimoiy-mehnat munosabatlari – xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat faoliyatining yuqori sifatini ta’minlashga qaratilgan munosabatlar. Berilgan ta’riflardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, majburiy ichki mas’uliyat mehnat

qonunchiligiga amal qilish, xodimlarni tibbiy sug‘urtalash, o‘qitish orqali tashkilotning insoniy salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq. Ichki ixtiyoriy mas’uliyatga xodimlarning psixofiziologik sog‘lig‘i to‘g‘risida qayg‘urish kiradi va u o‘z aksini jamoada uyg‘un munosabatlarni o‘rnatish, ichki nizolarni hal etishda ishtirok etish, xodimlarning yaxshi jismoniy holatini saqlash uchun qo‘srimcha imkoniyatlarni taqdim etish kabilarda topadi.

Tashqi korporativ ijtimoiy mas’uliyat – tashqi atrof-muhit uchun turli xil oqibatlar olib kelishi mumkin bo‘lgan va korxona faoliyati natijasida yuzaga keladigan mas’uliyat. Majburiy tashqi mas’uliyatga korxonaning yetkazib berayotgan tovar va xizmatlarning sifati uchun; tashkilotning xatti-harakati yoki harakatsizligi orqali tabiiy atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun; siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarga ta’sir etish natijalari (ushbu holda monopoliyalar yaratishga urinishlar, korporatsiyalarning o‘zaro til biriktirishi, ozchilikning manfaatlariga xizmat qiluvchi qonun-qoidalarni ishlab chiqish) uchun va h.k.lar uchun jamiyat oldida javob berish zaruriyatini kiritish mumkin. Tashqi ixtiyoriy mas’uliyatga korxona tomonidan xayriya, homiylik ishlarida, korxona faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan atrof-muhitni himoyalash aksiyalarida ishtirok etish, inqiroz va favqulodda holatlarda aholini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olingan majburiylarni kiritish mumkin.

Ta’kidlash joizki, har qanday tashkilot ochiq tizim bo‘lib, tashqi muhit bilan faol o‘zaro harakatga kiradi. U jamiyatda mavjud bo‘lib, jamiyat tufayli unga tegishli bo‘lgan resurslardan foydalanadi bu esa o‘z navbatida, bir butun bo‘lgan jamiyat va qism (korxona) o‘rtasida uyg‘un munosabatlarni o‘rnatishni talab etadi. Bunday yondashuv korporatsiyani faqatgina foyda olish mexanizmi sifatida emas, balki uni jamiyatning bir bo‘lagi sifatida qarashga ham imkon beradi. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat zamonaviy iqtisod va axloq, biznes va inson o‘rtasidagi ziddiyatlarni olib tashlashga imkon beruvchi tashkilotning kodeksi yoki tamoyili bo‘lishi mumkin.

Korporativ ijtimoiy mas’uliyat – bu kompaniyalarning PR-tadbirlari asosida yotuvchi yangi urf bo‘lgan konsepsiya emas, balki har bir muvaffaqiyatli kompaniyaning zaruriy tarkibi bo‘lib, bozorda yuqori ulushga ega bo‘lish va uni saqlash maqsadlarini o‘zida aks ettiradi. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat – bu jamiyat

rivojlanishiga biznesning ixtiyoriy qo'shgan hissasi bo'lib, personalning ijtimoiy himoyasiga va kasbiy rivojlanishiga, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashga, atrof-muhitni himoyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy investitsiyalar vositasida amalga oshiriladi[4]. Bu sohadagi faoliyat tizimli harakterga ega bo'lib quyidagi yo'nalishlarda ijro etiladi:

### **Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmi.**

Yo'nalishlari:	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.
Personal bog'liq mas'uliyat.	<p>Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish dasturlari.</p> <p>Qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlar (tibbiy nafaqa va uy-joy dasturlari, sanatoriy-dam olish maskanlarida davolanishlar va h.k.).</p> <p>Korporativ madaniyatni shakllantirish va xodimlar uchun nomoddiy rag'batlarni yaratish.</p> <p>Ayirmachilikka (diskriminatsiyaga) yo'l qo'ymaslik va barcha xodimlarga millatidan, dinidan, jinsidan qatiy nazar teng imkoniyatlar yaratib berish.</p>
Atrof-muhitni asrash.	<p>Turli xil ifloslanishlarning oldini olish (atmosferaga, suv obyektlariga chiqindilarni tashashni to'xtatish).</p> <p>Energiya, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish.</p> <p>Qayta tiklanmaydigan resurslar iste'molini qisqartirish.</p> <p>Ekologik omillarni hisobga olgan holda ofisda ishni tashkil etish (qog'oz, suv, energiyani tejash, videokonferensiylar o'tkazish orqali mehnat safarlarini qisqartirish).</p>
Iste'molchilarga nisbatan mas'uliyatli munosabat.	<p>Iste'molchilarning hayoti va sog'ligiga zarar etkazmaydigan sifatli tovar yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish.</p> <p>Tovar va xizmat xususiyatlari to'g'risida ishonchli ma'lumot berish.</p> <p>Iste'molchilar to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash.</p> <p>Sifati qoniqarsiz tovar va xizmatlar ko'rsatilgan holatda zararni qoplash muolajalarining mavjudligi.</p>

	Ijtimoiy va ekologik afzalliklarga ega (qayta ishslash va takroran foydalanish imkonini beruvchi, xizmat ko'rsatish muddati uzoq bo'lgan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va resurslarni iste'mol qiladigan) tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va haridorlarga yetkazib berish.
Mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish.	<p>Faoliyat olib borilayotgan hududlarda yangi ish joylari yaratish va kadrlarning tayyorgarlik darajasini oshirish.</p> <p>Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash.</p> <p>Hududlarda iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va diversifikatsiya qilishga investitsiyalar kiritish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish.</p>
Xayriya va ko'ngillilik (volontyorlik) ishlari.	<p>Aholining muhtoj guruhlarini himoyalashga va qulay ijtimoiy va madaniy muhitni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega dastur va loyihalarni amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash.</p> <p>Xodimlarni ko'ngilli xizmat (volontyorlik) faoliyatida ishtirok etishini rag'batlantiradigan tizimni shakllantirish.</p>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi keng qamrovlidir:


- biznesning ijtimoiy mas'uliyati – jamiyat va biznes rivojlanishining yangi madaniy pog'onasi bo'lib, korxonaning tijorat va jamiyat manfaatlari o'rtaida konsensusni topishga imkon beradi;
- korporativ ijtimoiy mas'uliyat – bu biznesning jamiyat rivojiga jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarga ixtiyoriy ravishda hissa qo'shish majburiyati;
- korporativ ijtimoiy mas'uliyat – biznes va jamiyat birgalikda barqaror holda mavjud bo'lishini aks ettiruvchi konsepsiya.

Bunday yondashuvlar respublikamizda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga katta e'tibor berilayotgan bir paytda, korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasini rivojlantirish muammosining dolzarbligini oshiradi.

### **4.3. Strategik rejalashtirishning yo‘nalishlari**

Korporatsiyalarning moliyaviy siyosati Korporatsyaning umumiy strategiyasining bir bo‘lagi bulib, uning maqsad va vazifalariga turi kelishi lozim. Korporatsyaning rivojlantirish strategiyasi barcha mablag‘larning samarali taqsimlanishi va foydalanishini ta’minlaydi: moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari, shuningdek er va texnologiyalarining raqobotlilik muhitida barqarorlik darajasini saqlaydi.

Shuning uchun, birinchi navbatda, boshqaruvning tezkor shaklini (tahlilsiz qarorlarni qabul qilish) qo‘llangandan kura, tahlil va bashorat orqali boshqarishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.




### **4.4. Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayoni**

Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish mahsulotni ishlab chiqarish, bozorni rivojlantirish, xatarlarni baholash, korporatsiyalarning moliyaviy xo‘jalik tahlili asosida aniqlangan holati, Korporatsiyalarning kuchli va zaif tomonlari buyicha bashoratlarini amalga oshirish asosida tuzilishi lozim. (rasm ).

Bizning fikrimizcha, Korporatsiyalarning umumiy strategiyasi korporativ birlashmalarning turiga ham bog‘liqdir.

Корпорациялар стратегиясини  
ишлаб чиқиш



#### 4.1-Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayoni

#### 4.5. Korporativ maqsad -- korporativ strategiyalarning ahamiyati

Korporativ maqsad - korporativ strategiyalarni baholash, korporativ strategiyalarni moliyaviy ta'minlashning usul va mezonlarini aniqlash korporativ boshqaruvning moliyaviy mexanizmidan foydalanish, ko'proq samarali moliyaviy dastaklar va usullarni tanlash.

"Aksiyadorlar boyligini maksimallashtirish" nazariyasidan kelib chiqilsa, Aksiyadorlar daromadlarining o'sishiga erishish asosiy korporativ strategiya va korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezoni sifatida qaralmog'i lozim, unda korporativ boshqaruvning moliyaviy mexanizmini mazkur strategiyani moliyaviy ta'minlash nuqtai nazaridan ko'rish mumkin

Korporativ strategiyalarni ta'minlashning moliyaviy dastaklari va usullarining to'plami bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirishda, ya'ni moliyaviy resurslarga ehtiyoj belgilanib, pul oqimlari rejasi tuzilganda, quyidagilarni aniqlash lozim<sup>13</sup>:

1) O'z va qarz kapitali nisbatini. Bunda korxonaning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan moliyaviy siyosatiga jamg'arish fondini kengaytirish kiritilishi va bunda asosiy urg'u o'z-o'zini moliyalashtirishga berilishi kerak. O'z-

<sup>13</sup> М.Б.Хамидуллин Концепция построения национальной модели корпоративного управления. Рқнок, деньги и кредит. № 5 сон. 2007й

o‘zini moliyalashtirish ushbu fondlarga yo‘naltiriladigan sof foyda ulushini belgilash orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, uzoq muddatli strategiyalarning moliyaviy ta’minoti usullari ro‘yxatiga vaqtincha bo‘sh mablag‘larni ularni in-flyasiyadan saqlash hamda ko‘paytirish maqsadida moliya bozorlarida joylashtirish ham kiritilishi kerak. Buning uchun moliyaviy vositachilar tarkibini belgilash zarur, bu tarkib vaqtincha bo‘sh mablag‘larni joylashtirish tavakkalchiligi minimal bo‘lishi uchun yyetarlicha diversifikatsiyalanishi darkor.

2) Agar moliyaviy resurslar manbasi sifatida investitsiya loyixasini kreditlash qabul qilingan bo‘lsa, u holda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun ochiladigan va kreditni qoplashni ko‘zda tutadigan uzoq muddatli kredit liniyasi to‘g‘risida bitim tuzish lozim.

3) Kreditni qoplash tamoyillari korxonaning moliyaviy ahvolini, pul mablag‘larining joriy va istiqboldagi qiymatini, kreditni qoplash shartlarini qayta qurib chiqish imkoniyati hisobga olinishi kerak.

4) Agar moliyalashtirishni Aksiya va obligatsiyalarni qimmatli qog‘ozlar bozorida joylashtirish hisobiga amalga oshirish ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, u holda investorlar doirasini va Korporatsiya obrusini oshirish uchun reklama kampaniyasi budgetining eng yuqori darajasini aniqlash talab etiladi.

5) Aksiyadorlik jamiyatlari uchun strategiyalar moliyaviy tusga ega bo‘lishi va aksiyalar kurs qiymatining oshishida ifodalanishi mumkin. Bu holda moliyaviy dastaklar qatoriga foyda va dividendlar kiritiladi, dividendlar hamda sof foyda miqdorlarining o‘sishini ta’minlashning moliyaviy usullari esa chiqimlarni kamaytirish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish bo‘yicha tadbirdir.

Strategik fikrlash uchun maqsadlar ierarxiyasini raxbarlikning barcha tabaqalari uchun kompleks ravishda belgilab olish muximdir. Bu barcha menejerlar uchun vazifalarni aniqlashtirishdan tashqari, ularga erishishning reallagini ham ta’minlaydi (bu maqsadda jarayonda quyi tabaqadagi menejerlar ham ishtirok etadi).

### **Mustaqil ishslash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Strategik rejallashtirishning yo‘nalishlari ahamiyati nimadan iborat?

2. Moliya-sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv tizimi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimalardan iborat?
3. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati tushuntirib bering?
- 4."Aksiyadorlar boyligini maksimallashtirish" nazariyasini tushuntirib bering?
5. Korporativ maqsad - korporativ strategiyalarning ahamiyati qanday?
6. Korporativ strategiya mazmuni va mohiyatini aytib bering?
7. Ko'p maqsadlar konsepsiyasiga ko'ra firma bir necha maqsadni, ya'ni bularni izohlab bering?

### **Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 12.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 2008. – 260 b.
13. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.
14. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
15. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **5-bob. Korporativ boshqaruvda hamkorlik; investorlar, kompaniyalar va direktorlar kengashi**

**5.1. Korporativ boshqaruvda hamkorlik rivojlanishning muhim omili.**

**5.2. Korporativ boshqaruvda Korporatsiyalarni boshqarishda davlatning o‘rnini.**

**5.3. Korporativ boshqaruv tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishda jahon amaliyoti.**

**Tayanch iboralar: Korporativ hamkorlik, Oltin Aksiya, xorijiy investorlar, davlat Aksiya paektlari, Korporatsiyalar .**

### **5. 1. Korporativ boshqaruvda hamkorlik rivojlanishning muhim omili.**

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq O‘zbekistonda davlat mulki iqtisodiyotning “bozor kamchiliklariga” duchor bo‘lgan qismiga nisbatan kengroq sohasining ishlashiga ta’sir qiladiki, bu davlat mulkini xususiyashtirish jarayonining tugallanmaganligi bilan bog‘liqdir. Oqibatda, Aksiyalari to‘liq yoki qisman davlat ixtiyorida bo‘lgan Aksiyadorlik jamiyatlar bilan birgalikda, ustav fondida davlatning ishtiroki vaqtincha bo‘lgan korxonalar soni ham ko‘p. Masalan, xususiyashtirilishi kerak bo‘lgan ko‘pchilik korxonalar ularni rekonstruksiya qilish uchun katta hajmdagi investitsiyalarga muhtojdir. Ularning Aksiyalari, nafaqat Aksiyalarni sotib olishga, balki ishlab - chiqarishni rivojlantirishga ham investitsiya kiritishga tayyor bo‘lgan strategik investorlarga sotilishi nazarda tutiladi. Bunday investorlarni topish oson bo‘lmaydi va ma’lum bir vaqt talab qilinadi.

Respublikamiz barcha Aksiyadorlik jamiyatları chiqargan aksiyalar umumiy miqdori 2,1 mlrd. donadan, ularning jami nominal qiymati 3,0 trln. so‘mdan oshib ketdi. Ulardan turli kompaniyalar emissiya qilgan 2,4 trln. so‘mlik (80,0%) 1,3 mlrd.dona (61,9%) Aksiyalar davlat yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan turli kompaniyalar ixtiyorida edi. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalar, hamda deyarli barcha xolding, davlat - Aksiyadorlik va Aksiyadorlik kompaniyalari Aksiyalarining 51% va undan ortiq ulushlari doimiy ravishda davlat mulkchiligidagi saqlab qolinadi. Ushbu AJ Aksiyalarini davlat qanday boshqarishi ko‘p jihatdan

mamlakatning butun iqtisodiyoti rivojlanishi darajasini belgilaydi.

Kompaniya menejerlarining «tashkilot faoliyatning qanday turlari bilan shugullanmoqchi va kelajakda qanday bo‘lmoqchi?» - degan masalaga qarashlari strategik ko‘rish deyiladi. Strategik ko‘rish - «biz kimmiz, nima qilyapmiz, nima qilmoqchimiz» degan savollarga javob beradi. Ba’zan kompaniyalar o‘zining vazifasini noto‘gri belgilab, uni faqat foydada ifodalaydilar. Biroq foyda kompaniya bajaradigan ishning natijasidir. Faqat foyda olishga qaratilgan kompaniyaning missiyasi korxonalarini bir-biridan farqlash imkonini yo‘qotadi. Vaxolanki, har bir kompaniya o‘zining qiyofasiga - imidjiga ega bo‘lishi kerak.

Yaxshi o‘ylab ko‘rilgan strategik ko‘rish va kompaniya missiyasini asoslash quyidagi 3 ta jixatdan iborat<sup>14</sup>:

- 1) kompaniya biznesning qaysi sohasida ishlayotganligini tushunish;
- 2) kompaniyaning strategik ko‘rishi va missiyasini aniq, lo‘nda va ilxom bilan tushuntirib berish;
- 3) kompaniya strategik ko‘rishi va missiyasini o‘zgartirish haqida o‘z vaqtida qaror qabul qilish;

Faoliyat doirasini to‘g‘ri aniqlash uchun quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

- 1) axolining ehtiyoji, ya’ni nima ishlab chiqarish kerak
- 2) haridorlar guruhi, yoki tovarni kim uchun ishlab chiqaramiz
- 3) texnik va funksional ijro, ya’ni haridorlar ehtiyojini qanday qondiramiz

Shunday qilib, birinchi masalani to‘g‘ri xal kilish uchun «nimaga bo‘lgan ehtiyojni, qanday qilib va kimning ehtiyojini qondiramiz» - degan savollarga javob topish lozim.

Faoliyat doirasini belgilash 2 xil bo‘ladi:

- 1) umumiy
- 2) detallashtirilgan

Umumiy belgilashga misol: ichimliklar, mebel, xalqaro pochta xizmati, sayoxatlar va turizm. Detallashtirilgan belgilashga misol: alkogolsiz ichimliklar, sport poyafzali, ofis uchun mebel, jo‘natmalarni tunda yetkazib berish, Karib dengizida

---

<sup>14</sup> Strategic Management concepts and cases. Arthur A. Thompson. Jr. A.J Strikland. p.34

plyaj tashkil etish va xokazo.

## **5.2. Korporativ boshqaruvda korporatsiyalarni boshqarishda davlatning o‘rni.**

Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsadlari, tamoyillari va modellari:

- davlat budgetining soliqdan tashqari daromadlarini oshirish;
- tabiiy monopoliyalarni tartibga solish, mamlakat mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish va boshqa dasturlarini amalga oshirish bilan bog‘liq umudavlat vazifalarini bajarishda xo‘jalik jamiyatlarining qatnashuvini ta’minlash;
- ishlab - chiqarishning rivojlanishiga sharoit yaratish, xo‘jalik jamiyatlari faoliyatining moliyaviy - iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, investitsiyalar jalb qilish;
- iqtisodiyotda institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish (korxonalarni, tarmoqlarni restrukturizatsiya qilish, vertikal integratsiyalangan korporativ tuzilmalarni tashkil qilish);

Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning asosiy tamoyillari:

- aniq AJ (AJlar guruhi, masalan, paxta tozalash zavodlari) aksiya paketlarining davlat egaligida qoldirilishi zarur bo‘lgan maqsadlarning aniqlanishi va mos ravishdagi huquqiy hujjatlarida aniq yoritilishi;
- minimal yetarlilik, ya’ni davlat manfaatlariga iqtisodiy tartibga solishning (soliq, bojxona siyosatini o‘zgartirish va boshqalar) bilvosita (indikativ) usullar bilan erishib bo‘lmaydigan korxonalardagina aksiyalar paketiga davlatning egalik qilishi yetarlidir;
- samarali boshqarish orqali resurslarni imkonli bor darajada tejashga erishish uchun korxona ustav fondida davlat ishtirokining zaruriyati;
- boshqaruvning professionalizmi, davlat aksiya paketlarini boshqarishga yuqori malakali mutaxassislarning jalb qilinishi nazarda tutilishi;
- davlat aksiya paketlarini boshqaruvchilar bilan samarali o‘zaro munosabatda

bo‘lish tizimining mavjudligi.

O‘zbekiston Aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat Aksiya paketlarini boshqarishda jahon amaliyotida keng tarqalgan uch variant (model) qo‘llaniladi:

- Aksiyadorlik jamiyatlar boshqaruv organlariga davlat xizmatchilarini saylash (tayinlash). Bu variant O‘zbekistonda 1998-yildan beri qo‘llanadi. Davlat ulushi 25%dan oshadigan har bir aksiyadorlik jamiyatlarda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish uchun davlat ishonchli vakillari tayinlanadi;

- davlat aksiya paketlarini shartnomaga asosida ishonchli boshqaruvga berish (amerika modeli). 1998-yilgacha bu yo‘l bilan barcha davlat aksiya paketlari boshqarilar edi. Ishonchli boshqaruvchilik vazifasi, boshqariluvchi aksiya paketlari ustav fondlariga berilmagan holda, bozor islohatlarining dastlabki yillarda tugatilgan tarmoq vazirliklari negizida tashkil qilingan uyushmalar, Korporatsiyalar va boshqa xo‘jalik birlashmalari zimmasiga yuklatilgan edi. 1998 – 2002 yillarda xo‘jalik birlashmalari ishonchli boshqaruvida 25% va undan kam miqdordagi aksiya paketlari berilgan edi. Keyinchalik ushbu aksiya paketlarini professional boshqaruv kompaniyalariga ishonchli boshqaruvga berish boshlandi;

Bugungi jahon iqtisodiyotidagi integratsiyalashuv va moliyaviy globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va aholi turmush farovonligining yuksalishi mamlakat moliya tizimining barqarorligiga va rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Moliyaviy munosabatlarning markaziy bo‘g‘ini sifatida korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar moliya tizimida muhim o‘rin egallashidan kelib chiqqan holda korporativ moliya va davlat moliyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning metodologik asoslarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida moliya, moliyaviy munosabatlar, xususan, korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimi to‘g‘risida o‘z ilmiy qarashlarimizni keltirib o‘tamiz.

Moliyaviy munosabatlar iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, turli darajadagi iqtisodiy tizimlar subyektlari o‘rtasidagi pulli munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Bunday moliyaviy munosabatlarga davlatlararo, korxonalararo,

davlat va korxona davlat va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar va hokozolar kiradi.

Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi haqida fikr yuritilganda, avvalo, moliya va uning tarkibiy tuzilishi nazarda tutiladi. Korporativ moliya va davlat moliyasi umumiy moliya tizimining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Moliya to‘g‘risida iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ta’riflardan kelib chiqan holda umumiy holda moliyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Moliya – bu ma’lum bir maqsadda pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir. Professor Krassimir Petrov o‘zining “Financial management” nomli video ma’ruzasida moliyaning tarkibiga korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot, investitsiya, uy xo‘jaligi moliyasi va davlat moliyasi kiritilishini ta’kidlab o‘tadi. Bizning fikrimizcha esa, moliya o‘z ichiga davlat moliyasi, korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot va uy xo‘jaligi moliyasini oladi. Investitsiya esa ulardan har birining tarkibida mavjuddir.

Davlat moliyasi, korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot va uy xo‘jaligi moliyasi doimo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘zaro moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Moliyaviy iqtisodiyot umumiy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga moliya bozori, moliya institutlari, moliyaviy instrumentlarni oladi. Mamlakatimizda moliyaviy iqtisodiyot tushunchasi o‘rnida ko‘p holatlarda moliyaviy sektor tushunchasi qo‘llaniladi.

Shu o‘rinda moliyaning tarkibiga kiruvchi davlat moliyasi va korporativ moliyaning mazmun va mohiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Davlat moliyasi – bu davlatning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun davlat budgeti va nobudget maqsadli pul fondlarini shakllantirish va taqsimlash hamda qayta taqsimlash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir. Korporativ moliya esa bu – korporativ tuzilmalar maqsadlarini amalga oshirish uchun pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlari yig‘indisidir.

Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar

tizimining samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligining ta'minlanishiga hamda aholi turmush farovonligi yuksalishiga xizmat qiladi. Fikrimizning dalili sifatida, 2008-yilda xalqaro miqyosda yuzaga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatimiz tomonidan olib borilgan izchil moliyaviy siyosat yuritilishi mamlakatimizda ham real sektor, ham moliyaviy sektor tuzilmalarining iqtisodiy tang holatdan qiyinchiliksiz chiqib ketishiga zamin yaratdi.

Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi umumiyligi moliya tizimining eng muhim va ajralmas qismi bo'lib, bunday munosabatlar tizimi o'z ichiga soliq, majburiy ajratmalar, davlat investitsiyalari, davlat qimmatli qog'ozlari, litsenziyalash, pul, kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, narx shakllanishi, dividend siyosati, davlat haridi, jarima va sanksiya qo'llanilishi hamda boshqa munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Korporativ tuzilma va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimi tarkibiga kompaniyalarning davlat budgetiga soliqlar va majburiy ajratmalarni to'lashi, strategik ahamiyatga ega kompaniyalar faoliyati davlat tomonidan ham moliyalashtirilishi, davlat pul-kredit siyosatining amal qilishi, kompaniyalarning davlat nazorati ostida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishi, korxonalar biror bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi uchun davlatdan litsenziya olishi, kompaniyalarning fond birjalarida faoliyatini yuritishida davlat tomonidan ta'sir choralar ko'rishi, kompaniyalarning mahsulotlarini davlat tomonidan harid qilinishi yoki ular faoliyatiga davlat tomonidan ulush sifatida investitsiya kiritilishi, kompaniyalar tomonidan davlatga dividend to'lanishi, kompaniyalar tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarining sotib olinishi va qayta sotilishi, noqonuniy faoliyati uchun kompaniyalarga davlat tomonidan jarima-sanksiyalar qo'llanilishi kabi moliyaviy munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini unda davlatning ishtirokiga qarab shartli ravishda ikki guruuhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh: davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar, ikkinchi guruh: davlat ulushiga ega bo'limgan korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar.

Davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida bir tomonidan ushbu turdag'i korporativ tuzilmalar tomonidan davlatning turli darajadagi budgetlariga soliqlar, majburiy ajratmalar, dividendlar va boshqa ko‘rinishdagi mablag‘larning yo‘naltirilishi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni, boshqa tomonidan davlat ushbu turdag'i korxonalarning egasi sifatida uning taraqqiyoti uchun turli imtiyozlar, budjetdan turli maqsadlar uchun turli ko‘rinishdagi mablag‘lar, xususan, pul mablag‘lari, asosiy vositalar, investitsiyalar yo‘naltirish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni keltirishimiz mumkin. SHuni ta’kidlash lozimki, davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar ko‘lami mustaqillik yillarda davlat mulkining xususiylashtirilishi sababli kamayib borayotganligi bilan harakterlanadi. Ushbu ilmiy qarashlarimizning birgina tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 -il 24-apreldagi PF-4720 sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruvi uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoniga muvofiq 2015-yil 1-iyulidan aksiyadorlik va boshqa xo‘jalik jamiyatlari nomlarida ularning ustav kapitalida davlat ulushidan qat’i nazar “davlat” so‘zidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaslik belgilanganligini keltirishimiz mumkin.

Ikkinci guruhga mansub korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar ham umumiyligi molija tizimining muhim va ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu moliyaviy munosabatlar tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida, davlat budgetiga soliqlar va majburiy ajratmalarining borib tushishi va davlat tomonidan korporativ molija subyektlariga turli imtiyozlar taqdim etilishi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar kiritiladi. Bundan tashqari, ushbu moliyaviy munosabatlar tizimiga davlat qimmatli qog‘ozlarining oldi-sotdisi, korporativ tuzilmalar taraqqiyoti uchun davlat investitsiyalarining kiritilishi, eksport-import operatsiyalarida davlatning ishtiroki, valyuta operatsiyalarining tartibga solinishi, korporativ tuzilmalar faoliyat va sohalariga qonunchilik orqali o‘zgartirishlar, cheklashlar yoki taqiqlashlar kiritilishi, davlat mulkining ijara qoidalari yoki xususiylashtirilishi kabilar bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni ham kiritish

maqsadga muvofiq.

Korporativ tuzilma va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimining samarali tashkil etilishi, ayniqsa, korporativ moliya subyektlari tomonidan puxta o‘ylangan qarorlarning qabul qilinishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan barcha moliyaviy muammolarni hal etishda korporativ tuzilma egalari, davlat ulushi mavjud korxonalarda esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy tangliklarni bartaraf etishda korporativ tuzilma egalari qatorida davlat ham ishtirok etadi.

Korporativ tuzilma va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimida soliq munosabatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, korxonalar va davlat o‘rtasidagi soliq munosabatlari korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumdan tortib, to sof foyda shakllangungacha bo‘lgan oraliqda davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlarga soliqlar va majburiy ajratmalar to‘lanishi bilan harakterlanadi.

Mahsulot sotishdan tushumdan to sof foyda shakllanish oralig‘ida korxonalarning davlat bilan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va boshqa egri soliqlar, resurs soliqlari, foyda solig‘i, qo‘srimcha foyda solig‘i, budgetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar bilan bog‘liq soliq munosabatlari yuzaga keladi. Ushbu soliq munosabatlari amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar natijasida turli darajada o‘zgarib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli farmoni ham kelgusida soliq munosabatlarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ushbu hujjatga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lash, xorijiy mutaxassislarning boshqaruv xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig‘i, to‘lov manbaidan olinadigan daromad solig‘i, shuningdek, budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan fuqarolarning majburiy sug‘urta badallaridan ozod etish belgilandi. Bu esa, o‘z navbatida, korporativ tuzilmalarda zamonaviy boshqaruv uslublarining joriy etilishiga hamda korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarning samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatalar tizimi umumiyligi moliyaviy munosabatlarning asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi va uni samarali tashkil etish ham korporativ tuzilmalar ham davlat moliyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi;

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar shartli ravishda ikki guruhga davlat ulushiga ega korxonalar va davlat o‘rtasidagi hamda boshqa korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarga bo‘linadi. Davlat ulushiga ega korxonalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarining ko‘lami ikkinchi guruhdagiga qaraganda kengroqdir;

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning asosiy qismini soliq munosabatlari tashkil etadi. Soliq munosabatlarini samarali tashkil etish, soliq qonunchiligini barqarorlashtirish ham korporativ tuzilmalar ham davlat moliyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimini samarali tashkil etish korporativ tuzilmalar hamda mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, bu, o‘z navbatida, biznes muhiti yaxshilanishiga va aholi turmush farovonligi o‘sishiga xizmat qiladi.

### **5.3. Korporativ boshqaruva tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishda jahon amaliyoti.**

Korporativ boshqaruvning amerika tizimi xususiyatlari AQSHda Aksiyadorlik mulkchilikning xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Xusan, amerika Korporatsiyalariga boshqa investorlardan ko‘ra o‘z ta’sirini kuchliroq o‘tkaza oladigan yirik investorlarning yo‘qligi xosdir.

Amerika Korporatsiyalarining aksiyadorlik kapitali yuqori darajada kichik paketlarga tarqab ketgan bo‘lib, AQSH Korporatsiyalari aksariyatining reestrlarida umumiyligi bir foizidan oshig‘iga egalik qiluvchi birorta xususiy shaxs yoki institutsional investor qayd qilinmagan. Natijada aksiyadorlarning birorta guruhi direktorlar kengashiga a’zolik qilishga alohida da’vogar bo‘la olmaydi. Ikkinchi

muhim xususiyat shundaki, xususiy shaxslarga qarashli bo‘lмаган Aksiyalarning ko‘philigi institutsional investorlar – nafaqa va o‘zaro yordam (paychilik) fondlari qo‘lida jamlangandir. Bu investorlar qo‘llarida 50%dan oshiq kapitalni jamlaydi, ko‘proq moliyaviy menejer sifatida qatnashishga moyilroq bo‘lib, direktorlar kengashi ishida qatnashishga intilmaydilar va odatda o‘zлari yirik paketga egalik qilgan kompaniyalar uchun mulkchilik huquqidan kelib chiqadigan mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishdan o‘zlarini olib qochadilar.

Aksiyadorlik kapitalining maydalangani bir mulkdordan ikkinchisiga aksiyalarning o‘tishini osonlashtiradi. Mayda aksiyador o‘ziga qarashli aksiyalarni sotish haqida qarorni nisbatan oson qabul qilishi mumkin, aksincha yirik aksiyador uchun paketning sotilishi odatda strategik rejalarining o‘zgarishidan dalolat berishi va sotiladigan aksiyalarning kurs qiymati tushib ketishi oqibatida (bozordagi taklifning ortib ketishi sababli) yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Amerika qimmatli qog‘ozlar bozorining yuqori samaraliligi va likvidligi bilan ajralib turishi mayda investorlar uchun paketlarni sotish ishini tez va texnik jihatdan oson amalga oshadigan qilib qo‘yadi. Kompaniyalarning qo‘shilishi, qo‘shib olinishi, egallanib olinishi va sotib olinishlari amerika fond bozorining keng tarqalgan amaliyoti bo‘lib, bu esa fond bozorini aksiyadorlar tomonidan menejerlar faoliyatini nazorat qilishning juda samarali va oson amalga oshirishga imkon beruvchi quroli qilib qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

"Oltin aksiya" qiymatga ega emas, boshqa shaxsga berilmaydi hamda arovga qo‘yilmaydi, ustav fondi miqdorini belgilshda va dividendlarni hisoblashda inobatga olinmaydi.

"Oltin aksiya" ustav fondida davlat ulushi bo‘lмаган yoki bu ulush yigirma besh foizdan oshmaydigan Aksiyadorlik jamiyatlarida joriy etilishi mumkin. Davlatning "oltin aksiya"dan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

"Oltin aksiya" aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat

vakilini (bundan buyon matnda davlat vakili deb yuritiladi) tayinlash vositasida realizatsiya qilinadi. Davlat vakili aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida ushbu qonunning 65-moddasi birinchi qismining ikkinchi-to‘rtinchi, yettinchi, sakkizinchi, o‘n sakkizinchi, o‘n to‘qqizinchi xatboshilarida, shuningdek 82-moddasi birinchi qismining ettinchi, yigirma ikkinchi-yigirma to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha veto qo‘yish huquqi bilan majburiy tartibda ishtirok etadi. Veto qo‘yish ushbu qarorlar qabul qilingan kuni yozma shaklda amalga oshiriladi.

### **Mustaqil ishslash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Korporativ boshqaruvda hamkorlik rivojlanishning muhim omili nimadan iborat?
2. Korporativ boshqaruvda Korporatsiyalarni boshqarishda davlatning o‘rnini nimalardan iborat?
3. Korporativ boshqaruv tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni jalg qilishda jahon amaliyotini tushuntirib bering?
4. Amerika qimmatli qog‘ozlar bozorini xususiyatlarini tushuntirib bering?
5. Oltin aksiya nima?
6. Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning mazmuni va mohiyatini aytib bering?
7. Davlat moliyasi, korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot va uy xo‘jaligi moliyasi bularni izohlab bering?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...

16.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.

17. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.

18. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.

19. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **6- bob. KORPORATIV BOSHQARUV FUNKSIYALARI**

**Reja:**

**6.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya jozibadorligi va unga ta’sir etuvchi omillar**

**6.2. Korporativ tuzilmalarda raqobat muhitini shakllantirish**

**6.3. Raqobat muhitini rivojlanishida korporativ munosabatlar**

**Tayanch iboralar: investitsiya, korporativ tuzilma, raqobat muhiyi, investitsion jozibadorlik, iqtisodiyot tarmoqlari, Umumiy yig‘ilish, kuzatuv kengashi, ijroiya organi, korporativ kotib.**

**6.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya jozibadorligi va unga ta’sir etuvchi omillar**

Bugungi globallashuv jarayonlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro integratsiyasini faollashtirishda aksiyadorlik jamiyatlari ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, bozor munosabatlarining takomillashuvi va tezkor o‘zgarishlarning hozirgi davrida aksiyadorlik jamiyatlarining samarali moliya-xo‘jalik faoliyatini ular tomonidan puxta ishlab chiqilgan moliyaviy siyosati va uni amalga oshirish mexanizmisiz ta’minlab bo‘lmaydi. Bu aksiyadorlik jamiyatlarida samarali korporativ boshqaruvni tashkil etishda bugungi kunda jiddiy e’tibor qaratilayotgan muhim jihatlardan hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotimizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda aksiyadorlik jamiyatları faoliyatini rivojlantirish, ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta’minlashga erishish, tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlash korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va bu borada ilg‘or xorij tajribalaridan samarali foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

Bu borada respublikamizda 2017-2021 yillarda bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida alohida belgilab berilgan.

Xususan:

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarни strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
- kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag‘larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorini o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishish (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta’minlashga erishish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish hamda mahsulotlar va xizmatlar bozorida bosqichma-bosqich monopoliyani qisqartirishga erishish yo‘lida ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarning aksiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik subyektlarining hujjatlarini ko‘rib chiqish tartibini soddalashtirishni ta’minlash;

- aksiyadorlik jamiyati shaklidagi tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kafolatlash fondini tashkil etish va uning Ustav kapitalining boshlang‘ich miqdorini O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi, davlat organlari va tijorat banklari – muassislar ulushlari hisobiga shakllantirish asosida Fondning tadbirkorlik subyektlarini kredit va boshqa moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlashni kengaytirish, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda kredit olish uchun garov ta’minotini taqdim etish imkoniyatini yaratish kabilar shular jumlasidandir.

- Bugungi kunda jahonda korporativ boshqaruv amaliyotida etuk va zamonaviy tajriba va shakllangan malakalarni o‘rganish dolzARB masalalardan hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar, shuningdek korporativ boshqaruvni xalqaro tajribalarini qayta tizimlash masalasi ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi bitiruv malakaviy ishini bobsining dolzarbligini belgilaydi.

Bozor iqtisodiyoti chuqurlashib borayotgan sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning xalqaro tajribalarni qayta tizimlash unidan O‘zbekistonda foydalanish bilan bog‘liq masalalar va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Quyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyatini taqqoslama tarzda o‘rganish va tegishli ishlanmalarni shakllantirish;
- mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruvni joriy etishning zarurligi va ahamiyati aniqlash;
- korporativ boshqaruvning xalqaro amaliyotidagi tajribalari o‘rganiladi va ular qayta tizimlanadi;
- mamlakatimiz mas’uliyati cheklangan jamiyatlarida korporativ boshqaruvning holati va rivojlanishi tendensiyalar o‘rganiladi;
- korporativ boshqaruvning xalqaro tajribalarini ijobiy jihatlari aniqlanadi va ulardan foydalanish yo‘llari aniqlab beriladi;
- O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni samaradorligini oshirish yuzasidan

ilmiy taklif va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasida 1996-yil 26-apreldagi N 223-I sonli “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunida ko‘rsatilganidek, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv organlariga qo‘yidagilar kiradi:

- Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- Kuzatuv kengashi (Direktorlar kengashi);
- Ijroiya organi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatni boshqarishning oliy organidir.

Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini (Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishini) o‘tkazishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin ko‘pi bilan olti oy ichida o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishida jamiyatning kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to‘g‘risidagi, yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan, kollegial ijroiya organining a’zolari, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to‘g‘risidagi, auditorlik tekshiruvi o‘tkazish haqida qaror qabul qilish to‘g‘risidagi masalalar, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash masalalari hal etiladi, shuningdek ushbu Qonun 65-moddasining birinchi qismi o‘n uchinchi xatboshisiga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar qarab chiqiladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilish hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana va uni o‘tkazish tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro‘yxatini jamiyatning kuzatuv kengashi belgilaydi.

Umumiy yig‘ilishga tayyorgarlik ko‘rishda va uni o‘tkazishda ko‘p uchraydigan

xatolar:

- Amaliyotda umumiy yig‘ilishning o‘tkazilishi haqidagi xabarni aksiyadorlarga yetkazish bo‘yicha minimal talablarga rioya qilinmaydi;
- Umumiy yig‘ilishni chaqirishda tartibot muddatlari buzilmoqda. Masalan, me’yoriy talablarni buzmasdan yillik umumiy yig‘ilishni 10 martgacha o‘tkazish juda qiyin;
- Umumiy yig‘ilishni chaqirishda aksiyadorlarga tanishish uchun beriladigan axborot(material) ro‘yxatining to‘liq bo‘lmasligi.
- Umumiy yig‘ilish kun tartibidagi masalalarning noaniq ifodalanishi va bir masala doirasida turli yo‘nalishdagi muammolar bo‘yicha ovozga qo‘yish, hamda kun tartibiga “har xil masalalar” kiritilishi.

Aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig‘ilishini chaqirishdagi, tayyorgarlik ko‘rishdagi, o‘tkazishdagi, ovozlarni hisoblashdagi xato va qonun buzilishlar jamiyatda korporativ boshqaruvning samaradorligini pasaytiradi, chunki:

- Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari ustidan aksiyadorlarning nazorati susayadi;
- Ijroiya organi samaradorligi pasayadi, uning aksiyadorlar manfaatlariga zid harakat qilishining ehtimolligi oshadi;
- Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasining faoliyati “xo‘ja ko‘rsin”ga olib boriladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, ushbu Qonun bilan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo‘lgan aksiyadorlar soni o‘ttiz kishidan kam bo‘lgan jamiyatda kuzatuv kengashi vazifasi jamiyat ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi zimmasiga yuklanishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazish masalasini hal etishga vakolati bo‘lgan muayyan shaxs yoki jamiyat organi jamiyat ustavida o‘z aksini topishi kerak.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga binoan jamiyat kuzatuv kengashi a’zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davrda badal to‘lanishi va (yoki)

kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq harajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yiladi.

Kuzatuv kengashi faoliyatini samarali tashkil qilish. Kuzatuv kengashining missiyasi qo'yidagicha:

-har bir jamiyatda kengash maqsadi, vazifasi, vakolati va javobgarligi ta'riflangan hamda o'ziga quyidagi asosiy qoidalarni olgan hujjatning bo'lishi tavsiya qilinadi:

Kengashning o'zak g'oyasi – jamiyat va uning faoliyati bilan ishbilarmonlik va boshqa o'zaro munosabatlardan holi, mulk egalari (aksiyadorlar) va boshqa manfaatdor shaxslar nomidan nazorat ishlarini olib boruvchi shaxslar guruhining shakllanishidir;

- kengashning missiyasi aksiyadorlar qo'ygan ulush qiymatining maksimal o'stirilishidir. Kengash faoliyati asosida aksiyadorlar maqsadlari va manfaatlari yotishi zarur.

Kuzatuv kengashining vakolatlari quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

1. Umumiyligi yig'ilish yoki Ijro etuvchi organiga hal qilish uchun berilishi mumkin bo'limgan va faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan masalalar, jamiyat Ustavida faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi masalalar deb belgilanishi kerak;

2. Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masala Umumiyligi yig'ilish mutlaq vakolatiga tegishli bo'lsa, Ustavda ushbu masalani faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga taaluqli qilib belgilash mumkin;

3. Umumiyligi yig'ilishning umumiyligi vakolatiga qarashli masalalar, Jamiyat Ustavida Umumiyligi yig'ilish yoki Kuzatuv kengashi yoki Ijro etuvchi organ vakolatiga doir qilib belgilanishi mumkin;

4. Taftish komissiyasi tomonidan jamiyatning moliyaviy - xo'jalik faoliyatini taftish qilish haqidagi qaror qabul qilish to'g'risidagi masala, Ustavda ham Umumiyligi yig'ilish, ham Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi vakolatiga kiritilishi kerak;

5. Umumiyligi yig'ilish kun tartibini shakllantirish bo'yicha tashabbuslar bilan

bog‘liq masalalar.

Kuzatuv kengashi vakolatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Umumiylig‘ilish va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini kuzatib borish;
2. Kuzatuv kengashiga aksiyadorlarning murojaatlari bo‘yicha muvofiq teskari aloqani ta’minlash;
3. Biznes - rejani tuzish va amalga oshirishda Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining solidar (birgalikda) javobgarligi;
4. Aksiyadorlarning dividendlar bo‘yicha “umidlarini” va ishlab chiqarishning qayta investitsiya qilinishiga ehtiyojlarini hisobga oladigan mo‘tadil dividend siyosati;
5. AJ asosiy faoliyatiga mansub bo‘lmagan, mulklarni sotib olish va begonalashtirish, bitimlar hamda zahira va boshqa fondlarni ishlatilish ustidan Kuzatuv kengashining nazorati;
6. Ijroiya organi bilan yollash bo‘yicha mehnat shartnomasi doirasida qat’iy o‘zaro munosabatlarni yuritish.

Kuzatuv kengashining roli va vazifalarini qo‘yidagilarda kurish mumkin:

Kengashning vazifasiga aksiyadorlar nomidan Jamiyat faoliyatiga rahbarlik qilish va uning oliy menejerlari (Boshqaruv, Bosh direktor) faoliyatini nazorat qilish kiradi.

Kengash faoliyatining asosiy jabhalari:

- aksiyadorlik jamiyatlar strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- risklarni boshqarish tizimining yaratilishini ta’minlash;
- jamiyatning joriy moliyaviy - xo‘jalik faoliyati;
- aksiyadorlik jamiyatlar ijroiya organi (oliy menejerlar)ning ishlashini kuzatish;
- kengash va uning alohida a’zolarining ishini yo‘lga qo‘yish;
- kompaniya faoliyati haqida axborotni tayyorlash va oshkor qilish;
- inqirozning oldini olishga qaratilgan boshqaruv;

- nomzodlarni ko‘rsatish;
- nomzod ko‘rsatishda cheklanishlar;
- nomzod ko‘rsatish muddatlari;
- son tarkibi;
- nomzodlar bo‘yicha talabnomalarni berish tartibi va shakli;
- talabnomalarni ko‘rib chiqish tartibi.

Kuzatuv kengash a’zoliga nomzodlarga qo‘yiladigan talablar:

- qonuninchilikda o‘rnatilgan cheklanishlar;
- alohida aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashiga saylanadigan shaxslarga maxsus talablar.

Kuzatuv kengashi a’zosi uchun zarur bo‘lgan fazilatlarga quyidagilar kiradi:

- korporativ huquqda savodli bo‘lish;
- tarmoqqa doir bilimlarga va zarur kasbiy malakaga ega bo‘lish;
- halol va o‘z mas’uliyatini his qiladigan shaxs sifatida tanilgan;
- yetarli vaqt ajrata oladigan;
- Kengashning boshqa a’zolari, kompaniya menejerlari va aksiyadorlari bilan samarali hamkorlik qilishga qobiliyatli;
- mustaqil fikr bildirishga va uni himoya qilishga qodir;
- korporativ munosabatlar qatnashchilari manfaatlarining muvozanatiga rioya qilish;
- aksiyadorlar va jamiyat manfaatlarini himoya qilish masalalarida faol pozitsiyaning mavjudligi.

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) yoki kollegial ijroiya organ (boshqaruv, direksiya) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bir paytning o‘zida ham yakkaboshchilik asosidagi, ham kollegial ijroiya organlari bo‘lishi nazarda tutilgan jamiyat ustavida ulardan har birining vakolatlari belgilab qo‘yilishi kerak. Bunday hollarda jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) vazifasini bajaruvchi shaxs kollegial ijroiya organi (boshqaruv, direksiya) raisi vazifasini ham amalga oshiradi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnama bo‘yicha tijorat tashkilotiga (boshqaruvchi tashkilotga) yoki yakka tartibdagi tadbirkorga (boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, basharti ustavda o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tayinlanadigan ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo‘l qo‘yiladi.

Jamiyat ijroiya organining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga yoki kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifoda etadi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Jamiyat ijroiya organlarini tashkil etish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustavida ushbu masalalarni hal etish jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilmagan bo‘lsa, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Jamiyat ustaviga muvofiq yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoxud jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga binoan jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organini (direktorini), kollegial ijroiya organi (boshqaruvi, direksiyasi) a’zolarini tayinlash tanlov asosida amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organining (direktorining), kollegial ijroiya organi (boshqaruvi, direksiyasi) a’zolarining, boshqaruvchi tashkilot

yoki boshqaruvchining huquqlari va majburiyatlari ushbu Qonun, boshqa qonun hujjatlari, jamiyat ustavi tomonidan hamda ularning har biri jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi. Jamiyat nomidan shartnomani kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergen shaxs imzolaydi. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktori) bilan, kollegial ijroiya organi (boshqaruvi, direksiyasi) rahbari, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuziladigan shartnomada ularning aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha majburiyatlari hamda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashi oldida jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan beradigan hisobotlari davriyligi nazarda tutilishi lozim. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organiga (direktoriga), kollegial ijroiya organi (boshqaruvi, direksiyasi) a’zolariga to‘lanadigan mehnat haqi va boshqa haqlar miqdori, shuningdek boshqaruvchi tashkilot va boshqaruvchi xizmatlariga haq to‘lash shartlari jamiyat faoliyatining samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, shartnomada belgilanishi kerak.

Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) vazifasini hamda boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozimlarni o‘rindoshlik yo‘li bilan bir shaxsning egallashiga kuzatuv kengashi roziligi bilangina yo‘l qo‘yiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki kuzatuv kengashi, agar ustavga binoan unga shunday huquq berilgan bo‘lsa, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor), kollegial ijroiya organi (boshqaruvi, direksiyasi) a’zolari, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda bekor qilishga haqlidir. Kuzatuv kengashi jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan, kollegial ijroiya organining a’zolari, shuningdek boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma tuzishda ular jamiyat ustavini qo‘pol tarzda buzishga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar etkazilgan

bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan jamiyat ijroiya organining, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda ijroiya organining vakolatlarini boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchiga o‘tkazish to‘g‘risidagi masala o‘sha umumiyligi yig‘ilishning o‘zida hal etilishi yoki ijroiya organi rahbarining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni ham tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiyligi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin. Agar jamiyatning ijroiya organini tuzish aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan bo‘lsa, ijroiya organining, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchining vakolatlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan kuzatuv kengashi ijroiya organi rahbarining vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi, shuningdek ijroiya organi to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqiradi.

Yapon modeli mazmuniga ko‘ra amerika modeliga ham, germaniya modeliga ham o‘xshamaydi, biroq ikkala modelning ayrim xususiyatlarini o‘z ichiga olgan:

- direktorlar kengashi tarkibida mustaqil direktorlar bo‘lmasdan, kengashning barcha a’zolari yuqori boshqaruv organi vakillari yoki eski boshqaruvchilardir;
- Aksiyadorlik sarmoyasini asosan yirik investorlar tashkil qilib, yagona sanoat guruhiga a’zo bo‘lgan kompaniyalarning o‘zaro aksiyalariga egalik qilish holati muhim o‘rin tutadi.
- shaxslararo munosabatlar kuchli muhim ahamiyatga ega;
- insayderlarning etakchiligi
- Boshqaruvning yagona organi – uning tarkibida ijro etuvchi direktorlardan ko‘ra mustaqil direktorlar ko‘proq bo‘lgan unitar Direktorlar Kengashi (aksiyadorlik mulkchilikning «Inglizsakson» modeli: 24 - 30% aksiya harakatsiz, uzoq vaqt kichik korxonalar qo‘lida bo‘ladi va nazorat paketini shakllantiradi, 70-80% aksiya, aksincha, harakatchan, vaqt - vaqt bilan bozorga olib chiqiladi va bir kishining qo‘lidan boshqasiga oson o‘tadi);
- Aksiyadorlik kapitalning katta qismi inglizsakson udumlarida tarbiyalangan

mayda investorlar sarmoyasidan iborat;

- Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘limgan aksiyalar asosan institutsional investorlar qo‘lida jamlangan;
- Qimmatli qog‘ozlar bozori yuqori samaradorligi va likvidligi bilan ajralib turadi;
- Minoritar Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish yuqori darajada;
- Jalb qilingan direktorlar ishtirokidagi kuchli korporativ boshqaruv.

Xalqaro ekspertlarning tahlillariga ko‘ra, keyingi yillarda korporativ boshqaruv kodekslarining dunyo bo‘yicha keng tarqalish holati kuzatilmoqda. Ushbu kodekslar qonun kuchiga ega bo‘lmasada, korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etayapti. Jahon tajribasini o‘rgangan mutaxassislarining fikricha, korporativ boshqaruv kodekslari turli davlatlarda turli subyektlar tomonidan, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha komissiyalar, fond birjalari, investorlar va ularning uyushmalari, boshqa milliy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Masalan, Kedberi ma’ruzasi korporativ boshqaruv bo‘yicha Britaniyadagi birinchi kodeksning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois, 1993-yilda qabul qilingan mazkur hujjat Kedberi kodeksi deb nom olgan.

Kedberi kodeksi kompaniya tuzilmasi, direktorlar kengashinig mas’uliyati va mustaqilligi, ichki moliyaviy nazorat usullari, direktorlar kengashi a’zolari va topmenejerlariga haq to‘lash masalalariga daxldor 19 ta tavsiyani o‘z ichiga olgan. Britaniya qonunchiligidagi ham kompaniyalarga korporativ boshqaruv kodeksiga amal qilishi bo‘yicha talab o‘rnatilmagan. SHuning uchun bunday kodeks qoidalariga riosa etilishi yuzasidan tavakkalchilik mavjud. Ammo, tahlilchilarining ta’kidlashlaricha, amaliyot korporativ boshqaruv kodeksi ishlayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ko‘pgina kompaniyalardagi direktorlar kengashining professionallik darajasi oshganini Kedberi kodeksi tatbiqi bilan bevosita bog‘lash mumkin.

Kuzatuv kengashining vakolatlari quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

1. Umumiy yig‘ilish yoki Ijro etuvchi organga hal qilish uchun berilishi mumkin bo‘limgan va faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan masalalar, jamiyat Ustavida faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi masalalar deb

belgilanishi kerak;

2. Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masala Umumiy yig‘ilish mutlaq vakolatiga tegishli bo‘lsa, Ustavda ushbu masalani faqat Kuzatuv kengashi vakolatiga taaluqli qilib belgilash mumkin;

3. Umumiy yig‘ilishning umumiy vakolatiga qarashli masalalar, Jamiat Ustavida Umumiy yig‘ilish yoki Kuzatuv kengashi yoki Ijro etuvchi organ vakolatiga doir qilib belgilanishi mumkin;

4. Taftish komissiyasi tomonidan jamiatning moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini taftish qilish haqidagi qaror qabul qilish to‘g‘risidagi masala, Ustavda ham Umumiy yig‘ilish, ham Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi vakolatiga kiritilishi kerak;

5. Umumiy yig‘ilish kun tartibini shakllantirish bo‘yicha tashabbuslar bilan bog‘liq masalalar.

*Kuzatuv kengashi vakolatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:*

1. Umumiy yig‘ilish va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini kuzatib borish;

2. Kuzatuv kengashiga aksiyadorlarning murojaatlari bo‘yicha muvofiq teskari aloqani ta’minlash;

3. Biznes - rejani tuzish va amalga oshirishda Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining solidar (birgalikda) javobgarligi;

4. Aksiyadorlarning dividendlar bo‘yicha “umidlarini” va ishlab chiqarishning qayta investitsiya qilinishiga ehtiyojlarini hisobga oladigan mo‘tadil dividend siyosati;

5. AJ asosiy faoliyatiga mansub bo‘lmagan, mulklarni sotib olish va begonalashtirish, bitimlar hamda zahira va boshqa fondlarni ishlatilish ustidan Kuzatuv kengashining nazorati;

6. Ijroiya organi bilan yollash bo‘yicha mehnat shartnomasi doirasida qat’iy o‘zaro munosabatlarni yuritish.

*Kuzatuv kengashining roli va vazifalarini qo‘yidagilarda kurish mumkin:*

*Kengashning vazifasiga aksiyadorlar nomidan Jamiat faoliyatiga rahbarlik*

*qilish va uning oliy menejerlari (Boshqaruv, Bosh direktor) faoliyatini nazorat qilish kiradi.*

*Kengash faoliyatining asosiy jabhalari:*

- Aksiyadorlik jamiyatlari strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- risklarnii boshqarish tizimining yaratilishini ta'minlash;
- jamiyatning joriy moliyaviy - xo'jalik faoliyati;
- Aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya organi (oliy menejerlar)ning ishlashini kuzatish;
- Kengash va uning alohida a'zolarining ishini yo'lga qo'yish;
- kompaniya faoliyati haqida axborotni tayyorlash va oshkor qilish;
- inqirozning oldini olishga qaratilgan boshqaruv;
  - nomzodlarni ko'rsatish;
  - nomzod ko'rsatishda cheklanishlar;
  - nomzod ko'rsatish muddatlari;
  - son tarkibi;
  - nomzodlar bo'yicha talabnomalarni berish tartibi va shakli;
  - talabnomalarni ko'rib chiqish tartibi.

Kuzatuv kengash a'zoligiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- qonuninchilikda o'rnatilgan cheklanishlar;
- alohida aksiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashiga saylanadigan shaxslarga maxsus talablar.

## **6.2. Korporativ tuzilmalarda raqobat muhitini shakllantirish**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti islohatining shu kungi bosqichi markazlashtirilgan ishlab chiqarishni rejalashtirilgan ishlab chiqarishni rejalashtirish va mahsulotlarni taqsimlashga ega bo'lgan ma'muriy bo'yruqbozlik tizimidan bozor munosabatiga o'tish bilan harakterlanadi. Bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruchi, uning taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuch - raqobatdir. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi.

Avvalambor, raqobat nima? Raqobat (konkurensiya) lotincha - cancuro degan so‘zdan olingan bo‘lib, to‘qnashuv degan ma’noni bildiradi. O‘zbek tilida raqobat kim o‘zdi, basma - baslikka bellashuv ma’nosini anglatadi. Basma - baslikka kimbellashadi? Rakib bilan. Raqiblar - bir- biriga qarama-qarshi turuvchilar bo‘lib, biror narsani talashuvchilar ma’nosini ifodalydi. Shunday qilib, "Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, yuqori daromad olish imkoniyatiga, nufuzli mavqeiga ega bo‘lishi uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashidir".

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomonidan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste’molchilar uchun kurashdir.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, er-suv, ishchi kuchi) yuqori baholarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo‘ladi.

Raqobat iste’molchilar o‘rtasida ham yuz beradi; ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar, ya’ni haridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat - bozor subyektlari Iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat korxonaning eng samarali texnologiyaga o‘tish, ilg‘or ishlab chiqarishni ta’minlab borishga undaydi. U past va kam samarali texnologiya asosida ishlab chiqarishni uyushtirilgan korxonalarni qo‘llamaydi va ularning boshqa ilg‘or raqiblar

tomonidan siqib chiqarilishiga olib keladi. Shuning uchun raqobat, aytganimizdek, texnik progress imkoniyatini qo'llaydi va uni keng taraqqiyotga undaydi. Hamda korxonalar mehnat unumdorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni oqilona tashkil etishga, binobarin ishlab chiqarishni kengaytirish vasamaradorligini oshirishga doim undab turadi.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning **tartibga solish vazifasi** ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning **moslashtirish vazifasi** korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltarilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saklab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlakishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistiq hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobatni uchta turga bo'lish mumkin: *sotuvchilar, haridorlar, sotuvchilar va haridorlar o'rtasidagi raqobatga bo'lish mumkin.*

**Haridorlar o'rtasidagi raqobat** rivojlangan bozor xo'jaligida uning boshqa turlariga nisbatan kamroq ahamiyat kasb etadi. Albatta, sotuvchi haridorlardan tovar uchun ko'proq haq to'laydiganini afzal ko'radi. Biroq, ishlab chiqarish taklif talabga bemalol moslasha oladigan vaziyatda haridorlar o'rtasidagi raqobat ikkinchi o'ringa o'tadiki, muvozanat yoki taklifning talabdan ortiqchaligiga iqtisodiy tizimning hukumronlik qiluvchi faolatidir. Biron bir tovarni taklif etishni ko'paytirish uchun to'siq paydo bo'lga paytdagina raqobat keskinlashadi. Zero, agar tovar yetishmasligi paydo bo'lsa, haridorlar uni sotib olishda bir-birlaridan o'zishga intilib, sotuvchilarga balandroq narx taklif qiladilar. Sotuvchilar esa taqchil tovarni talab narxi bo'yicha, ya'ni haridori chiqsa iloji boricha yuqori narx bo'yicha sota boshlaydilar. Haridorlar imkoniyatlari bir hil bo'lganligi sababli ko'p haq to'lay oladigan kishi ushbu vaziyatda afzal ko'rildi. Bunday raqobat natijasida barcha haridorlar, har holda tovarni sotib oladigan, tovar yetarli miqdorda bo'lgandagiga qaraganda ko'proq haq to'laydigan haridorlar va hech narsa sotib ololmaydigan haridorlar ozmi-ko'pmi yutqazadilar, chunki ularning ehtiyojlari qondirilmaydi.

**Sotuvchi bilan haridorlar o'rtasidagi** raqobat muvozanat narxlari shakllanishi jarayonida sodir bo'ladi. Bundan oldindagi ma'ruzada muvozanat darhol yuzaga kelmaydi va uning darajasi talab bilan taklifning nisbatiga bog'liq deb ko'rsatilgan edi. Agar dastlabki shakllangan narx bo'yicha talab taklifdan ortiq bo'lsa, narx oshib boradi. Bunday vaziyatda sotuvchilar bilan birgalikda harakat qilish xos bo'lib, haridorlar parokanda bo'ladilar va ularning har biri taqchil molni sotib olishda boshqasidan o'zishga intiladi. Bordi-yu, dastlabki narx vaziyatida taklif talabdan ortiq

bo'lsa, haridorlar sotuvchilarni bir-birlari bilan raqobat qilishga narxni pasaytirishga majbur etadilar. Natijada muvozanat birinchi xoldagiga qaraganda pastroq darajada qaror topadi. Bundan haridorlar yutadilar, chunki ulardan har biri tovanni arzonroq sotib olishga muvaffaq bo'ladi.

Iqtisodchilar uchun *sotuvchilar o'rtasidagi raqobat* g'oyat qiziqlaridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sotuvchilar (tovar ishlab chiqaruvchilar) iste'molchining puli uchun kurashishdir. Sotuvchilar raqobatining ikkita asosiy shakli-*tarmoq ichida* va *tarmoqlararo raqobatlar* shakli keyinroq ko'rib chiqiladi.

Tovar xo'jaligi sharoitida **mintaqalar o'rtasidagi raqobat** muhim ahamiyat kasb etadi. Uni "Yevropa Ittifoqi" misolida ko'rsatib beramiz. Jumladan, Fransiyada don etishtirish harajatlari Germaniyadagiga qaraganda kamroq bo'lganligi munosabati bilan Ittifoq doirasida narxlar yagona tizimini o'rnatish fransuz don etishtiruvchilari uchun foydaliroqdir. Ularning ushbu maxsulotni ko'proq eksport qilishlari tabiiydir. Shu sababga ko'ra Germanianing oziq-ovqat va ozuqa bob donga bo'lgan ehtiyojining katta qismi Fransiyadan don keltirish hisobiga qondiriladi. Natijada ko'proq chiqimdar bo'lgan nemis dehqonlari raqobat kurashida yutqazadilar va ancha-muncha daromad yo'qotadilar. Shu bois ularning tashqaridan don keltirishni cheklashni va Yevropadagi integratsiya jarayonlari keltirgan zararni qoplashni talab qilishlari mutlaqo tabiiy tuyuladi.

**Mintaqalararo raqobat** asosan sotuvchilar o'rtasida mavjuddir. Lekin u haridorlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Masalan, haridaorlar guruhlari zarur tovarlarni arzonga sotib olish uchun bir mamlakatdan boshqasiga qatnaydigan "moddiy" yoki "tovar" turizmi kabi hodisa ham jahon amaliyotida ma'lum. Mamlakatimizda shu niyatda haridorlarning katta-katta qismi qishloq joylardan shaharlarga, bir shahardan boshqasiga, viloyatdan viloyatga, mamlakatdan mamlakatga qatnaydilar.

### **Korporatsiyalarni rivojlantirishda raqobat shakllari va usullari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporatsiyalar o'rtasidagi raqobatning ikkita asosiy - tarmoklararo va tarmoq ichidagi shakllari mavjud.

**Tarmoklararo raqobat** turli tarmoklar korxonalari o'rtasidagi eng yuqori

foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo‘lgan tarmoklardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi. Yangi kapitallar ko‘proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko‘payishiga olib keladi. Shu asosda narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda me’yori ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chikib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu erda ishlab chiqarish hajmi o‘zgaradi, mahsulotlarga bo‘lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko‘tariladi, shu bilan birga foyda me’yori oshadi. Natijada tarmoklararo raqobat obyektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganidan qat’iy nazar, teng kapital uchun foyda olinishiga intilishini ta’minlaydi. Demak, tarmoklararo kapital qaysi tarmoqqa solinmasin, xuddi shu tarmoq me’yorlarini o‘rtacha foyda me’yoriga yaqinlashtiradi.

Tarmoqlararo raqobat ikki asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, u tufayli haridorlar ehtiyojlariga g‘oyat mos iqtisodiyot tizimi vujudga keladi. Bu shuning uchun sodir bo‘ladiki, ishlab chiqaruvchilar talabning tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlanishiga darhol munosabat bildiradilar. Ikkinchidan, tarmoqlararo raqobat samaradarligining bir qadar ijtimoiy zarur darajasini yaratadiki, u foyda me’yorining o‘rtacha darajasida ifodalanadi. Samaradorlikni ushbu darajasiga eta olmagan korxonalar katta daromadga umid qilmasalar ham bo‘ladi. Bunday ahvol barcha ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarishni tashkil etishni va mahsulot sotishni doimo takomillashtirishga majbur etadi.

**Tarmoq ichidagi raqobat** ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘srimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida boradi. Har bir tarmoqka texnika bilan ta’milanish darjasini va mehnat unumдорligi darjasini turlicha bo‘lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo‘lmaydi. Tarmoq ichidagi raqobat mahsulotlarning ijtimoiy narxini, boshqacha aytganda bozor kiymatini aniklaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o‘rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos

keladi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan korxonalar kushimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatidan nochor korxonalar esa, o‘zlarida ishlab chikarilgan mahsulot qiyematining bir qismini yo‘qotadilar va zarar ko‘radilar.

Tarmoq ichidagi raqobat bir hil mahsulot ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobatdir. Uni shu narsa taqozo etadiki, tovarlar narxi, demak, korxona foydasining miqdori ham xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarayotgan boshqa ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga bog‘liq. Ishlab chiqaruvchilar uchun ichki va tashqi sharoitlarning ko‘pligi tufayli ular bozorda turlicha mavqeni egallaydi. Ularning har birining tarmoqdagagi o‘rnini, eng avvalo, korxonaning texnikaviy va texnologik darajasi, unda ishlovchi xodimlar malakasi, maxsulot ishlab chiqarish va sotish qanday tashkil etilganligi belgilab beradi. Tashqi shart-sharoitlar ham: korxona ishlab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitga xos xususiyatlar katta ahamiyatga molik. Chunki, bug‘doy etishtirishga ixtisoslashgan firma boshqa shart-sharoitlar teng bo‘lsada, tuproq unumliroq bo‘lgan joydan ko‘proq daromad oladi. Ishlab chiqaruvchilarni xom ashyo yetkazib beruvchilar va ular temir yo‘l magistrallariga va avtomobil yo‘llariga boshqalardan ko‘ra yaqinroq joylashgan korxonalar esa xomashyo yetkazishda va mahsulotni sotishda ustunlikka ega bo‘ladilar.

Bir tarmoq ichidagi raqobatning to‘rtta shakli mavjud: erkin raqobat, monopolistik raqobat, manopoliya va oligopoliyadir. Bugungi kunda respublikamizda erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni vujudga keltirish, rivojlantirish va takomillashtirish muammolari hal etilmoqda.

**Erkin raqobat** sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmokda juda ko‘p sonli korxonalar mavjud bo‘ladi. Yuqori darajada tashkil kilingan bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiyligi ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo‘lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko‘payishi yoki kamayishi umumiyligi taklifga, demak, mahsulot bahosiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmokka erkin kirishi, tarmoqda

mavjud bo‘lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo‘lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga hukuqiy, texnologii, moliyaviy va boshqa jiddiy to‘siqlar bo‘lmaydi.

**Monopoliya** - tarmoq bitta firmadan iborat bo‘lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

**Monopolistiq raqobat** o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat elementlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagи mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari birlari bilan kulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqlashtirish, ya’ni shu turdagи boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihatи (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

**Oligopoliya** – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lмаган korxonalarning mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistiq tarmoq bir xil yoki tabaqlashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari: po‘lat, mis, alyuminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar - fizik ma’noda bir turdagи mahsulot lar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste’molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqlashgan oligololiya hisoblanadi. Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Raqobatning ikki asosiy usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

**Narx vositasidagi raqobatlashuvda** ishlab chiqaruvchilarning va shunday

mahsulotlarinikiga nisbatan narxni pasaytirishi kurashning asosiy usuli hisoblanadi.

Narx vositasidagi raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli ishlab chiqaruvchilarning o‘z mahsulotlari narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlarinikiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko‘p ko‘llaniladigan ko‘rinishi - "narxlar jangi" deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar rakiblarini tarmokdan siqib chiqarish uchun narxni vaqtiga- vaqt bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo‘llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritish, malakaliroq xodimlarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo‘ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozorqiyatidan past bo‘lib, mazkur tovar narxini tushirish imkoniyatini beradi. Shuningdek narx bilan raqobatlashuvga quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan toifadagi iste’molchilar uchun imtiyozli narxlarda (masalan, ulgurji savdoda doimiy haridorlarga ma’lum bir foiz(%) li chegirmalar berish berish) sotish;
- vaqt va joyiga qarab narxlarni tushirish yoki ko‘tarish;
- mahsulotlar sifati yaxshilangan sharoitlarda ham amaldagi narxlarni saqlab turish;
- haridorlar uchun kredit muddatlarini uzaytirish va boshqalar.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri - **demping narxlarni** ko‘llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo‘lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulot ni yo‘qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o‘zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga haraqat qiladi. Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy harid qilingan tovarlarga boshqa yuvarlarini qo‘shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalilaniladi.

**Narxsiz raqobat** shu bilan tavsiflanadiki, bunda tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro‘-e’tibori

raqobat kurashining asosiy omili hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtida **yashirin narx yordamidagi raqobat** ham bo‘lishi mumkin. Buning uchun yangi mahsulotlarning sifati oshishi va iste’mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro‘y berishi kerak. Hozirgi davrda bir turdagи mahsulotlarning ko‘payishi ularning sotilishini rag‘batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va korxona muxrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste’molchilik bozorida qo‘srimcha xizmat kshrsatish orqali haridorlarni o‘ziga jalb qilish keng tarqalmokda.

Narxsiz raqobatning mahsulot sifatini tabaqlashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda mahsulotlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo‘lishi, lekin turli tuman iste’mol xossalariiga ega bo‘lishi mumkin. Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo‘lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to‘lanadi, uning qolgan qismi esa sharhnomada kelishilgan aniq muddatlarda to‘lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormokda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar haridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste’molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o‘z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o‘rnatadi, korxona xodimlarini ulardan foydalanishga o‘rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta’mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; mahsulot lari o‘lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodieti sharoitida talabni yaxshi o‘rgangan va iste’molchilar ehtiyojlarini to‘laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi. Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o‘zgartirish

uchun o‘zlarining ishlab chiqarish kuvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qiskartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barkorligicha qolaveradi.

Shuningdek, g‘irrom va halol raqobat usullari ham ajratib ko‘rsatiladi. Raqobatlashuvning noan’anaviy, Jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy axloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘siga putur etkazish va h.k.) usullaridan foydalanish **g‘irrom raqobat** deb yuritiladi. G‘irrom raqobat orqali firmalar o‘z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, etakchi mutaxassislarni og‘dirib olish, narxni keskin pasaytirish g‘irrom raqobatning oddiy usullaridir.

**Halol raqobat** - raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan, iqtisodiy usullarni ko‘llash, o‘zining maksad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo‘llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

### **6.3. Raqobat muhitini rivojlanishida korporativ munosabatlar**

O‘zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.

Raqobatning amal qilishi ma’lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o‘z-o‘zidan, evolyusion yo‘l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopolashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta’kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o‘z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya’ni iqtisodiyotning

monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo‘lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

Ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog‘lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy subyektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugungi kunda «... kuchli talab va raqobat Iqtisodiy islohotlarni yanada chukurlashtirishni obyektiv shart qilib qo‘ymokda. Bu borada ham juda ko‘p yechilmagan muammolar bor. Ya’ni, eski ma’muriy-taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisod iyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta’minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to‘laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo‘lidagi mavjud g‘ov-to‘siklarni bartaraf etishimiz zarur».

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo‘lib, ular ko‘pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo‘ladilar. Mahsulot va xom ashyolarning alohida turlarini limit va fond ko‘rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma’muriy to‘siqlar monopolistiq tendensiyalarga ko‘proq imkon yaratadi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

- a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo‘lishini maksimal darajada bartaraf etish;
- b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o‘z ustunlik mavqelarini suiste’mol qilish imkoniyatlarining oldini olish.

Shunday qilib, O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo‘li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli

xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatki taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo. mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subyektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda iqtisodiyotni erkinlashtirish – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishni anglatadi. Shuningdek Prezidentimizning Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan Majlislarda so'zlagan nutqida (2000-yil, fevralida) biznesni erkinlashtirish, ularga iqtisodiy mustaqillik berishning aniq yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi Qonun (1992-yil, avgust) kuchga kiritildi, hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum normay hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga etkazgan zararni koplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o'zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi gomonidan 1996-yil 27-dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslari belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilshiga karatilgan.

Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo'nalish, ya'ni birinchidan.

monopoliyaga karshi tartibga solishning prinsipial yangi ko‘rinishi bo‘lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiste’mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko‘zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo‘lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992-yilda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashkil etildi. Boshqarmaga ro‘yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo‘yicha narxlarni va rentabilitikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996-yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil qilindi. 2000-yilda Respublika Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo‘mixasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo‘mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 30-apreldagi Farmoniga binoan u Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi.

Respublikada monopol mavqeiga ega bo‘lgan korxonalarini Davlat reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o‘tish davrining o‘ziga xos jihatlari xdeobga olinadi.

Hozirgi davrda Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagи mahsulotning 35% dan ortiq bo‘lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro‘yxatiga kirgan korxona (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko‘rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori

darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab ko‘yish.

2. O‘z monopol mavqeini suiste’mol qilgan monopolistiq birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Maqkamasining (1994-yil 18-iyuldagи 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Obyektlarning xo‘jalik yurituvchi Jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. Respublikada faqat 1994-1996 yillar davomida monopol mavqeidagi aksiyadorlar jamiyatlari, ijara va boshqa jamoa korxonalar tarkibidan 14972 obyekt chiqarilib, mustaqil korxonalarga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (1996-yil, aprel) qonuni asosida g‘irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo‘l qo‘ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e’tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo‘li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni belgilashni o‘z ichiga oladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Davlatning monopoliyaga qarshi faoliyati va raqobatni rivojlantirishda monopoliyani cheklash va raqobat muhitini yaratishi muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalda hal etish ishlari monopoliyaga qarshi qonunlarga tayanilgan holda olib boriladi. O‘zbekiston Respublikasida bu vazifani amalga oshirish Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobat rivojlantrish Davlat qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan.

Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantrish davlat qo‘mitasi va uning hududiy organlarini saklash, ularning moddiy-texnka ta’minoti, kadrlari malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash: davlat budgeti mablaglari; budgetdan tashqari jamgarma mablaglari; qonun hujjat-larida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantrish davlat qo‘mitasi, uning hududiy organlari yuridik shaxslar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi

tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muxrga, G‘aznachilik bo‘linmalarida hisob raqamlariga ega bo‘ladi. Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan mansabdar shaxslarga va fuqarolarga monopoliyaga qarshi, iste’molchilar xuquqlarini ximoya qilish reklama to‘grisidagi, shuningdek bankrotlik to‘grisidagi ishlarga oid qonun hujjatlari bo‘zilganligi uchun jarimalar solish O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qat’iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga jarima sanksiyalarini ko‘llash bo‘yicha berilgan xuquqlar va vakolatlar faqat Qo‘mitaning markaziy apparatida hamda hududiy organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqil etiladigan maxsus komissiyalarlari asosida amalga oshiriladi.

Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari eksport kengashlari va boshqa maslaxat organlari tashqil etishga haqlidir, ularto‘grisidagi nizomlar tegishli ravishda Xususiylashtirish, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi va hududiy organ raxbari tomonidan tasdiklanadi. Respublikada raqobatchilik muxitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Korporatsiyalar raqobatdoshligini oshirishda davlatning monopoliyaga qarshi siyosati.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashkari, ishlab chiqaruvchi korxonalar haridorlarni jalg qilish maqsadida uzoq mudsat foydalilaniladigan iste’molchilikmahsulotlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatishni amalga oshirmoqdalar.

Raqobat va raqobatbardoshlik o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxonalarini raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va xizmatlar

ko‘rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik - mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o‘xshash obyektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyekt xususiyatidir. Shu bilan birga raqobatbardoshlik - aniq bozor sharoitlarida boshqalar bilan musobaqada chidash imkoniyatidir. Raqobatbardoshlik marketing tadqiqotlari natijalari bo‘yicha aniqlanadi. U tovarning ham aniq ijtimoiy ehtiyojga moslik darajasi, ham uni kondirishga sarflangan harajatlar bo‘yicha uning raqib tovaridan farqini ifodalovchi tavsifidir. Rakobatbardoshlik nisbiy o‘lchov bo‘lib, xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti, ya’ni korporatsiyalar raqobatbardoshligiga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Monopolistiq faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta’sir ko‘rsatishi, taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo‘llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat**, deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to‘planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to‘planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish to‘planishining asosiy sababi bo‘lib olinayotgan foyda hajmining ko‘payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko‘paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo‘srimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya’ni unga qo‘srimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba’zi bir korxonalarning o‘sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to‘planishining moddiy asosi bo‘lib kapitalning to‘planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

**Kapitalning to‘planishi - bu** qo‘srimcha qiymatning bir qismini jamg‘arish

(kapitallashtirish) natijasida kapital hajminish oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. **Kapitalning markazlashuvi** — bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olnishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik Jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

Monopoliyaga qarshi siyosat mohiyatini olib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

**Sof monopoliya** - tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchinish narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkaxukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston xavo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistiq raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

**Monopolistik raqobat** - tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rgasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, mahsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada xukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

**Oligopoliya** - tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati

hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Oxangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shaxri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

**Monopsoniya** - tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki haridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkaxukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «O'zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi engil avtomobilarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopolilar bo'linadi.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan elementlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

**Tabiiy monopoliya** - korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lмаган sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik harajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdag'i mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

**Legal (qonuniy) monopoliya** - bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistiq holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

**1) patent tizimi** - bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtiolar,

foydale modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi, hamda ularga mutloq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon mahsus guvohnomalar -patentlar orqali amalga oshiriladi;

**2) mualliflik huquqi** - ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvalar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulot larini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

**3) tovar belgilari** - bu savdo belgilari, nishonlari, mahsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

**Sun'iy monopoliya** - monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarining shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l ko'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini takiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarini bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

### **Mustaqil ishslash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya jozibadorligi va unga ta’sir etuvchi omillar nimadan iborat?
- 2 Korporativ tuzilmalarda raqobat muhitini shakllantirish nimalardan iborat?
3. Raqobat muhitini rivojlanishida korporativ munosabatlarni tushuntirib bering?
4. Oligopoliya xususiyatlarini tushuntirib bering?
5. Monopsoniya nima?
6. Monopolistiq raqobat mazmuni va mohiyatini aytib bering?
7. Sof monopoliya nima tushuntirib bering?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 20.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.
21. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.
22. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
23. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **7-BOB. AXBOROTLAR SHAFFOFLIGI VA KORPORATIV BOSHQARUV**

**Reja:**

- 7.1. Korporativ boshqaruvda axborot va uning vazifalari**
- 7.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor etish tartibi**
- 7.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotning shaffofligini ta'minlash yo'llari**  
**Tayanch iboralar: axborot, kommmunikatsiya, axborotni oshkor etish tartibi, aksiyadorlik jamiyatlarida axborot siyosati, axborotning shaffofligi,**

### **7.1. Korporativ boshqaruvda axborot va uning vazifalari**

Axborotlarni boshqaruv- bu kompaniyaning ma'lum darajadagi qaror qabul qilish demakdir. Iqtisodiy asoslangan qaror qabul qilish tegishli axborotlardan samarali foydalanish bilan belgilanadi. Buyuk davlat arbobi Napoleon «Boshqarish-demak oldindan kura bilish, buning uchun esa kerakli axborotlarga ega bulish lozim»<sup>15</sup>-deb ta'kidlaydi. Taniqli shveysariyalik iqtisodchi olim I. SHer esa «Buxgalteriya hisobi kompaniyaning o'tmishini shubhasiz aniq baholovchi, hozirgi zamonini zaruriy yo'ldoshi va boshqaruvchisi, xo'jalik faoliyati kelajagi uchun har tomonlama nisbatan istiqbolli maslahat beruvchisi hisoblanadi» deb ta'riflaydi.

Bunday hisob ma'lumotlarining roli va imkoniyatlari haqidagi tushuncha, kompaniyalarda buxgalterianing oddiy hisob bulimidan xo'jalik faoliyatining moliyaviy masalaxatchisi va menejeriga aylantirmoqda. Moliyaviy hisobotlar korxona moliyaviy faoliyatning «oxirgi natijalari» hisoblanib qolmasdan samarali iqtisodiy faolligini rag'batlantirishdagi zaruriy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar manbalariga aylanmoqda.

Umuman bu ikki tarifdan shuni kurishimiz mumkinki, boshqarish oldindan ko'ra bilish hisoblanadi uning uchun zaruriy axborotlarga ega bo'lish lozim.

---

<sup>15</sup> B.B. Ковалев «Финансовый анализ», Москва, «Финансы и статистика» нашр. 2004 г

Bunday axborotlarning asosiy manbalari esa buxgalteriya hisobi va uning hisobotlar tizimi hisoblanadi.

Kompaniyalarda moliyaviy axborotlar samaradorligini boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalaniladigan axborotlar tizimi orqali aniqlanadi. Kompaniyalarda moliyaviy axborotlar bazasini shakllantirish moliyaviy faoliyatni boshqarish uchun strategik qarorlar qabul qilish va mazkur strategik qarorlarni amalga oshirishning taqtiq usullarini ishlab chiqish kabi samarali joriy boshqarishga muvofiq keluvchi maqsadli yo‘naltirilgan axborotlar kursatkichlarini tanlash jarag‘nini o‘z ichiga oladi.

Ma’lum kompaniyalar uchun moliyaviy axborot kursatkichlari tizimini shakllantirish uning tarmoq xususiyatlari, tashkiliy huquqiy shakllari, ishlab chiqarish hajmi, xo‘jalik faoliyati diversifikatsiya darjasasi va boshqa shart sharoitlarga bog‘liq. Shuning uchun axborotlar bazasiga kiritiladigan ko‘rsatkichlarning jami axborotlar manbalari turlari bo‘yicha guruhshtiriladi va kompaniyalar amaliy faoliyatida har qaysi guruhlar bo‘yicha qat’iy aniqlashtirishlar talab qilinadi.

Kompaniyalar faoliyatini boshqarishda axboorotlarning asosiy manbalari bevosita kompaniyalar iqtisodiy faoliyatini tartiblashtiruvchi buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar tizimi hisoblanadi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar iqtisodiy faoliyati natijalaridan davlat bilan birgalikda boshqa iqtisodiy subyektlar ham manfaatdor hisoblanadi. SHuning uchun ham iqtisodiy faoliyat, xususan, ishlab chiqarish faoliyati natijalarini o‘zida aks ettiruvchi moliyaviy axborotlarni shakllantirish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Qo‘yidagi chizma orqali buni kurib o‘tishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotlardan axborotlar sifatida ichki foydalanuvchilar kompaniyalarning boshqaruv xodimlari hisoblanadi. Ularning funksional vazifalariga bevosita kompaniyaning rentabelligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, o‘zgaruvchan va o‘zgarmas harajatlarning mahsulot

tannarxidagi salmog‘ini aniqlash, moliyaviy hisobotlarning turli koeffitsientlari: likvidlilik, kapitallar tarkibilari, ishbilarmon faollik, rentabellik, bozor faolligi va shu kabi kursatkilari tizimini boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zaruriy axborot manbalari kiradi.

### **Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporatsiyalarda axborotlardan foydalanuvchilar<sup>1</sup>**

	<i>Ichki foydalanuvchilar</i>	<i>Tashqi foydalanuvchilar</i>
<b><i>Bozor iqtisodiyoti</i></b>	Boshqaruv xodimlari	Aksionerlar va boshqa mulkdorlar; kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar, sotib oluvchilar va davlat organlari
<b><i>Ma’muriy buyruq bozlik asosidagi iqtisodiyot</i></b>	Kompaniya rahbariyati	Davlat, vazirliklar, statistika va solik organlari, boshqa davlat organlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotlardan axborotlar sifatida ichki foydalanuvchilar korxonalarining boshqaruv xodimlari hisoblanadi. Ularning funksional vazifalariga bevosita kompanianing rentabelligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, o‘zgaruvchan va o‘zgarmas harajatlarning mahsulot tannarxidagi salmog‘ini aniqlash, moliyaviy hisobotlarning turli koeffitsientlari: likvidlilik, kapitallar tarkiblari, ishbilarmon faollik, rentabellik, bozor faolligi va shu kabi ko‘rsatkichlari tizimini boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zaruriy axborot manbalari kiradi.

Moliyaviy hisobotlardan axborotlar manbai sifatida tashqi foydalanuvchilar o‘z navbatida ikki guruhga ajratiladi: kompaniya faoliyatidan manfaatdor foydalanuvchi va ma’lum faoliyat maqsadlaridan foydalanuvchilar.

Birinchi guruh foydalanuvchilariga kompanianing potensial mulkdorlari, moliyaviy hisobotlaridan kredit taqdim etish va uni muddatini o‘zaytirishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun potensial kreditorlar kiritiladi, mazkur

mijozlar bilan ishbilormon aloqalar ishonchlilagini aniqlovchi yetkazib beruvchi va sotib oluvchilar, soliq tulovlar intizomini tug‘rili, moliyaviy hisobotlarining tug‘ri tuzilishini tekshirish uchun davlat ham moliyaviy tashqi foydalanuvchilar qatoriga kiritiladi.

Ikkinci guruh foydalanuvchilari— birinchi guruh foydalanuvchilari manfaatlarining himoyasi uchun zaruriy bulgan hisobotlarni o‘rganuvchi yuridik va jismoniy shaxslardir. Bularga:

- investorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida hisob va hisobotning umumiyligi qoidalari va qonunchiligiga tekshirilaetgan kompaniya hisobotlarini muvofiqligini tekshiruvchi auditorlik xizmatlar.

- o‘zlarining mijozlariga kapitallarni samarali joylash bo‘yicha maslahatlarni ishlab chiqish maqsadida moliyaviy hisobotlardan axborotlar sifatida foydalanuvchi moliyaviy maslahatlar bo‘yicha maslahatchilar;

Shuningdek, kompaniyalar axborotlarni oshkora qilish tizimi quyidagilarni nazarda tutadi:

- O‘zbekiston kompaniyalari ish amaliyotiga xalqaro moliyaviy hisob va hisobot andozalarini joriy qilish;

- Axborotlarni berishdan bosh tortgan yoki noto‘g‘ri axborotlarni taqdim qilgan kompaniya rahbarlariga ko‘riladigan choralarini kuchaytirish;

- Moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni oshkor qilishning aniq tartibini o‘rnatish;

- Yagona axborot tizimini yaratish. Unda emitentlarning hisobotlari yig‘iladi va tartiblashtiriladi va barchaga teng huquqli, o‘z vaqtida va katta xarajatlarsiz undan axborotlarni olish imkoniyati beriladi;

- Investorlar uchun ahamiyatli axborotlar mezonlarini takomillashtirish;

- Ixtisoslashtirilgan nashrlar, reyting agentliklari, axborotni oshkora qilish mustaqil markazlariga axborot yordamini berish.

- aksiyadorlik jamiyatining yillik hisoboti;

- yillik buxgalterlik balans va moliyaviy natijalar haqida hisobot;

- aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining o‘tkazilishi haqida xabar;

- egalikdagi aksiyalar soni va turlari ko‘rsatilgan holda aksiyadorlik jamiyatining affillangan shaxslari ro‘yxati.

Aksiyadorlar Umumiy Yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish davomida aksiyadorlarga berilishi lozim bo‘lgan hujjatlar (materiallar) ro‘yxati:

1. Yillik buxgalteriya hisoboti;
2. Jamiyat yillik buxgalteriya hisobotini tekshirish bo‘yicha Taftish komissiyasining (Taftishchining) xulosasi;
3. Yillik buxgalteriya hisobotini tekshirish natijalari bo‘yicha Jamiyat auditorining xulosasi;
4. Yillik moliyaviy - xo‘jalik hisobotini tekshirish bo‘yicha aksiyadorlik jamiyati taftish komissiyasining (Taftishchining) xulosasi;
5. Quyidagi organlar a’zolariga nomzodlar haqida ma’lumotlar:
  - Jamiyat Kuzatuv kengashiga;
  - Jamiyat Taftish komissiyasiga (Taftishchilikka);
  - Jamiyat Ijroiya organiga;
  - Jamiyat hisob komissiyasiga;
6. Jamiyat Ustaviga kiritiladigan o‘zgatirish va qo‘srimchalar yoki Jamiyat Ustavining yangi tahrirdagi loyihasi.
7. Jamiyat boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlar loyihalari.

8. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi qarorlarining loyihasi quyidagi masalalarni tasdiqlash bo‘yicha tayyorlanadi:

- Jamiyat yillik hisoboti;
- Yil yakuniga ko‘ra sof foydani taqsimlash va dividendlar berish;
- Kuzatuv kengashi a’zolariga beriladigan taqdirlash puli miqdori va kengash faoliyatiga doir harajatlarni qoplash;
- Jamiyat auditori.

9. Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan boshqa axborotlar.

Aksiyador tanishish huquqiga ega bo‘lgan hujjatlar va materiallar ro‘yxati:

1. Jamiyatni tashkil qilish haqida qaror.

2. Jamiyat Ustavi hamda unga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar;
3. Jamiyatning davlat ro‘yxatidan o‘tganligi haqida guvohnoma;
4. Jamiyat balansida turgan mulklarni tasdiqlaydigan hujjatlar;
5. Aksiyadorlar Umumiy Yig‘ilishi yoki boshqa boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlar;
6. Jamiyat filiali yoki vakolatxonasi haqida Nizom;
7. Yillik moliyaviy hisobot;
8. Emissiya prospekti;
9. Tegishli organlarga topshiriladigan moliyaviy hisobot hujjatlari;
10. Aksiyadorlar Umumiy Yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;
11. Jamiyatning affillangan shaxslari ro‘yxati;
12. Jamiyat Taftish komissiyasi, auditorlik tashkiloti va davlat moliyaviy nazorat organlarining xulosalari;
13. Jamiyat Ustavi, jamiyat boshqaruv organlari qarorlari, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

Aksiyador yuqorida keltirilgan hujjatlar bilan tanishish orqali, quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish;
- Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini tahlil qilish;
- mas’ul shaxslarning suiste’molchiliklari yoki ularning noqobil harakatlari natijasida Jamiyatga keltirilgan zararni aniqlash;
- yangi davr uchun biznes - reja loyihasiga o‘z takliflarini tayyorlash;
- Aksiyadorlik jamiyatlari rahbariyati tomonidan joriy davr biznes - rejasini bajarilishining nazorati;
- Qonunga zid tarzda yirik bitimlarning tuzilishi yoki bitim tuzishdan manfaatdor shaxslar suiste’molchiliklarini aniqlash;
- jamiyat aktivlarining maqsadga muvofiq ishlatalish hollarini aniqlash.

Har yilda jamiyat tomonidan e’lon qilinadigan va boshqa tarzda oshkora

qilinadigan hujjatlar ro‘yxati:

1. Jamiyat yillik hisoboti;
2. Buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobi;
3. Emissiya prospekti;
4. Aksiyadorlar Umumiy Yig‘ilishini o‘tkazish haqida xabar;
5. Jamiyatning affillangan shaxslari ro‘yxati;
6. Vakolatli davlat idorasi tomonidan belgilanadigan boshqa ma’lumotlar.

Aksiyadorlik jamiyati yillik hisoboti. Jamiyat yillik hisoboti aksiyadorlik kapitali qiymatini o‘stirish hamda, aksiyadorlar va investorlar uchun aksiyadorlik kompaniyalarning “ravshanligi”ni oshirish vositasi bo‘lishi mumkin va lozim.

Jamiyat yillik hisoboti tuzilmasi:

- kompaniyaning qisqacha tavsifi;
- biznesning qisqacha tavsifi;
- qimmatli qog‘ozlar haqida axborot;
- xo‘jalik faoliyatining qisqacha ta’rifi;
- moliyaviy ahvol;
- aksiyadorlik jamiyati boshqaruv tizimining qisqacha yoritilishi;
- aksiyadorlik guruhidagi (qaram korxonalar) ahvol;
- aksiyadorlik kapitalini boshqarishning qisqacha tavsifi;
- boshqarish va nazorat organlari faoliyati haqida ma’lumot;
- qo‘shimcha (majburiy) axborotlar;
- oxirgi 3 yil ichida moliyaviy hisobot.

Aksiyadorlik jamiyatining axborot ochiqligini baholashda oshkor etiladigan axborotlar mazmuni:

Mulkchilik tarkibi bo‘yicha:

- aksiyadorlar umumiy soni (jismoniy va huquqiy shaxslar) haqida ma’lumot;
- yirik nazorat paketlarining egalari, ularning kompaniya faoliyatiga ta’sir darajasi va o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha:

- yig‘ilishlar haqidagi xabar;

- aksiyadorlarga yuboriladigan hujjatlar;
- yig‘ilishda qatnashuvchi aksiyadorlar haqida;
- ovoz berish tartibi haqida aksiyadorlarga axborot;
- aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishlari materiallari, shu jumladan yillik hisobot.

Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va ahamiyatli voqealar bo‘yicha:

- emissiyalar haqida hisobot;

- ahamiyatli voqealar, shu jumladan ayrim institutlar tomonidan solgan jarimlar haqida hisobot;

- emitentlarning yil choraklari bo‘yicha hisobotlari.

Kompaniya rahbariyati haqida axborot:

- Jamiyat Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a’zolariga qarashli aksiyalar haqida;

- Ijroiya organi a’zolari bilan mehnat shartnomasining mazmuni haqida;

- Kuzatuv kengashi va ijroiya organi a’zolarini taqdirlash haqida.

Rahbaryatning tahliliy ma’lumotnomalari bo‘yicha:

- faoliyat natijalari va ahamiyatli voqealar bo‘yicha izohlar;
- bozorlar va tavakkalchilik darajasining tahlili;
- strategiyaning bayoni;
- bashoratlar va fikrlar;
- dividend siyosati.

Boshqalar bo‘yicha:

- Ustav va ichki hujjatlar;
- auditor xulosasiga izohlar;
- to‘langan dividenlar haqida ma’lumotlar.

Axborotning o‘z vaqtida oshkor qilinishi:

- zarur hisobotning Qimmatli qog‘ozlar fond birjasiga taqdim etilishi;
- aksiyadorlar yillik umumiy yig‘ilishiga yillik hisobotlarning va boshqa axborotlarning taqdim etilishi.

Oshkor qilinayotgan axborotlar bilan tanishish imkoniyati bo‘yicha:

- xususiy veb - saytning mavjud bo‘lishi, undagi axborotlarning o‘z vaqtida

yangilanishi;

- investorlar bilan aloqa xizmatining mavjudligi, jamiyat binosida axborotlar bilan tanishish uchun joy ajratilganligi.

Tijorat siri va insayderlik (ichki) axborotlari bo‘yicha:

- davlat siri;
- tijorat siri;
- xizmat sirlaridan voqif bo‘lgan shaxslar;
- tijorat sirining saqlanishi;
- zararlarni qoplash.

Investorlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish dasturi.

Quyidagilar investorlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish dasturining tarkibiga kiradi:

- Milliy va xalqaro andozalarga muvofiq tayyorlangan va auditor tomonidan tasdiqlangan yillik buxgalterlik va moliyaviy hisobot;
- Jamiyat moliyaviy va xo‘jalik faoliyati natijalarini, shu jumladan moliyaviy hisobotga kirmagan natijalarni tahliliy baholash;
- Faoliyat natijalari va kelajakdagi rejalar, shu jumladan biznesdagi o‘sish yoki o‘zgarish, qayta tashkil qilish, yangi obyektlarni ishga solish va boshqa masalalarga Ijroiya organining tushuntirishlari (izohlari).

Investorlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish dasturi quyidagi qo‘sishimcha elementlarning kiritilishi hisobiga kengaytirilishi mumkin:

- Oraliq moliyaviy hisobot;
- AJ faoliyatining ham ijobiy ham salbiy voqealari va tendensiyalari haqida davriy ravishda berib turiladigan press - relizlar;
- Investitsiya banklari topshirig‘i bilan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini kuzatib borayotgan tahlilchilarni taklif qilgan holda xorijiy hamjamiyat uchun brifinglar o‘tkazish;
- Ijroiya organi vakillarining asosiy portfel investorlari va kreditorlar bilan uchrashuvlari.

Ma'lumotlarni kechikib yoki noto'liq taqdim etilishi uchun javobgarliklar O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" Qonuning 54 - moddasiga binoan Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlar investor oldida etkazilgan zararlar doirasida quyidagilar uchun mulkiy javobgar bo'ladi:

- qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan axborotni investorning talabiga binoan taqdim etmaganlik yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etganlik uchun;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasining belgilangan tartibini buzganlik uchun;
- qimmatli qog'ozlarning insofsiz reklamasini amalga oshirganlik;
- narxlar borasida hiyla - nayrang ishlatilganlikning aniqlangan faktlari uchun, shuningdek qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarga doir narxlar to'g'risida, qasddan buzib ko'rsatilgan axborot, shu jumladan, reklamada shunday axborot taqdim etish orqali investorni qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yoki sotishga undaganlik uchun. Qimmatli qog'ozlar bozorida narxlar borasida hiyla - nayrang ishlatganlik alomatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida narxlar borasida hiyla - nayrang ishlatilganligi fakti sud tartibida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunning 55 - moddasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga nisbatan quyidagi iqtisodiy sanksiyalar qo'llaniladi:

- mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil ichida takroran sodir etilgan qoidabuzarliklarni tugatish to'g'risidagi ko'rsatmani bajarishdan bo'yin tovlaganlik uchun - eng kam ish haqining qirq baravaridan etmish baravarigacha miqdorda;
- emitentlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarishning belgilangan tartibini investorlarga zarar etkazilishiga olib kelgan tarzda buzganlik uchun - qimmatli qog'ozlarni chiqarish hajmining 5 foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining yuz baravaridan ko'p bo'limgan miqdorda;

- qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar tuzish va ularni ro‘yxatdan o‘tkazishning belgilangan tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan buzilganligi uchun - qimmatli qog‘ozlarga doir bitim summasining 5 foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining etmish besh baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, mazkur qoidabuzarlik bir yil ichida takroran sodir etilgan taqdirda esa, qimmatli qog‘ozlarga doir bitim summasining 10 foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining yuz baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

- investorlar, tekshiruvchi organlar va nazorat qiluvchi organlarni atayin noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqatish (taqdim etish) orqali chalg‘itganlik uchun - eng kam ish haqining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda.

O‘z vaqtida va to‘liq ma’lumotlarni bermaslikning javobgarligi bo‘yicha

“Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish” Qonuniga binoan (8-modda) emitentlar va investitsiya institutlari qonunchilikka asosan keltirilgan zarar hajmida investorlar oldida:

- investorga ularning talabiga binoan qonunchilikda nazarda tutilgan axborotlarni bermaganligi yoki noto‘g‘ri axborotlarni bergani uchun;

- qimmatli qog‘ozlarni nohalol reklama qilganligi, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmagan, shuningdek muomalasi qonun tomonidan man qilingan qimmatli qog‘ozlarning reklamasi uchun;

- qimmatli qog‘ozlar bozorida narhlari o‘yini va boshqa aniqlangan qoidabuzarliklar, shuningdek qimmatli qog‘ozlar, emitentlar, qimmatli qog‘ozlarning narhlari hakidagi qasddan o‘zgartirilgan axborotlarni berish orqali investorlarni qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yoki sotishga dav’at qilgani uchun mulkiy javobgar bo‘ladilar.

“Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati mexanizmlari haqidagi” Qonunga asosan (31 - modda) qimmatli qog‘ozlar bozorida reklama beruvchi shaxs, vijdonsiz reklama oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha qonunchilikning buzilishi ro‘y berganda vakolatli davlat organi quyidagilar uchun jarimalar solishi mumkin:

- emitentlar va qimmatli qog‘ozlar haqida axborotlarni, hisobotlarni e’lon

qilmaslik yoki o‘z vaqtida e’lon qilmaslik, shuningdek davlat nazorat organlariga hisobotlarni yoki axborotlarni taqdim qilmaslik yoki o‘z vaqtida taqdim qilmaslik – 70 minimal ish haqi darajasida;

- qonun buzilishlarni to‘xtatish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini bajarishdan bo‘yin tovlash yoki o‘z vaqtida bajarmaslik – 100 minimal ish haqi darajasida;

- noto‘g‘ri ma’lumotlarni tarqatish (taqdim etish) yo‘li bilan investorlarni va nazorat organlarini adashtirgani uchun – 800 minimal ish haqi darajasida.

Audit va ichki nazorat tizimida rahbariyatga yuklatilgan vazifalarga quyidagilar kiritiladi:

- Ichki nazorat va belgilangan hisobxona yozuvlarining ishonarli va muvofiq tizimini o‘rnatish va unga amal qilish;

- Kuzatuv kengashi tomonidan o‘rnatilgan siyosatning va tartibining bajarilishini ta’minlash;

- Aktivlar butunligini ta’minlash;

- Faoliyatning qonunchilikka zid kelmasligi.

Ichki nazorat moliyaviy hisobotning ishonarliligi, faoliyatning samaradorligi va qonun hamda me’yoriy hujjatlarga muvofiqligi masalalari bo‘yicha korxonaning maqsadlariga erishishga nisbatan shubhasiz komil ishonch hosil qilish uchun korxonaga rahbarlik qilishga javobgar shaxslar tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ichki nazorat tizimi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- Rahbariyat siyosatiga (strategiyasiga) amal qilinishi;

- Mulkning va axborotlarning asralishi;

- Axborotlarning o‘z vaqtidaligi va ishonchligi;

- Qonunchilik talablarining bajarilishi.

Insayderlik amallar. Bu shunday amallarki, ular natijasida muhim voqealar va faktlar haqidagi konfidensial hususiyatiga ega bo‘lgan axborotlarni biluvchi xodimlar o‘z bilimlarini fond bozorida foyda topish yoki zarardan qochish maqsadida ishlatsi orqali aksiyalarni sotib olayotgan va sotayotgan hamda insayderlik axborotlarni bilishda ustunlikka ega bo‘lmagan oddiy investorlarga zarar keltiriladi.

## **7.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor etish tartibi**

Hozirgi kunda faoliyat ochiqligini ta’minlash maqsadida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etgan biznes subyektlari(aksiyadorlik jamiyatları) axborotlarni maxfiy axborotlar, tijorat sirlari va aksiyalar narxining o‘zgarishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar toifasiga kiritishning aniq mezonlarini belgilaydi; oshkor etilishi shart bo‘lgan axborotlarning biznes subyektning(aksiyadorlik jamiyatları) sayti va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalarda ingliz, rus va aksiyador hamda boshqa manfaatdor tomonlarga, shu jumladan, xorijiy investorlarga qulay bo‘lgan boshqa tillarga tarjimasi bilan birgalikda e’lon qilinishini ta’minlaydi; aksiyadorlarning umumiyligini yig‘ilishida ijroiya organining mukofot va kompensatsiyalari miqdorini oshkor etadi; biznes subyekt(aksiyadorlik jamiyati) saytida ijroiya organi va uning faoliyati samaradorligi bahosi, aksiyadorlik kapitali tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qiladi; taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning AJ dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi, shuningdek, zarurat tug‘ilganda sof foydaning muayyan qismini AJni rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishini e’lon qiladi; aksiyadorlar talabiga ko‘ra imkon qadar qisqa muddat ichida aksiyadorlar va investorlarga zarur bo‘lgan muayyan axborotlarni taqdim etadi.

Hozirgi kunda korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish va uni samarali tashkil etish uchun quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda: - zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;- aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy

investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;- aksiyadorlik jamiyatlarini strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta'minlashda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish;- yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlash va ularning kasb darajasini oshirish.

Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot real sektori korxonalarida, vazirlik, idora va qo'mitalarda, xolding va uyushmalarida, korxona va tashkilotlarda, qolaversa bank-moliya tizimida taraqqiy etgan davlatlarning korparativ boshqaruvga oid ilg'or tajribalari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Ushbu chora-tadbirlar, korporativ boshqaruv tizimda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishda muhim omil hisoblanadi.

Bugun mamlakatimizdagi qariyb barcha yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. Korporativ boshqaruv usullari joriy etilgan kompaniyalar safi kengayib bormoqda. Chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar har tomonlama rivojlanmoqda. Ular milliy iqtisodiyotimizning istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish ko'lmini kengaytirish, yangi ish o'rinalarini yaratish borasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini keng joriy etish, ularning faoliyati samaradorligini oshirishda soha mutaxassislarining malaka va mahoratini yuksaltirish, bu borada xalqaro amaliyotni o'rganish va tadbiq etish, o'zaro tajriba almashish, professional boshqaruvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasidan ma'lumki, yirik kompaniya, konsern va korporatsiyalar korporativ boshqaruv jarayonining pishiq-puxtaligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Chunki oqilona boshqaruv bir tomondan ko'p sonli aksiyador, boshqa tomondan, turli ishlab chiqarish obyektlariga ega bunday yirik korxonalarda ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish garovi sanaladi.

Bugungi kunda O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan

kelib chiqib, korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari milliy korporativ qonunchiligidagi ularni aks ettirish masalalarini muhokama qilishda alohida bobga aylangan.

**Korporativ boshqaruv tamoyillari bir tomonidan qonun hisoblansa, boshqa tomonidan doimiy tuzatish kiritish jarayonini birgalikda amalga oshirishi lozim.**

*Korporativ boshqaruv xalqaro tamoyillari quyidagicha ifodalanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) korporativ amaliyoti va oqilona ishbilarmonlik me'yorlari.* Bu hujjat 1997-yil Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan “Kupere end Laybrand” kompaniyasi bilan birgalikda kompaniyalarga nufuzli kreditorlar va investorlar tomonidan investitsiya qarorlari qabul qilishda qaysi jihatlar ko‘proq hisobga olinishini yaxshi tushunish maqsadida tayyorlangan. Yevropa aksiyadorlar korporativ boshqaruvi asosiy tamoyillari 1990-yil Yevropa aksiyadorlar (qisqacha nomi- evroaksiyadorlar) assotsiatsiyalari Konfederatsiyasi tashkil qilingan bo‘lib, uning tarkibiga sakkizta milliy aksiyadorlar assotsiatsiyasi (Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya, Fransiya va SHvetsiya) kirgan. Tashkilotning asosiy vazifasi – Yevropa Ittifoqi alohida aksiyadorlarining manfaatlarini ifodalash, mayda aksiyadorlarni himoya qilish, kapitallar bozori ochiqligini ta’minalash, Yevropa kompaniyalarida aksiyadorlik kapitali qiymatini oshirish, korporativ boshqaruv masalalarini qo‘llab - quvvatlash hisoblanadi. Yevropa ittifoqi hamkorligi tashkiloti (EIHT)ning beshta tamoyili asosida evroaksiyadorlar o‘z dasturlarini, korporativ boshqaruv asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan bo‘lib, unda kompaniya maqsadlari, ovoz berish huquqlari, qo‘sib olishdan himoya qilish, axborot huquqi va direktorlar kengashining roliga nisbatan qator tavsiyalar aks ettirilgan

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatları aksiyadorlarning huquqlari “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni hamda bir qator boshqa qonunchilik hujjatlari bilan himoyalangan bo‘lib, ularga ko‘ra aksiyadorlar bir necha huquqlar bilan ta’minlangan, jumladan:

- tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish va depozitariydagι hisob varag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;
- aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividentlar tarzida olish va univerkin tasarruf etish;
- aksiyadorlik jamiyati tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- aksiyadorlik jamiyatining moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
- o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish.

Ushbu huquqlar buzilgan taqdirda aksiyadorlar huquqini himoya qilish usullari orqali qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida hamda boshqa huquq tartibot institutlarida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlariga egadirlar.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini kuzatuv kengashi a’zolari va ijroiya organiga nisbatan bir necha javobgarlik normalari o‘rnatalgan. Ular o‘z huquqlarni amalga oshirishda va o‘z burchlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish tutishlari lozimligi hamda jamiyat ustaviga muvofiq jamiyat oldida javobgar ekanligi belgilangan. Shunday qilib, O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarda korporativ boshqaruvning IHTT tomonidan e’tirof etilgan xalqaro tamoyillarini tatbiq etish bo‘yicha korporativ huquq me’yorlari yetarlidir.

Aksiyadorlik jamiyatlarini xalqaro korporativ boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan vazifalar quyidagilar:

- xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ

boshqaruv uslublarini joriy etish;

- investitsiya, ishlab chiqarish, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish;
- aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish;
- etakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda boshqaruv xodimlarini tayyorlash;
- aksiyadorlik jamiyatlariga rahbarlik lavozimlarida chet ellik yuqori malakali menejerlarni jalb qilish;
- aksiyadorlik jamiyatining korporativ ijtimoiy javobgarligini oshirishga minimal talablarni belgilash;
- kuzatuv kengashi tomonidan korporativ boshqaruv amaliyoti samaradorligini nazorat qilib borish mexanizmini yaratish.

Dunyoda aksiyadorlik jamiyatları o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, ular kapitalning ilk muomilasi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan. Bunga misol qilib, 1602-yilda Gollandiyada tuzilgan Ost-Indiya kompaniyasini aytishimiz mumkin. Fransiya va Belgiyada 1808-1840 yillarda aksiyadorlik va xolding kompaniyalari shakllana boshlagan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda transmilliy korporatsiyalarga asos solinib, 1920-1940 yillarda yirik korporatsiyalarning sho‘ba korxonalari tashkil topdi.

Dunyo amaliyotida korporativ boshqaruviga bo‘lgan qiziqish XX-asrning 90-yillaridan yanada ortdi. Bu davrga kelib, korporativ boshqaruv tamoyillari va modellari joriy etildi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kengashining 1999-yil 26-maydagи yig‘ilishida “Korporativ boshqaruv tamoyillari”ning xalqaro standarti qabul qilindi.

Korporativ boshqaruv tizimi har bir davlatda o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ijtimoiy-iqtisodiy holatga mos ravishda turlicha bo‘ladi. Shuningdek, mamlakatda korporativ boshqaruvning rivojlanganlik darajasi aksiyadorlar huquqlari, ularning kapitali va aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanganlik holati bilan bevosita bog‘liqdir. Hozirgi davrda jahon amaliyotida

korporativ boshqaruvning Amerika, Germaniya va Yaponiya modellarini ko‘rishimiz mumkin.

Amerika modeli har bir fuqaroning shaxsiy boylikka ega bo‘lishini ta’minlash asosida qurilgan bo‘lsa, Germaniya modeli asosida har bir fuqaroning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yotadi. Yaponiya korporativ boshqaruv modeli Germaniya va Amerika modellari oralig‘idagi model bo‘lib, ularning ayrim elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Biz bu modellarning qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz. Korporativ boshqaruvning Amerika modeli bevosita AQSHda aksiyadorlik mulkining tizim xususiyatlariga bog‘liqdir. AQSH kompaniyalarida aksiyadorlik kapitallari muayyan darajada tarqoq bo‘ladi. Amerikaning ko‘pgina kompaniyalarida aksiyadorlarning ulushi jami kapitalning hattoki 1% ni ham tashkil etmaydi. Shuning uchun aksiyadorlarning biror guruhi jamiyat va direktorlar kengashi holatiga kuchli ta’sir ko‘rsata olmaydi. Amerika modelining yana bir xususiyati shundaki, unda jami kapitalning asosiy qismi investitsiya institutlari, investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalariga tegishli bo‘ladi, ya’ni kompaniyalarda ularning roli beqiyosdir. Umuman, Amerika modeli qonun-qoidalariga muvofiq, aksiyadorlarning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni muayyan darajada kelishilgan bo‘ladi. Bunda aksiyadorlarga quyidagi huquqlarni amalga oshirishga ruxsat beriladi: korporatsiyaning ustav nizomiga biror o‘zgartirish kiritilishiga ovoz berish; direktorlarni saylash va tayinlash; kompaniyani qayta tashkil etish bilan bog‘liq barcha masalalarni hal etishda qatnashish. Amerikadagi amaldagi me’yoriy qonunchilikka muvofiq, har bir kompaniya direktorlar kengashida majburiy ravishda 3 ta qo‘mita ish olib boradi va bu qo‘mitalar faqatgina xolis direktorlardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Birinchi qo‘mita – auditni amalga oshiradi, odatda taftish komissiyasi deb ataladi.

Ikkinci qo‘mita – rag‘batlantirish masalalarini hal etadi, u oliv boshqaruv va direktorlar kengashi a’zolari uchun to‘lovlarni tavsiya etadi va tasdiqlaydi. U kompaniyaning hisobotlarini majburiy ravishda chop etish, kompaniya ishining sifati va menejerlarni rag‘batlantirish darjasini kabi muhim masalalarni hal etadi.

Uchinchi qo‘mita – direktorlar kengashi a’zolarini tanlash va saylash

masalasini hal etadi. Qo‘mitalar faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompaniyani boshqaruv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, ularning rivoji va yuksalishi uchun o‘ta muhimdir.

Yaponiya modelida esa, ko‘pgina kompaniyalarning yirik aksiya paketlari katta bank va moliya guruhlari portfelida mujassamlashganligi bilan ajralib turadi. Yirik aksiya paketiga ega bo‘lgan aksiyadorlar korxona boshqaruvida bemalol ishtirok eta oladilar. Korporativ boshqaruvning yaponcha modelidagi o‘ziga xos xususiyat kompaniyaning asosiy aksiyadorlari kompaniyaga kelib tushayotgan daromadlaridan voz kechishlari evaziga guruhda birga faoliyat yuritib kattaroq daromad olishlari kabi imkoniyatlarning mavjudligidir. Yaponiya korporativ boshqaruv modelining yana muhim bir jihat o‘zida yuqori biznes madaniyatni aks etgirib, unda o‘zaro ishonchga asoslangan uzoq muddatli shaxsiy munosabatlar, shartnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiya modelida aksiyadorlik jamiyatlarining konunchilik va qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari tartibga solinishi Amerika modeli ta’sirini o‘zida mujassam etadi.

Demak, korporativ boshqaruvning milliy va xalqaro amaliyotini o‘rganish respublikamizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini yanada oshirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish hamda boshqaruv faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi

Iqtisodchi olimlar o‘tgan ikki asr iqtisodiyotini tahlil etib, XIX asrda jahon iqtisodiyotini rivojlanishda bosh rolni tadbirkorlik, XX asrda esa menejment o‘tagan bo‘lsa, XXI asrga kelib bu vazifani korporativ boshqaruv bajaradi, degan fikrni ta’kidlagan.

Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar ichida millat mentaliteti muhim ahamiyatga egadir. Millat mentalitetini tashkil etuvchi elementlar (bilim salohiyati, ilmiy tafakkur, maqsad salohiyati, ijtimoiy muhit, qadriyatlar, an‘analar, madaniyat, siyosiy muhit, iqtisodiy psixologiya, huquqiy ong va h.k.) iqtisodiy tizim va uni boshqarishga bevosita bog‘liq omillar majmui hisoblanadi. Millat mentaliteti millatning shakllanish tarixi, uning

qadriyatlari va bilim salohiyati kabilar asosida vujudga keladi. Bunda millat mavjud bo‘lgan jamiyatning shakllanish va rivojlanish tarixi ham muhimdir.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda xususiy mulchkchilik sohasidagi islohotlar natijasida iqtisodiy jihatdan savodxon, xujalik yuritish san’atiga ega mulkdorlar sinfi shakllandı. Korporativ boshkdruvning samaradorligini yanada oshirish uchun yirik korxonalarining xususiy lashtirishdagi keyingi jarayonlarga yukorida ta’kidlab utilgan mulkdorlar sinfini jalb etish lozim. Bu esa O‘zbekistonning dunyodagi eng ilg‘or, iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashida o‘z hissasini qo‘shadi.

### **7.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotning shaffofligini ta’minlash yo‘llari**

“Korporativ boshqaruv” tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Jahon bankining ta’rifiga ko‘ra korporativ boshqaruv – qonunchilik, me’yorlar va hususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladikki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilingan holda o‘z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko‘paytirish orqali o‘zining mavjudligini saqlab qolishni ta’minalaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasiga kompaniya ma’muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslari orasidagi munosabatlar majmuasi deb ta’rif berilgan.

Boshqa ta’riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me’yorlar,

nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Korporativ boshqaruv tamoyillari” IHTT Kengashining 1999-yil 26-27 maydagi yig‘ilishida birinchi marta qabul qilingan bo‘lib, u korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari sohasida asosiy hujjat hisoblanadi. Shundan so‘ng IHTT korporativ boshqaruv tamoyillari o‘ziga xos mezonlari o‘lchovi bo‘lib qoldi. Ularni standart sifatida moliyaviy barqarorlik bo‘yicha Forum, Juhon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyatilarida hamkorlik qilayotgan muayyan mamlakatlarda korporativ boshqaruvni yaxshilash maqsadida qo‘llashni boshladi.

Keyinchalik 2004-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda 30 mamlakat hukumatlari tomonidan yangi, qayta ko‘rib chiqilgan “korporativ boshqaruv tamoyillari” tasdiqlandi. 2015-yilda esa ushbu tamoyillar yana ko‘rib chiqilib, yangi tahrirda nafaqat IHTTga ya’zo davlatlari tomonidan balki G20 (katta yigirmatalik) davlatlari tomonidan ham tasdiqlandi. Hozirgi paytda ushbu tamoyillar “G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari” deb nomlangan bo‘lib, u IHTT va G20 ning nafaqat a’zo davlatlar, shuningdek fond birjalari, investorlar, kompaniyalar va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan boshqa shaxslarga ham mo‘ldallangan. G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari majburiy emas, balki tavsiyaviy harakterga ega bo‘lib, hukumatlar tomonidan amaldagi milliy qonunchilikni baholash va takomillashtirish uchun shuningdek korporatsiyalar tomonidan korporativ boshqaruv tizimini yaratish va korporativ boshqaruv sohasida “ilg‘or tajriba”ni ishlab chiqish uchun qo‘llanishi mumkin.

G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari quyidagilardan iborat.

1. Samarali korporativ boshqaruv tizimi uchun asosni ta’minalash.
2. Aksiyadorlarning huquqlari, ular bilan teng huquqli munosabatda bo‘lish hamda mulkchilikning asosiy funksiyalari
3. Institutsional invenstorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar

4. Manfaatdor shaxslarning korporativ boshqaruvdagagi roli
5. Axborot oshkoraliyi va shaffoflik
6. Kengashning majburiyatlari

Samarali korporativ boshqaruv tizimi uchun asosni ta'minlash tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi shaffof va halol bozorlar faoliyatini hamda samarali resurslar taqsimotini rag'batlantirish lozim. U qonun normalariga muvofiq bo'lishi hamda samarali nazorat va huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish lozim.

Aksiyadorlarning huquqlari, ular bilan teng huquqli munosabatda bo'lish hamda mulkchilikning asosiy funksiyalari tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi va ruyobga chiqarilishini engillashtirishi hamda barcha, shu jumladan minoritar va xorijiy aksiyadorlar bilan teng huquqli munosabatda bo'lishini ta'minlash lozim. Barcha aksiyadorlar o'z buzilgan huquqlari uchun samarali tarzda zararni qoplash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Institutsional invenstorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi butun investitsiyalar zanjiri bo'ylab asosli rag'batlantiruvchi vositalarni ta'minlash hamda fond bozorlarining yaxshi korporativ boshqaruvga hissa qo'shgan holda faoliyat yuritishini ta'minlashi lozim.

Manfaatdor shaxslarning korporativ boshqaruvdagagi roli tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi manffatdor shaxslarning qonun bilan yoki o'zaro kelishuv asosida o'rnatilgan huquqlarini tan olishi hamda moddiy boyliklar, ish o'rinlarini yaratish va moliyaviy sog'lom korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lida korporatsiyalar va manfaatdor shaxslar o'rtasidagi faol hamkorlikni rag'batlantirish lozim.

Axborot oshkoraliyi va shaffofligi tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi korporatsiyaga oid barcha muhim masalalar, shu jumladan kompaniyaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari, mulkchilik va boshqaruvi to'g'risidagi axborotni o'z vaqtida va aniq oshkor etilishini ta'minlash lozim.

Kengashning majburiyatlari tamoyili – bu korporativ boshqaruv tizimi kengash tomonidan kompaniyani strategik boshqaruvini, rahbariyat ustidan samarali

monitoringni olib borishni hamda kengashning kompaniya va aksiyadorlarga hisobdorligini ta'minlash lozim.

Korporativ boshqaruv asosiy tip bo'lib ajralib turadi, boshqarish obyekti sifatida u o'z hususiyatlari ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko'zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta'minlash, aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyati vujudga keladi va tartib qoidalarning tamoyillari, urf-odatlari va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ boshqaruv tushnchasi (corporate governance) menejment (management) tushunchasi bilan bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Korporativ boshqaruv uchun muhim narsa – halol, mas'uliyatli, ravshan korporativ hulq va hisobotni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlardir. Menejment esa korxona biznesining professional mutaxassislar tomonidan yuritilishiga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutadi. Korporativ boshqaruv menejmentga nisbatan rahbarlik qilishning yuqoriq pog'onasida joylashgan bo'lib, kompaniya faoliyatini uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida boshqarilishini ta'minlaydi. Korporativ boshqaruv va menejment vazifalarining o'zaro kesishuvi faqat kompaniyani rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Korporativ boshqaruvning maqsadi korporatsiyalarning investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining barcha faoliyat turlaridan imkon qadar yuqoriq foyda olishdir. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samarali usullarini, xalqaro satndartlarni joriy etish uchun korporativ boshqaruvning milliy modelini xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

### **Mustaqil ishslash bo'yicha nazorat savollari:**

1. Korporativ boshqaruvda axborot va uning vazifalari nimadan iborat?

2. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotlarni oshkor etish tartibi nimalardan iborat?
3. Aksiyadorlik jamiyatlarida axborotning shaffofligini ta'minlash yo'llarini tushuntirib bering?
4. Kengashning majburiyatlari tamoyili tushuntirib bering?
5. G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari nimalardan iborat?
6. Institutsional invenstorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar tamoyili mazmuni va mohiyatini aytib bering?
7. Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirib bering?

#### **Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yil 28 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 24.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 2008. – 260 b.
25. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.
26. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
27. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **8-BOB. IJRO ORGANI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI**

**Reja:**

### **8.1. Ijroiya organ a'olarinng faoliyati baholash**

### **8.2. Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatlar**

**Tayanch iboralar:** Ijroiya organ, Korporativ boshqaruv tizimi, aksiyadorlar huquqlari, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi,

### **8.1. Ijroiya organ a'olarinng faoliyati baholash**

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich tarzda davom etayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni boshqarishni hamda bozor munosabatlarini keng rivojlantirishning zamonaviy talablariga muvofiq, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyat samaradorligini oshirishga muhim e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda albatta xo'jalik jamiyatlari va korporativ boshqaruv institutlari rolini oshirish bilan bir vaqtda ushbu sohada yuqori malakali boshqaruvchi-mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi tabiiy.

Milliy iqtisodiyotimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish, ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlashga erishish, tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va bu borada ilg'or xorij tajribalaridan samarali foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Miromonovichning "2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi Parlamentga Murojaatnomasida aytilganidek "Bugungi kunda mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyat faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning 486 tasida davlat ulushi 52 trillion so'mni tashkil etmoqda. Yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport va bank sohalarida davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishga to'sqinlik qilmoqda. Ayrim vazirliliklar o'zi nazorat qiladigan sohadagi korxonalarda ta'sischi ekani erkin va sog'lom raqobatga yo'l bermayapti, buniyam bugun ochiq aytish kerak. Bunday tizimni endi o'zgartirmasak, ushbu tarmoqlarda ham va umuman, iqtisodiyotda

barqaror rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.”<sup>16</sup>

Shu o‘rinda hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes subyektlari bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini yanada rivojlantirish, ularda erkin raqobat muxitini yaxshilash va xalqaro standartlar darajasida faoliyat ko‘rsatishni ta’minlashning ahamiyat muxim hisoblanadi. Aynan ushbu vazifalarni aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning xalqaro standartlar bizning iqtisodiyotga moslashtirish orqali amalaga oshirish zarurdir.

Korporativ boshqaruv tizimi har bir davlatda o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ijtimoiy-iqtisodiy holatga moc ravishda turlicha bo‘ladi. Mamlakatda korporativ boshqaruvning rivojlanganlik darjasini aksiyadorlar huquqlari, ularning kapitali va aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanganlik holati bilan bevosita bog‘liqdir.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasiga kompaniya ma’muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslari orasidagi munosabatlar majmuasi deb ta’rif berilgan. Boshqa ta’riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati samaradorligini ta’minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me’yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etishda xalqaro tajribalar o‘rganildi va shunga mos xolda har bir aksiyadorlik

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромоновичнинг “2019 йилда мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор vazifalari тўғрисида”ги Парламентга Мурожаатномаси, Тошкент 28.12.2018 й.

jamiyati o‘zining tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda o‘zing korporativ boshqaruv tizimini ishlab chiqmoqda. Bundan tashqari, samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadida biznes subyekt(aksiyadorlik jamiyati): kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomda uning tarkibiga mustaqil a’zolarni kiritish talablarini aks ettiradi; kuzatuv kengashiga homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish huquqini faqat aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi va qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma’lumotlarni oshkor etgan tarzda beradi; aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi qaroriga asosan, har yili mustaqil professional tashkilotlar - maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning AJ rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazadi; AJ samarali ichki nazorat tizimini joriy qilishning asosiy maqsadini barcha aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minalashni belgilaydi; ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun AJning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash masalasini aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida muhokama qilinishini ta’minalaydi. Ushbu amallar orqali korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va uni nazorat qilib borishni ta’minalash amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini yanada rivojlantirish, aksiyadorlarning mulki bo‘lgan biznes subyektlarini samarali boshqarishda quyidagilarni amalga oshirish muxim hisoblanadi: aksiyadorlarni, kuzatuv kengashlari va taftish komissiyalari a’zolarini korporativ boshqaruv, moliyaviy va ishlab chiqarish jihatidan tahlil qilish, korxona va uning ijro etuvchi organlari faoliyatini nazorat qilish usullariga o‘qitish; aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv ijro etuvchi organlari rahbar xodimlarini menejment va marketingning zamonaviy usullari bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlash; investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilarni hamda davlatning ishonchli vakili xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish; xususiyashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozori, monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasida va boshqa iqtisodiy tuzilmalarda ishlovchi mutaxassislarning kasb darajasini oshirish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish korportiv boshqaruv tizimini aksiyadorlik jamiyatlarida tizimli tashkil etish, yuqori rahbariyat tomonidan tushunarli bo‘lish, aksiyadorlarning huquq va majburiyatlarini har tomonlama himoya qilishga yo‘naltirish va umumiyyatni samarali tashkil etish prinsiplarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa qilganda, respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish va uni optimallashtirish hozirgi zamon talabi hisoblanadi. Zero, milliy iqtisodiyotda asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish, ularda rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlarning sinalgan korporativ boshqaruv tizimini joriy etish va nazoratini olib borish har tomonlama asoslidir. Bu o‘rinda, albatta, har bir tarmog‘ning individual xususiyatidan kelib chiqqan xolda yondashish samaralidir.

## **8.2. Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatları**

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi – besh nafar a’zodan iborat.

Boshqaruv Jamiyatning ijro etuvchi organi hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, aksiyadorlar umumiyyatini yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiyyatini yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

Boshqaruv – ijroiya organi a’zolari bilan tuziladigan mehnat shartnomasi Boshqaruv raisi tomonidan imzolanadi.

Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiyyatini yig‘ilishining mutlaq

vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

Jamiyat Boshqaruvi mavjud qonunchilik, mazkur ustav va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan “Ijroiya organi to‘g‘risida”gi Nizom asosida ish olib boradi.

Jamiyat Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o‘tkaziladi. Jamiyat Boshqaruvi tomonidan Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda Boshqaruv majlisida oldindan muxokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida Boshqaruv rahbari – Boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Boshqaruv azosi axborot beradi va himoya qiladi.

Jamiyat Boshqaruv majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda ijroiya a’zolarining 60 foizidan ortik qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

Jamiyat Boshqaruv majlisida qarorlar majlisda katnashayotgan Boshqaruv a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir azosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda jamiyat Boshqaruvi rahbarining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

Jamiyat Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo‘lmagan Boshqaruv a’zolari o‘z fikrlarini jamiyat Kuzatuv Kengashiga bildirishlari mumkin.

Jamiyat Boshqaruvi majburiylari va vakolatlariga kuyidagilar kiradi:

- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chikish, ularni tashkil etish va bajarilishini ta’minlash;
- Jamiyatning investitsion faoliyatini amalga oshirish;
- ishlab chiqariladigan maxsulotlar va ko‘rsatayotgan xizmatlariga baho va tariflarni tasdiqlash;

- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini ta’minlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko‘rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta’minlash;
- Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi yoki Jamiyat auditori talabiga ko‘ra taqdim etish;
- filial va sho‘ba korxonalar faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash va ularning biznes-rejalarini va bajarish to‘g‘risidagi hisobotlarini tasdiqlash;
- Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro samarali harakatini ta’minlash;
- o‘z vakolati doirasida mol-mulkni sotib olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘lik bitimlar (umumiy qiymati qaror qabul qilingan sanada Jamiyat sof aktivlarining 5 foizdan 15 foizgacha tashkil etadigan bitimlar yoki o‘zaro bog‘lik bir qancha bitimlar) tuzish, qarz, kredit va garov shartnomalarini tuzish;
- Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash va ularni xodimlar tomonidan saqlanishini ta’minlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar ruyxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;
- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta’minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va kobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko‘rish;
- o‘z vakolatiga tegishli ishlarning xolati to‘g‘risidagi axborotni aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishiga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchlilagini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o‘z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta’minlash;

- Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash, muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzdorliklarini vujudga kelishini va Jamiatning bankrotlik holatiga kelib qolishini oldini olish;

Jamiat Boshqaruvi qonunchilik, ushbu ustav va Jamiatning me'yoriy hujjaligiga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Jamiat Boshqarv raisining majburiyatları va vakolatlariga kuyidagilar kiradi:

- o'zining vakolatlari doirasida Jamiatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiat Kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;
- Jamiat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;
- banklarda hisob rakamlar, shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochadi va Jamiatning bank va boshqa moliya hujjalarda birinchi imzo vakolatiga ega bo'ladi;
- o'zining vakolatlari doirasida, Jamiat mijozlari, korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolaydi va bitimlar tuzadi;
- o'z vakolatlari doirasida jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;
- shtatlarni belgilash, xodimlarning shtat ruyxatini tasdiqlash;
- Jamiatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruk va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiatning sho'ba korxonalari va filiallari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;
- Jamiat filiallari va sho'ba korxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiat filillari va sho'ba korxonalarining shtat jadvallarini tasdiqlash;

- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mexnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, rag‘batlantiradi hamja ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llaydi, xodimlar tomonidan mexnat va ijro intizomini saklab turishini ta’minlaydi;

- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

- O‘z vakolati doirasida mol-mulkni sotib olish va boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘lik bitimlar (umumiyligi qiymati qaror qabul qilingan sanada Jamiyat so‘aktivlarining 5 foizini tashkil etadigan bitimlar yoki o‘zaro bog‘lik bir qancha bitimlar) tuzish, qarz, kredit va garov shartnomalarini tuzish;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruk va farmoyishlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta’minlash;

- o‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta’minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

Jamiyat Boshqaruv raisi qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me’yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Jamiyat Boshqaruv raisi qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me’yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Boshqaruv raisi xizmat safari yoki boshqa sabablarga ko‘ra ish joyida bo‘lmagan vaqtida, vazifalarini o‘zining buyrug‘i orqali direktorlarning biriga yuklaydi.

Jamiyat Boshqaruv a’zolari va jamiyat Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq jamiyat oldida javobgardir.

Boshqaruv a’zolari va jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan ushbu Ustav va mehnat shartnomasi shartlari qo‘pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko‘rsatgichlarni bajarilishi buzilgan xollarda va ularning

harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli ular bilan tuzilgan shartnomaga Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

Jamiyat Boshqaruv a'zolari va jamiyat Boshqaruv raisi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda ularning vazifasini vaqtincha bajarish Jamiat Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq Jamiat Boshqaruvi a'zolarining biriga yuklatiladi.

Jamiyat Boshqaruvi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

Jamiyatning ijroiya organini tuzish va uning son tarkibini Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Jamiyatning ijroiya organi son tarkibi ma'muriy-xo'jalik xarajatlari smetalari asosida va doirasida jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish jamiat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiatning boshqaruvi a'zolarining soni 7 kishidan iborat.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan jamiyat ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi. Jamiat ijroiya organiga nomzodlar ko'rib chiqilganda va saylanganda (tasdiqlanganda) qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiat ijroiya organiga nomzodlar jamiyatga o'zi jinoiy javobgarlikka tortilganligi faktlari to'g'risida ma'lum qilishi shart. Jamiat boshqaruv a'zoligiga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan yoki kuzatuv kengash majlisida qatnashishlari mumkin.

Jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jamiatning ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi. Jamiatning ijroiya

organlarini tuzish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra jamiyat ijroiya organi a’zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshiriladi.Jamiyat ijroiya organi jamiyat ijroiya organi lavozimlariga xorijiy menejerlar nomzodlarining ishtirok etishiga imkon yaratilgan holda har yili ijroiya organi lavozimlariga tanlov reglamenti asosida tanlovlar o‘tkazadi.Ijroiya organi lavozimlariga tanlov reglamenti jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida jamiyat ijroiya organi a’zolarining mukofot va kompensatsiyalari miqdori oshkor etiladi.

Aksiyador (Aksiyadorlar) vakili sifatida ishtirok etuvchi jamiyat ijroiya organi a’zolari jamiyat ijroiya organi a’zolarini saylash masalasida ovoz berish huquqiga ega emas.Jamiyat ijroiya organi rahbari va filialarning rahbarlari, rahbarlik va kasbiy maxoratga ega bo‘lgan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining taklifiga binoan “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi va Toshkent shahar xokimligi tomonidan muqobillik asosida tanlanadi va jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

### **Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatları**

Jamiyatning boshqaruv raisi jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi. Jamiyat boshqaruv raisining vakolat doirasiga quyidagilar ham kiradi:

- o jamiyat faoliyatining joriy va dasturlarini ishlab chiqish;
- o ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, ijtimoiy va tabiatni muxofaza qilish dasturlarini moliyalash uchun investitsiyalar jalb qilishda ishtirok etish;
- o maxfiy xarakterdagи ma’lumotlar ro‘yxatini va ularni olish tartibini

belgilash;

- o jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilish va jamiyat kuzatuv kengashiga jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati haqidagi balans va yillik hisobotni taqdim etish;
- o jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilish va jamiyat kuzatuv kengashiga foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi haqida takliflar kiritish;
- o o‘zining vakolatlaridan chiqmagan xolda jamiyatning ichki hujjatlarini va ijroiya apparatining tashkiliy tizimini tasdiqlash.

**Jamiyat boshqaruv raisi:**

- O‘zbekiston Respublikasi va chet ellarda shartnomalar, kontraktlar va boshqa bitimlar tuzadi, bank va moliya operatsiyalarini amalga oshiradi, shunday operatsiyalarni amalga oshirishga boshqa shaxslarga vakolatnomalar beradi;
- jamiyat faoliyatining moliyaviy, investitsiyaviy, ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirishni tashkil qiladi;
- jamiyat ishchilari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi, shu jumladan agar jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan unga vakolat berilgan bo‘lsa jamiyat boshqaruv a’zolari bilan ham shartnomalar tuzadi;
- jamiyat faoliyati haqida ommaviy axborot vositalariga axborotlar beradi va jamoatchilik bilan aloqalarni amalga oshiradi;
- jamiyat mulki va mablag‘larini boshqaradi;
- O‘zbekiston Respublikasi va boshka davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga nisbatan jamiyat nomidan da’volar taqdim etish haqida qarorlar qabul qiladi;
- banklarda hisob, valyuta va boshqa raqamlarni ochadi;
- jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish masalalarini hal etadi;
- jamiyat faoliyatining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati uchun javob beradi;
- jamiyatning normal faoliyatini ta’minlash bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajaradi.

Jamiyatning boshqaruv raisi vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat kuzatuv

kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

### **Mustaqil ishslash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ijroiya organ a’olarinng faoliyati baholash nimadan iborat?
2. Jamiyat ijroiya organining vakolati nimalardan iborat?
3. Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatlari tushuntirib bering?
4. Ijroiya organ a’olarinng majburiyatlari tamoyili tushuntirib bering?
5. Jamiatning boshqaruv raisi vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga haqlimi?
6. Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalar kiradimi?
7. Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni tushuntirib bering?
8. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarini tushuntirib bering?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 28.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.
29. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.

30. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
31. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **9.-bob. KORPORATIV BOSHQARISH TIZIMIDA DAVLAT ISHTIROKI**

**Reja:**

- 9.1. Davlatning korporativ boshqaruvda qatnashishi**
- 9.2. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsad va tamoyillari**
- 9.3. Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimi**

**Tayanch iboralar:** Oltin aksiya, ishonchli boshqaruvchi, Amerika modeli, davlat ulushi, depozitariy, nominal qiymat, xolding, monopoliya, professionalizm, oltin aksiya, davlat aksiya paketi.

### **9.1. Davlatning korporativ boshqaruvda qatnashishi**

Davlat korporativ boshqaruvda ikki yoqlama ishtirok etadi. Birinchidan, zaruriyatga qarab korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy negizini hosil qilish va takomillashtirish hamda aksioner jamiyatlari (AJ) tomonidan qonunchilik me'yorlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilishda qatnashadi.

Ikkinchidan, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlar korporativ boshqaruvida bevosita ishtirok qilish va “oltin aksiya” qo'llanilishi haqida hukumat qarori qabul qilingan AJni boshqarishda qatnashish.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ba'zi bir AJlar ma'lum bir miqdordagi aksiyasiga davlatning egalik qilishiga yagona sabab “bozordagi yo'qotishlar”ning (market failure) mavjudligidir. Bu bozorlarda jamiyat manfaatlari va yo'qotishlari xususiy manfaat va yo'qotishlardan ustun bo'ladi. Bunday holat, masalan, bozor tuzilmasining monopoliashtirish holida ro'y beradi. Bunda xususiy mulkdorning intilgan foydani imkon qadar oshirish maqsadi jamiyat uchun (erkin raqobatchilik modeliga nisbatan) mahsulot miqdorining pasayishiga va nisbatan yuqori narxlarda sotilishi shaklida zararni anglatadi.

Davlat korxonalarini va davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish bo'yicha jahon amaliyotida eng keng tarqalgan modellar mavjuddir. Shular jumlasiga:

*Amerika modeli* – bu model odatda ishlab - chiqarish sektorida davlatning ulushi kichik bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Ularda davlat aksiya paketlarini shartnoma asosida xususiy boshqaruvchi kompaniyalariga berishi xususiyatlidir.

Mazkur modelda “jamoatchilik uchun ochiq korporatsiyalar” mafjud bo‘lib, ular mos ravishda tarmoq departamentlari va vazirliklarga bo‘ysunadilar.

*Italiya modeli* – korxonalarda davlat ulushi katta bo‘lgan davlatlarga xosdir. Davlat korxonalarini va davlat aksiya paketlarini boshqarish uchun davlat mulki vazirligiga qarashli ko‘p tarmoqli xolding kompaniyalari tashkil qilinadi.

*Aralash model* – yuqorida sanab o‘tilgan ikki modelning xususiyatlarini o‘zida birlashtiradi. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘larоq O‘zbekistonda davlat mulki iqtisodiyotning “bozor kamchiliklariga” duchor bo‘lgan qismiga nisbatan kengroq sohasining ishlashiga ta’sir qiladiki, bu davlat mulkini xususiylashtirish jarayonining tugallanmaganligi bilan bog‘liqdir. Oqibatda, aksiyalari to‘liq yoki qisman davlat ixtiyorida bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlar bilan birgalikda, ustav fondida davlatning ishtiroki vaqtincha bo‘lgan korxonalar soni ham ko‘p. Masalan, xususiylashtirilishi kerak bo‘lgan ko‘pchilik korxonalar ularni rekonstruksiya qilish uchun katta hajmdagi investitsiyalarga muhtojdir. Ularning aksiyalari, nafaqat aksiyalarni sotib olishga, balki ishlab - chiqarishni rivojlantirishga ham investitsiya kiritishga tayyor bo‘lgan strategik investorlarga sotilishi nazarda tutiladi. Bunday investorlarni topish oson bo‘lmaydi va ma’lum bir vaqt talab qilinadi.

## **9.2. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsad va tamoyillari**

Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsadlari, tamoyillari va modellari:

- davlat budgetining soliqdan tashqari daromadlarini oshirish;
- tabiiy monopoliyalarni tartibga solish, mamlakat mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish va boshqa dasturlarini amalga oshirish bilan bog‘liq umudavlat vazifalarini bajarishda xo‘jalik jamiyatlarining qatnashuvini ta’minalash;
- ishlab - chiqarishning rivojlanishiga sharoit yaratish, xo‘jalik jamiyatlari faoliyatining moliyaviy - iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, investitsiyalar jalb

qilish;

- iqtisodiyotda institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish (korxonalarini, tarmoqlarni restrukturizatsiya qilish, vertikal integratsiyalangan korporativ tuzilmalarni tashkil qilish);

Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning asosiy tamoyillari:

- aniq AJ (AJlar guruhi, masalan, paxta tozalash zavodlari) aksiya paketlarining davlat egaligida qoldirilishi zarur bo‘lgan maqsadlarning aniqlanishi va mos ravishdagi huquqiy hujjatlarida aniq yoritilishi;

- minimal yetarlilik, ya’ni davlat manfaatlariga iqtisodiy tartibga solishning (soliq, bojxona siyosatini o‘zgartirish va boshqalar) bilvosita (indikativ) usullar bilan erishib bo‘lmaydigan korxonalariga aksiyalar paketiga davlatning egalik qilishi yetarlidir;

- samarali boshqarish orqali resurslarni imkoni bor darajada tejashga erishish uchun korxona ustav fondida davlat ishtirokining zaruriyati;

- boshqaruvning professionalizmi, davlat aksiya paketlarini boshqarishga yuqori malakali mutaxassislarning jalb qilinishi nazarda tutilishi;

- davlat aksiya paketlarini boshqaruvchilar bilan samarali o‘zaro munosabatda bo‘lish tizimining mavjudligi.

O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aksiya paketlarini boshqarishda jahon amaliyotida keng tarqalgan uch variant (model) qo‘llaniladi:

- aksiyadorlik jamiyatlar boshqaruva organlariga davlat xizmatchilarini saylash (tayinlash). Bu variant O‘zbekistonda 1998-yildan beri qo‘llanadi. Davlat ulushi 25%dan oshadigan har bir aksiyadorlik jamiyatlarda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish uchun davlat ishonchli vakillari tayinlanadi;

- davlat aksiya paketlarini shartnomaga asosida ishonchli boshqaruvga berish (amerika modeli). 1998-yilgacha bu yo‘l bilan barcha davlat aksiya paketlari boshqarilar edi. Ishonchli boshqaruvchilik vazifasi, boshqariluvchi aksiya paketlari ustav fondlariga berilmagan holda, bozor islohatlarining dastlabki yillarida tugatilgan tarmoq vazirliklari negizida tashkil qilingan uyushmalar, korporatsiyalar va boshqa

xo‘jalik birlashmalari zimmasiga yuklatilgan edi. 1998 – 2002 yillarda xo‘jalik birlashmalari ishonchli boshqaruvida 25% va undan kam miqdordagi aksiya paketlari berilgan edi. Keyinchalik ushbu aksiya paketlarini professional boshqaruv kompaniyalariga ishonchli boshqaruvga berish boshlandi;

- ishlab - chiqariladigan maxsulotlar (xizmatlar) bir jinsliligi, kooperatsion aloqalar yaqinligi va boshqa belgilar bo‘yicha ustav fondida davlat ulushi ishtirok qilgan korxonalarni tarmoq (ko‘p tarmoqli) davlat xolding kompaniyalariga birlashtirish (italiya modeli). O‘zbekistonda ustav fondlari to‘liq yoki deyarli to‘liq hajmda davlat aktivlaridan shakllantirilgan qator xolding kompaniyalar (“O‘zbekneftgaz”, “O‘zqishloqxo‘jalikmash – xolding” va boshqalar), hamda nomlanishi boshqacharoq bo‘lsada mohiyatan xolding kompaniyasi bo‘lgan davlat - aksiyadorlik va aksiyadorlik kompaniyalar (“O‘zbekenergo”, “O‘zkimyosanoat” va boshqalar) tashkil etildi.

“Oltin aksiya” - ayrim aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi bo‘lib, u strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat korxonalari xususiylashtirilayotganda yoki aksiyadorlik jamiyatlarining davlat aksiya paketlari xususiy mulk etib realizatsiya qilinayotganda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

“Oltin aksiya” qiymatga ega emas, boshqa shaxsga berilmaydi hamda arovga qo‘yilmaydi, ustav fondi miqdorini belgilshda va dividendlarni hisoblashda inobatga olinmaydi.

“Oltin aksiya” ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yoki bu ulush yigirma besh foizdan oshmaydigan aksiyadorlik jamiyatlarida joriy etilishi mumkin. Davlatning “oltin aksiya” dan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

“Oltin aksiya” aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat vakilini (bundan buyon matnda davlat vakili deb yuritiladi) tayinlash vositasida realizatsiya qilinadi. Davlat vakili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida va kuzatuv kengashi majlislarida ushbu qonunning 65-moddasi birinchi qismining ikkinchi-

to‘rtinchi, ettinchi, sakkizinchi, o‘n sakkizinchi, o‘n to‘qqizinchi xatboshilarida, shuningdek 82-moddasi birinchi qismining ettinchi, yigirma ikkinchi-yigirma to‘rtinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha veto qo‘yish huquqi bilan majburiy tartibda ishtirok etadi. Veto qo‘yish ushbu qarorlar qabul qilingan kuni yozma shaklda amalga oshiriladi.

Boshqaruv kompaniyasining asosiy maqsadi - qaltislikning maqbul darajasida mulkdorning mumkin qadar yuqori daromad olishini ta’minlash. Davlat aksiyalar paketini ishonchli boshqarishda ushbu aktivlarni saqlab qolish va boshqaruvdagagi korxonalarning uzoq muddatli daromadli faoliyatini maksimallashtirish hisobiga ularning qiymatini ko‘paytirishga intilish kerak. Buning uchun boshqa aksiyadorlar bilan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Ya’ni ular, korxonaning uzoq muddatli foydaliligi korxonaning aksiyalari qiymatini ancha oshirishini anglab etishlari darkor.

Strategik investorlar va aksiyadorlar (shu jumladan davlat ham), umuman olganda, uzoq muddatli o‘sishga yo‘nalish olgan korxonalar faoliyatini ijobiy qabul qilmoqda, vaholanki ular bugun katta foyda keltirmasligi ham mumkin. Ushbu omillarni hisobga olib, boshqaruv kompaniyasi o‘z faoliyatida boshqarilayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini yaxshilash va ularning foydalilagini oshirishga katta e’tibor berishi kerak.

Davlat paketini ishonchli boshqarish bo‘yicha shartnomalarni tuzishda korxonalarda korporativ boshqaruv tizimining yuqori samaradorligini ta’minlash muximdir. Kuzatuv kengashlari direktorlarning chorak yakunlari bo‘yicha hisobotlarini tinglamaydi. Ijroiya organlari biznes - rejalar korxonaning o‘tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinmasdan qabul qilingan hamda navbatdagi xo‘jalik yilidagi rivojlanish istiqbollarini to‘liq ochib bermaydi.

Shu munosabat bilan, “Taskon Management” kompaniyasi aktivlarini boshqarayotgan barcha korxonalarda, qonunchilik talablariga muvofiq kuzatuv kengashlari faoliyati rejalarini tuzish, jamiyat ijroiya organlari rahbarlari tomonidan navbatdagi xo‘jalik yili uchun biznes - rejalar qabul qilinishi va ularda aniq maqsadlar, istiqboldagi vazifalarni belgilab, aniq muddatlar va ijrochilarning ko‘rsatilishi bo‘yicha ishlar tashkil qilgan.

Boshqarilayotgan korxonalarini texnik qayta qurollantirish va modernizatsiyalash, mol - mulkini saqlash va undan samarali foydalanishni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Kuzatuv kengashlarining ish rejalarini va ijroiya organlarining biznes - rejalarini tuzilishi boshqarilayotgan korxonalarda ham Kuzatuv kengashi, ham Ijroiya organining samarali faoliyat tartibini yo'lga qo'yishga imkon beradi. Boshqaruv kompaniyasi xodimlari amaldagi qonunchilik doirasida jamiyatlar ijroiya organlariga moliyaviy - xo'jalik faoliyatiga bog'liq turli masalalarining ijobiy yechimini topishga yordam bermoqdalar. Boshqaruv kompaniyasining yuqori ish sifati har bir xodimning kasbiy mahoratiga, tajribasiga, boshqaruvning ilg'or usullaridan foydalanishga hamda zamonaviy dasturiy ta'minotga bog'liqdir.

Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtida almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, turar joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) aks ettirilgan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan beriladigan ovoz berishga doir ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi

### **9.3. Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarni tizimi**

Bugungi jahon iqtisodiyotidagi integratsiyalashuv va moliyaviy globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va aholi turmush farovonligining yuksalishi mamlakat moliya tizimining barqarorligiga va rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy munosabatlarning markaziy bo'g'ini sifatida korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlari moliya tizimida muhim o'rin egallashidan kelib chiqqan holda korporativ moliya va davlat moliyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslarini samarali tashkil etish muhim

ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida moliya, moliyaviy munosabatlar, xususan, korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimi to‘g‘risida o‘z ilmiy qarashlarimizni keltirib o‘tamiz.

Fikrimiz avvalida, moliyaviy munosabatlar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish lozim. Moliyaviy munosabatlar iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, turli darajadagi iqtisodiy tizimlar subyektlari o‘rtasidagi pulli munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Bunday moliyaviy munosabatlarga davlatlararo, korxonalararo, davlat va korxona davlat va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar va hokozolar kiradi.

Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi haqida fikr yuritilganda, avvalo, moliya va uning tarkibiy tuzilishi nazarda tutiladi. Korporativ moliya va davlat moliyasi umumiy moliya tizimining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Moliya to‘g‘risida iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ta’riflardan kelib chiqan holda umumiy holda moliyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Moliya – bu ma’lum bir maqsadda pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir. Professor Krassimir Petrov o‘zining “Financial management” nomli video ma’ruzasida (1) moliyaning tarkibiga korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot, investitsiya, uy xo‘jaligi moliyasi va davlat moliyasi kiritilishini ta’kidlab o‘tadi. Bizning fikrimizcha esa, moliya o‘z ichiga davlat moliyasi, korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot va uy xo‘jaligi moliyasini oladi. Investitsiya esa ulardan har birining tarkibida mavjuddir.

Davlat moliyasi, korporativ moliya, moliyaviy iqtisodiyot va uy xo‘jaligi moliyasi doimo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘zaro moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Moliyaviy iqtisodiyot umumiy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga moliya bozori, moliya institutlari, moliyaviy instrumentlarni oladi. Mamlakatimizda moliyaviy iqtisodiyot tushunchasi o‘rnida ko‘p holatlarda moliyaviy sektor tushunchasi qo‘llaniladi.

Shu o‘rinda moliyaning tarkibiga kiruvchi davlat moliyasi va korporativ moliyaning mazmun va mohiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Davlat moliyasi – bu davlatning o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun

davlat budgeti va nobudget maqsadli pul fondlarini shakllantirish va taqsimlash hamda qayta taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Korporativ moliya esa bu – korporativ tuzilmalar maqsadlarini amalga oshirish uchun pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari yig'indisidir.

Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimining samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligining ta'minlanishiga hamda aholi turmush farovonligi yuksalishiga xizmat qiladi. Fikrimizning dalili sifatida, 2008-yilda xalqaro miqyosda yuzaga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatimiz tomonidan olib borilgan izchil moliyaviy siyosat yuritilishi mamlakatimizda ham real sektor, ham moliyaviy sektor tuzilmalarining iqtisodiy tang holatdan qiyinchiliksiz chiqib ketishiga zamin yaratdi.

Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi umumiyligi molija tizimining eng muhim va ajralmas qismi bo'lib, bunday munosabatlar tizimi o'z ichiga soliq, majburiy ajratmalar, davlat investitsiyalari, davlat qimmatli qog'ozlari, litsenziyalash, pul, kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, narx shakllanishi, dividend siyosati, davlat haridi, jarima va sanksiya qo'llanilishi hamda boshqa munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Korporativ tuzilma va davlat o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimi tarkibiga kompaniyalarning davlat budgetiga soliqlar va majburiy ajratmalarni to'lashi, strategik ahamiyatga ega kompaniyalar faoliyati davlat tomonidan ham moliyalashtirilishi, davlat pul-kredit siyosatining amal qilishi, kompaniyalarning davlat nazorati ostida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishi, korxonalar biror bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi uchun davlatdan litsenziya olishi, kompaniyalarning fond birjalarida faoliyatini yuritishida davlat tomonidan ta'sir choralarini ko'rishi, kompaniyalarning mahsulotlarini davlat tomonidan harid qilinishi yoki ular faoliyatiga davlat tomonidan ulush sifatida investitsiya kiritilishi, kompaniyalar tomonidan davlatga dividend to'lanishi, kompaniyalar tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarining sotib olinishi va qayta sotilishi, noqonuniy faoliyati uchun kompaniyalarga davlat tomonidan jarima-sanksiyalar qo'llanilishi kabi moliyaviy

munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

Korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimini unda davlatning ishtirokiga qarab shartli ravishda ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh: davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar, ikkinchi guruh: davlat ulushiga ega bo‘lmagan korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar.

Davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida bir tomonidan ushbu turdagи korporativ tuzilmalar tomonidan davlatning turli darajadagi budgetlariga soliqlar, majburiy ajratmalar, dividendlar va boshqa ko‘rinishdagi mablag‘larning yo‘naltirilishi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni, boshqa tomonidan davlat ushbu turdagи korxonalarning egasi sifatida uning taraqqiyoti uchun turli imtiyozlar, budgetdan turli maqsadlar uchun turli ko‘rinishdagi mablag‘lar, xususan, pul mablag‘lari, asosiy vositalar, investitsiyalar yo‘naltirish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni keltirishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, davlat ulushiga ega korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar ko‘lami mustaqillik yillarda davlat mulkining xususiylashtirilishi sababli kamayib borayotganligi bilan harakterlanadi. Ushbu ilmiy qarashlarimizning birgina tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruв uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoniga muvofiq 2015-yil 1-iyulidan aksiyadorlik va boshqa xo‘jalik jamiyatları nomlarida ularning ustav kapitalida davlat ulushidan qat’i nazar “davlat” so‘zidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaslik belgilanganligini keltirishimiz mumkin.

Ikkinci guruhga mansub korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar ham umumiy moliya tizimining muhim va ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu moliyaviy munosabatlar tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida, davlat budgetiga soliqlar va majburiy ajratmalarning borib tushishi va davlat tomonidan korporativ moliya subyektlariga turli imtiyozlar taqdim etilishi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar kiritiladi. Bundan tashqari, ushbu moliyaviy

munosabatlar tizimiga davlat qimmatli qog‘ozlarining oldi-sotdisi, korporativ tuzilmalar taraqqiyoti uchun davlat investitsiyalarining kiritilishi, eksport-import operatsiyalarida davlatning ishtiroki, valyuta operatsiyalarining tartibga solinishi, korporativ tuzilmalar faoliyat va sohalariga qonunchilik orqali o‘zgartirishlar, cheklashlar yoki taqiqlashlar kiritilishi, davlat mulkining ijaraga berilishi yoki xususiyashtirilishi kabilar bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Korporativ tuzilma va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimining samarali tashkil etilishi, ayniqsa, korporativ moliya subyektlari tomonidan puxta o‘ylangan qarorlarning qabul qilinishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan barcha moliyaviy muammolarni hal etishda korporativ tuzilma egalari, davlat ulushi mavjud korxonalarda esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy tangliklarni bartaraf etishda korporativ tuzilma egalari qatorida davlat ham ishtirok etadi.

Korporativ tuzilma va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimida soliq munosabatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, korxonalar va davlat o‘rtasidagi soliq munosabatlari korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumdan tortib, to sof foyda shakllangungacha bo‘lgan oraliqda davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlarga soliqlar va majburiy ajratmalar to‘lanishi bilan harakterlanadi.

Mahsulot sotishdan tushumdan to sof foyda shakllanish oralig‘ida korxonalarning davlat bilan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va boshqa egi soliqlar, resurs soliqlari, foyda solig‘i, qo‘srimcha foyda solig‘i, budgetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar bilan bog‘liq soliq munosabatlari yuzaga keladi. Ushbu soliq munosabatlari amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar natijasida turli darajada o‘zgarib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli farmoni ham kelgusida soliq munosabatlarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ushbu hujjatga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan xorijiy mutaxassislarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lash, xorijiy mutaxassislarning boshqaruv

xodimlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari daromad solig‘i, to‘lov manbaidan olinadigan daromad solig‘i, shuningdek, budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan fuqarolarning majburiy sug‘urta badallaridan ozod etish belgilandi. Bu esa, o‘z navbatida, korporativ tuzilmalarda zamonaviy boshqaruv uslublarining joriy etilishiga hamda korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarning samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot ishi bo‘yicha yuqoridagi ilmiy qarashlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni keltirib o‘tamiz:

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatalar tizimi umumiyligi moliyaviy munosabatlarning asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi va uni samarali tashkil etish ham korporativ tuzilmalar ham davlat moliyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi;

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar shartli ravishda ikki guruhga davlat ulushiga ega korxonalar va davlat o‘rtasidagi hamda boshqa korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarga bo‘linadi. Davlat ulushiga ega korxonalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarining ko‘lami ikkinchi guruhdagiga qaraganda kengroqdir;

- korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning asosiy qismini soliq munosabatlari tashkil etadi. Soliq munosabatlarini samarali tashkil etish, soliq qonunchiliginini barqarorlashtirish ham korporativ tuzilmalar ham davlat moliyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy holda xulosa qilishimiz mumkinki, korporativ tuzilmalar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar tizimini samarali tashkil etish korporativ tuzilmalar hamda mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, bu, o‘z navbatida, biznes muhiti yaxshilanishiga va aholi turmush farovonligi o‘sishiga xizmat qiladi.

Respublikada so‘nggi yillarda mamlakatni modernizatsiya qilish tufayli jiddiy iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu asosiy makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifani amalga oshirish – iqtisodiyotning mavjud moliyaviy salohiyatini ichki investitsiyalarga ko‘chirish sifat jihatdan yangi o‘sish

omillarini faollashtirishni, avvalo, tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirishni hal etishni, islohotlarni tezlashtirishni, iqtisodiyotning real sektori jalg etuvchanligini oshirishni, kapitalning tarmoqlararo ko‘chib o‘tish jarayonlarini faollashtirishni talab qiladi. Biroq, foyda olishga yo‘naltirilgan yirik ishlab chiqarish birlashmalarini boshqarish tajribalarisiz, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishsiz milliy ishlab chiqaruvchilaruchun investitsiyalash muammoli bo‘ladi. Respublika korxonalarida korporativ boshqaruv bu- birinchi navbatda, butun tashkilotni modernizatsiyalashdir. Institutsional jarayon qatnashchilari o‘rtasida o‘zaro ishbilarmonlik munosabatlariga o‘tish ishlab chiqarish birliklarining iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini jiddiy oshiradi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda biznes yuritishning korporativ shakli, nisbatan yangi va endi shakllanish bosqichida hisoblanib, yetarli boshqaruv tajribasiga ega emas va amalda samarali boshqaruv texnologiyalarsiz va kasbiy tajribasi yuqori korporativ boshqaruvchilarsiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Chamasi, korporativ boshqaruv sohasida o‘ziga xos milliy jihatlar kasb etadigan amaliy tajriba orttirish vujudga kelgpn iqtisodiy va huquqiy sharoitlarda ko‘p vaqt talab qiladi.

Respublikada o‘tkazilayotgan ekspert tadqiqotlari amaldagi boshqaruv tizimi ko‘pincha strategie va bozor asoslariiga ega emas deb ta’kidlashga imkon beradi. U ayrim mutaxassislarning tajribasi, intuitsiyasi, vijdonligiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonada direktor funksiyalar bo‘yicha strateg emas, balki texnologik qayta qurollanish jarayonining bosh nazoratchisi va «siljituvchisi» hisoblanadi. Investitsmon jaraenlar ko‘pchilik korxonalarda (kamida 85 foiz) oqilona boshqariladigan hisoblanmaydi va ularing rivojlanishi yoki yaqqol zarurat holatida, yoki tasodifiy ravishda amalga oshiriladi. Investitsiyalardan, jumladan, kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi ustidan qoniqarli nazorat yo‘q.

Kompaniya egalari va menejerlari, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslarning (kreditorlar, yollanma xodimlar, tashqi jismoniy shaxslar, investitsion fondlar, banklar, maxalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari) ularning manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlar tizimida korporativ boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan aksiyadorlik jamiyati tuzilmasiga (aksiyalar paketining to‘planish darajasi,

aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatishining huquqiy tartibga solinishi va boshqa omillarga) bog‘liq.

Korporativ boshqaruvda muammoli vaziyatlarning paydo bo‘lish sabablari odatda mulkka egalik qilishni uni bevosita boshqarishdan ajratish va korporativ munosabatlar qatnashchilarining asosiy guruhlari manfaatlari bo‘yicha farqlanadigan kurash bilan bog‘lanadi. Bunda har bir aksiyadorlik jamiyati uning faoliyat ko‘lami, kompaniyaning atrof- muhit va boshqa ichki va iashqi omillar bilan o‘zaro aloqalar harakteriga qarab uning korporativ boshqaruvida qaysi qatnashchilarning muayyan guruhlari ifodalanishi lozimligi haqidagi masalani hal qiladi.

Zamonaviy sharoitlarda aksiyadorlar menejmentni almashtirish va mulkni qaytadan bo‘lib olish bilan g‘alabaga erishish ehtimoli yuqori bo‘lgan hollardagina qarama-qarshilik harajatlari va mojarolarga boradi. Bunda muholibat ko‘pincha mehnat jamoasini o‘z tomoniga og‘darib oladi, mulkni qayta taqsimlashning qo‘sishimcha mexanizmlaridan (aksiyalar emissiyasi, qayta tashkil qilish), turli hil tashqi ma’muriy – siyosiy va boshqa vositalardan foydalanadi. Korporativ boshqaruv sohasidagi mahalliy mutaxassislarning ta’kidlashicha, hozirgi paytda mamlakatda korporativ munosabatlarning rivojlanish jarayoni umuman olganda bozor munosabatlariga o‘tish yo‘llari va ularning iqtisodiy rivojlanish mentalitetiga ta’siri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq jihatlarga tobora ega bo‘lib bormoqda. Aynan shu sababli amalga oshiriladigan islohotlar jarayoni ko‘p jihatdan davlat-huquqiy tuzilma xususiyatlari, iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-geografik shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan o‘zining korporativ boshqaruv modelini shakllantirish bilan bog‘lanadi.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimi muammolari qatoriga quyidagilar kiradi: korporativ boshqaruv va nazorat sohasida amaliy mexanizmlarni shakllantirish borasida faollikning sustligi, mojarolarga olib keluvchi aksiyadorlar manfaatlarini uzoq muddatli himoya qilish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi. Lekin, shunga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti astasekinlik bilan mulkchilik huquqining o‘ziga xos bo‘lgan barqarorlashuv belgilari bilan rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tmoqda.

Oxirgi yillarda korporativ boshqaruv bobsi va u bilan bog‘liq bo‘lgan milliy

korxonalarda korporativ boshqaruv darjasи va samaradorligini oshirish bo‘yicha turli xil choralar ko‘rish zarurati davlat tartibga organlarining ham, xorijiy investorlarning hamdiqqat- e’tibori markazidan o‘rin egalladi. Xususan, xorijiy investorlar va turli xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar aksiyadorlar va umumiy yig‘ilishlarini tayyorlash va o‘tkazish, kuzatuv kengashining faoliyati, axborotni ochib berish, dividend siyosati va boshqalar bilan bog‘liq korporativ boshqaruv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qat’iy harakatlardan manfaidor.

Aksiyadorlik jamiyatлari korporativ boshqaruv uslubiy masalalariga jiddiy e’tibor qaratishi, kompaniyalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va turli manfaatdorlar turli manfaatlarining muvozanatini ta’minlovchi samarali echimlarni topishi zarur. Muallifning fikricha, korporativ boshqaruv muammolarini dolzarblashtirishning asosiy sabablari, birinchidan, davlat mulkini xususiylashtirish, ko‘p sonli aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishi bilan va, ikkinchidan, integratsiya jarayonlarini amalgalashda erkinlikning yuqori darajasiga erishish, mulkchilik va iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq korxonalarни jadal shakllantirish bilan bog‘lanadi.

Shu bilan bir paytda, oxirgi yillarda korporativ boshqaruvning uni faqat turli manfaatdor guruhlar (aksiyadorlar, jumladan, yirik va minoritar aksiyadorlar, aksiyalar egalari, davlat organlari) manfaatlarining muvozanatini belgilash bilan bog‘laydigan juda tor talqini an’anaviylashib bormoqda. Mohiyatiga ko‘ra respublikada korporativ boshqaruv deganda boshqaruv organlari va emitentlarining mansabdor shaxslari, bunday emitentlarning qimmatli qog‘ozlari egalari (aksiyadorlar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar egalari), shuningdek, u yoki bu darajada emitent tomonidan yuridik shaxs sifatida jalb etilgan boshqa manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini tushunish lozim. Bunda asosiy e’tibor bu munosabatlarning aksiyadorlik jamiyatлari faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq kompaniya rahbar tarkibi; yollanma hodimlar; yirik aksiyadorlar, ovoz beruvchi aksiyalar yirik paketi egalari; kam sonli aksiyalarga egalik qiluvchi minoritar aksiyadorlar; kompaniyaning boshqa qimmatli qog‘ozlar egalari; kompaniya kreditlari; davlat hukumati organlari kabi qatnashchilariga qaratiladi.

Metodologik jihatdan esa baribir korporativ boshqaruv mohiyatini aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini asoslab beradigan barcha (ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, iqtisodiy va ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy) omillarni aks ettirib, shuningdek, ko‘p hollarda zamonaviy korporatsiyalar bu— o‘z manfaatlariga ega yuridik shaxslar yig‘indisi (“biznes-guruhlar”, “integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar”) ekanligini hisobga olib talqin qilgan afzalroq.

Shunday qilib, fikrimizcha, O‘zbekistonda korporativ boshqaruv o‘zaro aloqa qiluvchi xo‘jalik subyektlari o‘rtasida o‘z manfaatlarini uyg‘unlashtirish, aksiyadorlik kapitalidan foydalanish, turli yuridik shaxslarning samarali tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha boshqaruv munosabatlari tizimini ham, ularning ko‘yilgan maqsadlarga erishishdan tashqi kontragentlar (jumladan, davlat organlari) bilan o‘zaro munosabatlarini ham ifodalaydi. Samarali boshqaruv munosabatlarini amalga oshirish bo‘yicha korporativ boshqaruv asosiy organi sifatida namoyon bo‘ladigan kuzatuv kengashining asosiy funksiyasi aksiyadorlik jamiyatni faoliyatining strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni shak- shubxasiz amalga oshirish hisoblanadi.

Yirik korporativ birlashmalar samarali faoliyat ko‘rsatishining, demak, ularning aksiyadorlari turli darajadagi menejmentga munosabatining asosiy masalasi integratsion o‘zaro aloqalarning sinergik samarasiga erishish hisoblanadi. Bunda sinergiya mavjudligining isboti bo‘lib, mulk egalari va korporatsiya menejmenti o‘rtasida mojaroli vaziyatlarning yo‘qligi xizmat qiladi. Sinergiyani ta’minlashdagi eng murakkab nozik jihatlar bozorlarda xulq-atvor algoritmlariga ishlov berish, xususiy manfaatlarning tanlab olingan korporatsiya strategik yo‘nalishiga bo‘ysunish mexanizmlarini topish, korporatsiyaning kuzatuv kengashi tomonidan boshqaruv qarorlari qabul qilishda markazlashuv va nomarkazlashuvning oqilona nisbatini aniqlash bilan bog‘liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruv mohiyatining ushbu talqinida qo‘shma faoliyat sinergiyasi salohiyati va mulkchilik masalalarini integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar shakllantirish bosqichidayoq qo‘yish ko‘zda tutiladi: bunda boshqaruv funksiyalarning barcha xilma-xillagini korporatsiyaning

ayrim qatnashchilari tomonidan ham, ularning birligidagi loyiha va manfaatlarini amalga oshirish sifatida ham ko'rib chiqish lozim.

### **Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari:**

- 1.Davlat korporativ boshqaruvda qanday ishtirok etadi.
2. Davlat korxonalarini va davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish bo'yicha jahon amaliyotida eng keng tarqalgan modellar.
3. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning asosiy tamoyillari.
4. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning modellari.
5. Boshqaruv kompaniyasining asosiy maqsadi.
- 6.Davlat vakilining aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi qanday.
7. Davlat aksiyalar paketlarini boshqarishning maqsadlari.

### **Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 32.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 2008. – 260 b.
33. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.
34. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.

35. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **10.bob. KORPORATIV BOSHQARUVDA NAZORAT**

**Reja:**

**10.1.Taftish komissiyasi faoliyati va uning huquq va majburiyatları**

**10.2. Tashqi auditorlik faoliyati va uning huquq va majburiyatları**

**10.3. Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari**

**Tayanch iboralar: Taftish komissiyasi, Tashqi auditorlik tashkiloti, ichki audit xizmati, moliya-xo‘jalik faoliyati**

**10.1.Taftish komissiyasi faoliyati va uning huquq va majburiyatları**

Taftish komissiyasi korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qiladi.

Taftish komissiyasi a’zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadi.

Taftish komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, AJ ustaviga, Nizomga va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadigan hamda taftish komissiyasi va uning a’zolari faoliyatiga taalluqli bo‘lgan O‘zRVBning boshqa ichki me’yoriy hujjatlariga amal qiladi.

Taftish komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi. Ovoz berish taftish komissiyasi a’zoligiga har bir nomzod bo‘yicha alohida o‘tkaziladi. Aniq shaxsni taftish komissiyasi tarkibiga kiritish to‘g‘risidagi qaror AJning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo‘lgan, yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Taftish komissiyasi tarkibiga kamida uch kishi kiradi. Taftish komissiyasi a’zolari miqdori toq bo‘lishi kerak.

Ayni bir shaxs O‘zRVBning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

Taftish komissiyasi a’zolari bir vaqtning o‘zida O‘zRVB Kuzatuv kengashining (keyingi o‘rinlarda – Kuzatuv kengashi) a’zosi bo‘lishi, shuningdek AJda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlashi mumkin emas.

Taftish komissiyasi o‘z tarkibidan rais va kotibni saylaydi.

Taftish komissiyasi raisi majlislarni chaqiradi va o‘tkazadi, taftish komissiyasining joriy ishini tashkil qiladi, Kuzatuv kengashi majlislarida, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishida uning nomidan vakil bo‘ladi, Komissiya nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

Taftish komissiyasi kotibi majlislar bayonnomalari yuritilishini tashkil etadi, taftish komissiyasi xulosalarini tegishli manzillarga yetkazadi, komissiya nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

Ajning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining, Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoki ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo‘li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Taftish komissiyasining yozma talabiga ko‘ra AJning mansabdor shaxslari AJning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etadi.

Taftish komissiyasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqirishni talab qilishga haqlidir.

### **taftish komissiyasi funksiyalari**

Taftish komissiyasining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- AJning moliyaviy hujjatlarini tekshirish;
- AJ nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish;
- yuritilayotgan buxgalteriya va statistika hisobining me’yoriy qoidalarga muvofiqligini tahlil qilish;
- AJning moliyaviy holatini, uning to‘lov qobiliyatini, aktivlarning likvidligini tahlil qilish, O‘zRVBning iqtisodiy holatini yaxshilash bo‘yicha O‘zRVB boshqarish organlariga tavsiyalar ishlab chiqish;

- to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida budjetga to‘lanishini, dividendlarni hisoblash va to‘lashni, boshqa majburiyatlarning bajarilishini tekshirish;
- soliq organlari, davlat statistika organlari va qonunchilikka muvofiq boshqa organlarga taqdim etiladigan O‘zRVB buxgalteriya balanslari, hisobotlari to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish;
- Kuzatuv kengashi yoki Ijroiya organi tomonidan qabul qilingan qarorlarning O‘zRVB ustaviga, Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizomga va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlariga muvofiqligini tekshirish;
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlari qarorlarini tahlil etish, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me’yoriy hujjatlaridan tafovut qilgan taqdirda ularni o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish.

### **Taftish komissiyasining huquq va majburiyatları**

. Taftish komissiyasi o‘z funksiyalarini tegishlicha bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga egadir:

- AJ ijroiya organidan komissiya ishi uchun zarur bo‘lgan barcha materiallar va olish;
- AJning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida aniqlangan xatolarni hal qilish AJ boshqaruv organlarining vakolatiga kirgan hollarda, vakolatli shaxslardan Kuzatuv kengashi, navbatdan tashqari aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirishni talab qilish;
- AJ xodimlaridan, shu jumladan istalgan mansabdor shaxslaridan, taftish komissiyasi vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha tushuntirishlar olish;
- qonunchilik hujjatlari va AJning ichki me’yoriy hujjatlari talablarini buzgan AJ xodimlarining javobgarligi to‘g‘risidagi masalani AJ boshqaruv organlari muhokamasiga qo‘yish. Taftish komissiyasi a’zolari maslahat ovozi berish huquqi bilan Kuzatuv kengashi majlislarida ishtirok etishi mumkin. Tekshirishlarni o‘tkazish paytida taftish komissiyasi a’zolari tekshiruv bobiga taalluqli bo‘lgan barcha materiallar va hujjatlarni sinchiklab tekshirishga majburdirlar. Noto‘g‘ri

xulosalar uchun taftish komissiyasi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan mezonlarda javobgar bo'ladilar.

Agar unga berilgan vakolatlarning amal qilish muddati mobaynida taftish komissiyasining a'zosi unga yuklatilgan funksiyalarini bajarishini to'xtatsa, bu haqida u Kuzatuv kengashini taftish komissiyasidagi ishini to'xtatishidan bir oy oldin xabardor qilishi shart. Bu holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi eng yaqin vaqtida o'tkaziladigan majlisida taftish komissiyasining a'zosini almashtiradi.

Taftish komissiyasi o'z vakolatiga taalluqli masalalarni o'z majlislarida ko'rib chiqadi. Taftish komissiyasi majlislari tasdiqlangan reja bo'yicha, shuningdek tekshiruv yoki taftish boshlanishi oldidan va ularning natijalari bo'yicha o'tkaziladi.

Taftish komissiyasining shoshilinch qarori talab etiladigan qonunbuzarliklar aniqlangan takdirda taftish komissiyasi a'zosi komissiyaning majlisini zudlik bilan chaqirishni talab qilishi mumkin.

Unda komissiya a'zolarining kamida ellik foizi ishtirok etganda, taftish komissiyasining majlisi vakolatli, deb hisoblanadi.

Taftish komissiyasining har bir a'zosi bir ovozga ega. Taftish komissiyasining xulosalari komissiya yig'ilishida qatnashayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi. Ovozlar tengligida taftish komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Taftish komissiyasi a'zolari komissiya qaroriga rozi bo'limganlarida majlis bayonnomasida alohida fikrlarini qayd ettirishga va ularni O'zRVB boshqaruv organlari e'tiboriga etkazishga haqlidirlar.

AJning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- AJning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliliga doir baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.
- Ushbu xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.

Taftish komissiyasi AJda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va O‘zRVB ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi xulosani har chorakda Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

## **10.2. Tashqi auditorlik faoliyati va uning huquq va majburiyatları**

«Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bo‘yin tovlaganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektdan jarima undirishning yagona tartibini belgilab beradi.

1. Nizomning amal qilishi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkaziladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tatbiq etiladi.
2. Xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bo‘yin tovlashi jarima solish uchun asos hisoblanadi.

Quyidagilar:

hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilmasligi;

auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bo‘yin tovlashi deb e’tirof etiladi.

Jarima qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi. Bunda xo‘jalik subyektining oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlarining yigirma foizidan ortiq bo‘lgan yalpi jarima xo‘jalik subyektiga jarima solish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab undiriladigan summani olti oy mobaynida har oyda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi berilgan holda undirib olinadi.

3. Jarima stavkalari tabaqalashtirilgan va majburiy tekshiriladigan xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobot yili oxirida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi tushumi miqdoriga qarab belgilanadigan miqdorlarda undirib olinadi.

### **4-jadval**

Jarima miqdori*	Bir yilda mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS ham shu jumagara kiridi)**
-----------------	---

Eng kam oylik ish haqi miqdorining 50 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravarigacha
Eng kam oylik ish haqi miqdorining 75 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravaridan 15 ming baravarigacha
Eng kam oylik ish haqi miqdorining 100 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 15 ming baravaridan ortiq

### **Jarima miqdorini aniqlashda eng kam oylik ish haqining jarima solish to‘g‘risida<sup>17</sup>**

\* Jarima miqdorini aniqlashda eng kam oylik ish haqining jarima solish to‘g‘risida qaror chiqarilgan sanadagi miqdoridan foydalaniladi.

\*\* Budgetdan tashqari va xayriya jamg‘armalari uchun yalpi tushum deganda amaldagi tushumlar, shu jumladan a’zolik badallari tushuniladi.

9. To‘lanadigan jarimalar to‘liq miqdorda tegishli mahalliy budgetiga o‘tkaziladi.

### **Tashqi auditorlik faoliyati tashkil etish xususiyatlari**

Tashqi auditorlik faoliyati tashkil etish «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» va «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilab beradi.

Auditorlik faoliyati auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshiriladi, auditorlik tashkilotlarining kasb xizmatlari ko‘rsatishlari bundan mustasno.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalashni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — litsenziyalovchi organ deb ataladi) amalga oshiradi.

Auditorlik tashkilotining arizasiga ko‘ra litsenziya auditorlik tekshiruvlarining quyidagi turlarini amalga oshirish uchun beriladi:

faqat o‘z tashabbusiga ko‘ra auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga;

xo‘jalik subyektlarini o‘z tashabbusiga ko‘ra va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug‘urta tashkilotlari bundan mustasno;

<sup>17</sup> “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni

barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarni auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga. Litsenziyalovchi organning auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish, berishni rad etish, uning amal qilishini tugatish, uning amal qilishini o‘n ish kunidan ortiq bo‘limgan muddatga to‘xtatib turish yoki litsenziyaning amal qilishini tiklash, shuningdek uni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

### **Tashqi auditorlik tashkilotiga nisbatan qo‘yiladigan litsenziya talablari va shartlari**

Quyidagilar auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

- «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, auditorlik faoliyati standartlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- litsenziya olinayotganda va auditorlik faoliyati amalga oshirilayotganda mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda to‘liq shakllantirilgan ustav kapitaliga ega bo‘lish;
- faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;
- auditorlik tashkiloti mas’uliyatini sug‘urta qilish polisiga ega bo‘lish;
- auditor tomonidan auditorlik faoliyatini faqat bitta auditorlik tashkilotida amalga oshirish;
- shtatda auditorlar sonining mazkur Nizomda nazarda tutilgan miqdorda bo‘lishi;
- litsenziya turiga muvofiq shtatdagi auditorlarda xalqaro buxgalter sertifikatining bo‘lishi;
- auditorlik tekshiruvi o‘tkazish chog‘ida olingan axborotning sir saqlanishini ta’minlash;
- auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat ushbu auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorni tayinlash;
- auditorlik tashkiloti rahbarining uch yilda bir marotaba litsenziyalovchi organda attestastiyadan o‘tishi;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta'minlash;
  - auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq auditorlik hisoboti tuzish va auditorlik xulosasi berish;
  - auditorlik tashkilotlarida ichki standartlarning mavjudligi;
  - o‘z pochta manzili o‘zgargani to‘g‘risida litsenziyalovchi organni 10 kun muddatda xabardor qilish;
  - auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir yilda bir marta, belgilangan shaklda litsenziyalovchi organga taqdim etish, shuningdek auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa axborotlarni litsenziyalovchi organ talabi bo‘yicha taqdim etish;
  - auditorlar ishlari sifatining nazoratini ta’minlash;
  - auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o‘tishini ta’minlash;
  - auditorlik tashkiloti rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o‘zgarganligi to‘g‘risida litsenziyalovchi organni 5 kun muddatda xabardor qilish;
- auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklowlarga rioya qilish.

### **10.3. Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 27-sentabrdagi PQ-475-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mldr. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda, shuningdek aktivlarning balans qiymati eng kam oylik ish haqining yuz ming baravaridan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil etishga qo‘yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilaydi.

Korxonalarda qabul qilingan Nizom talablariga ko‘ra tijorat banklariga va budjet tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

**Ichki audit** — korxona boshqaruving ijro etuvchi organi va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta’sis

hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo‘li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchlilagini ta’minalash, xo‘jalik operastiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish prinstiplari joriy etilishi bo‘yicha korxona tarkibiy bo‘linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati;

**ichki audit xizmati** — mazkur Nizom talablari hisobga olingan holda korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linmasi.

### **Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari**

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta’minalash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo‘yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

4. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq mazkur Nizomning 12-bandida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tegishli tekshirishlar o‘tkazish yo‘li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo‘yicha);

tuziladigan xo‘jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o‘tkazish;

buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo‘linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha maslahatlar berish;

texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o‘tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi

kengashiga ko‘maklashish.

## **Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari**

### **Ichki audit xizmatining huquq va majburiyatlari**

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga egadir:

ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo‘ladigan masalalar bo‘yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma’lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxona mansabdor va mas’ul shaxslaridan og‘zaki va yozma tushuntirishlar olish;

ichki auditni o‘tkazishga ko‘maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalg etish.

Ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:

ichki auditni amalga oshirishda mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

Korxona Nizomining 13—18-bandlarida belgilangan talablarga muvofiq hisobotlar tuzish;

moliya va statistika hisoboti ko‘rsatkichlarining ishonchlilagini tekshirish;

ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;

korxonaga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar yetkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol korxonaning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

aktivlarni xatlovdan o‘tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va korxonaning ta’sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **Ichki audit xizmatiga qo‘yiladigan talablar**

Ichki audit xizmati xodimlari oxirgi o‘n yilning kamida ikki yilda buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy (shu jumladan o‘rindoshlik bo‘yicha) ish stajiga ega bo‘lishi va quyidagi talablardan bittasiga javob

berishi kerak:

auditorning malaka sertifikatiga ega bo‘lish;

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida, yoxud O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasidagi ta’limga tengligi e’tirof etilgan xorijiy davlat ta’lim muassasasida olingan oliy iqtisodiy ma’lumotga ega bo‘lish.

Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi auditorlarning respublika professional jamoatchilik birlashmalari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

Ichki audit xizmati xodimlarining soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va vazifalarini hal etish uchun yetarli bo‘lishi kerak hamda korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan sertifikatsiyalangan ikki nafardan kam bo‘lmagan ichki auditordan iborat etib belgilanadi.

Ichki audit xizmatiga ichki auditor sertifikatiga ega bo‘lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati harajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun korxonaning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan ta’lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.

Ichki audit xizmati xodimlari korxona kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

## **Korxonalardagi ichki auditorlarning huquq va majburiyatları**

### **Ichki audit xizmatining mustaqilligi**

Quyidagilar ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari hisoblanadi:

ichki audit xizmati rahbarini va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, korxona kuzatuvchi kengashining qarorlari bo‘yicha ularga ish haqi miqdorini va boshqa to‘lovlarni belgilash;

korxona kuzatuvchi kengashiga bevosita bo‘ysunish.

Ichki audit o‘tkazishga va uni o‘tkazish natijalari bo‘yicha yig‘ma hisobot tuzishga qo‘yiladigan talablar

**Ichki audit:**

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korportiv boshqarish prinstiplariga rioxasi qilinishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘ri hisoblab chiqilishi va to‘lanishini;
- moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioxasi etilishini;
- aktivlarning holatini;

ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo‘li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxona ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o‘tkazishning boshqa yo‘nalishlari belgilanishi mumkin.

13. O‘tkazilgan tekshirishlar natijalari bo‘yicha bevosita uni o‘tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi.

Bunda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

uning bajarilishining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tahlili;

uning bajarilishi ta’milnagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko‘rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;

b) korporativ boshqarish prinstiplariga rioxasi qilishni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

korxona boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning qatnashchilari (muassisalar)ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioxasi etilishi tahlili;

korporativ boshqarish sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiyligining yig'ilishlar va korxona boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);

v) korxonaning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

    buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

    aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

    tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riliqini baholash;

    soliqlar va majburiy to'lovlarini hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;

d) moliya-xo'jalik operastiyalarini amalga oshirishda korxona tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

    korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operastiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

    ichki audit davomida aniqlangan korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operastiyalarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligini bayon qilish;

e) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

    ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

    korxona tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda korxona ijro etuvchi organi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

14. O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, korxona Nizomining 12 va 13-bandlariga muvofiq, ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.

15. Yig'ma hisobot:

- tahliliy qismni;
- yakuniy qismni;
- tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.

16. Yig'ma hisobotning tahliliy qismi korxona Nizomining 12 va 13-bandlariga muvofiq, ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

### **Mustaqil ishslash uchun nazorat savollari:**

1. Taftish komissiyasi faoliyati va uning huquq va majburiyatlarini nimalardan iborat?
2. Tashqi auditorlik faoliyati va uning huquq va majburiyatlarini nimalardan iborat?
3. Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari tushuntirib bering?
4. Korxonalardagi ichki auditorlarning huquq va majburiyatlarini nimalardan iborat?
5. Ichki audit xizmatiga qo'yiladigan talablari nimalardan iborat?
6. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yil 28 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...

4. Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruв asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.

5. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruв va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.

6. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.

7. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **11-bob. LISTING KOMPANIYALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNING ROLI**

**Reja:**

**11.1.Listing kompaniyalarini faoliyati**

**11.2.Listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli**

**11.3. Birjalar faoliyati yo‘nalishlari**

**11.4. Fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeksi.**

**Tayanch iboralar: Listing kompaniyalar, birja faoliyati, birja kotirovkasi, birja listingi, birja kotirovkasi, emitent.**

### **11.1.Listing kompaniyalarini faoliyati**

Birjaning kotirovkalash varag‘i. Tovarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish

Dastlabki ko‘zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko‘rsatkichlari o‘zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo‘yilgan muayyan turdagи tovarlar ro‘yxati birjaning kotirovkalash varag‘idir.

Tovarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o‘z ichiga oladi, qimmatli qog‘ozlar bundan mustasno:

tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish;

tovarning ushbu Qonunning 10-moddasi va mazkur moddaning birinchi qismi talablariga muvofiqligini tekshirish;

tovarning likvidliligini baholash;

tovarni birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritish va uni birja a’zolariga etkazish.

Qimmatli qog‘ozlarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartib-taomillarni o‘z ichiga oladi:

qimmatli qog‘ozlar emitentining o‘z qimmatli qog‘ozlarini birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish;

qimmatli qog‘ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash;

qimmatli qog‘ozlarning likvidlilagini baholash;

qimmatli qog‘ozlarni birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritish va uni birja a’zolariga etkazish.

Birjaning kotirovkalash varag‘iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo‘yilgan hisoblanadi.

Chet el valyutasi va davlat qimmatli qog‘ozlari birjaning kotirovkalash varag‘iga tovari birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisiz kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida korxonalarni aksionerlashtirish jarayonida joriy etiladigan korporativ menejment usullari avval-boshidanoq quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zлади:

- korxonalar faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarini boshqaruv sohasida ularning mustaqilligini ta’minalash hisobiga yaxshilash;
- milliy moliya bozorining (kapital, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk bozorlari) turli bo‘g‘inlarini rivojlantirish hamda aholining korxonalar kapitalidagi ishtirokini kengaytirish;
- ichki bozorni turli mahsulotlar bilan to‘ldirish va mahalliy korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish maqsadida raqobatdosh bozor muhitini yaratish;
- korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Ko‘rsatib o‘tilgan maqsadli tamoyillarning aksariyati Aksiyadorlik korxonalar ishi amaliyotida muvaffaqiyatli joriy etilmoqda, ammo bu jarayon yanada tizimli yondashuvni taqozo etadi. Aks holda, korporativ boshqaruv usullarining joriy etilishi jilovlanib, ko‘pchilik aksiyadorlarda ularning asl salohiyati haqida noto‘g‘ri fikr paydo bo‘лади.

Korporativ boshqaruvning vazifalariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- Aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- Aksiyadorlik jamiyatları investitsion jozibardorligini oshirish;
- Aksiyalar narxining o‘sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymatning jamg‘arilishi;
- jamiyatning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;

-Aksiyadorlik jamiyatlari biznes - rejalarini tasdiqlash va ular bajarilishini nazorat qilish va faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Korporativ boshqaruv tizimi - Korporatsiya o‘z aksiyadorlari manfaatlarini ifodalashi va himoya qilishi lozim bo‘lgan tashkiliy modelni ifodalaydi. Bu aksiyadorlar, direktorlar kengashi, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlarning (xodimlar, kreditorlar, mahalliy hukumat, jamoat tashkilotlari) o‘zaro aloqa tizimi bo‘lib, undan maqsad amaldagi qonunchilikka rioxha qilib, xalqaro andozalarga muvofiq foydani oshirish hisoblanadi.

## **11.2. listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli**

1992-yil Kedberi qo‘mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo‘yicha kodeksi nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993-yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi.

1994 - 1998 yillardagi korxonalarni xususiylashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlari to‘g‘risida qonun, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investitsion fondlar, depozitarilar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalar, qo‘shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

1998 - 2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning etishmasligi, kapitalning O‘zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko‘rib chiqila boo‘landi. Bularning barchasi hissadorlarning o‘z huquqini anglab etishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya’ni korporativ kodeks, hissadorlik to‘g‘risidagi, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunlar bo‘yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me’yor va usullarining aprobatsiyasidan keyin keng qo‘llanila boshlandi.

### **11.3. Birjalar faoliyati yo‘nalishlari.**

Birja — oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtida, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs.

Birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi.

Birjalar o‘z faoliyatini tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjasи turida amalga oshiradi.

Birjaning firma nomida «birja» so‘zi bo‘lishi kerak.

Ushbu Qonun talablariga javob bermaydigan yuridik shaxs o‘z firma nomida «birja» so‘zidan, undan hosil bo‘lgan so‘zlardan va so‘z birikmalaridan foydalanishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Birjalar belgilangan tartibda litsenziya olganidan keyin birja faoliyatini amalga oshirish huquqini qo‘lga kiritadi.

Birja ustavida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

birjaning to‘liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili;

birja ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;

birja tomonidan chiqariladigan aksiyalarning soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);

birja boshqaruvining tuzilmasi, birja kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a’zolari soni, ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Birja ustavida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin.

Birja aksiyadorlarining umumiyligi yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi birjaning boshqaruv organlaridir.

Birja aksiyadorlarining umumiyligi yig‘ilishi birjaning kuzatuv kengashini (bundan buyon matnda birja kengashi deb yuritiladi) saylaydi.

Birja kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

birjani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

birja savdosi qoidalarini tasdiqlash;

birja a’zoligiga qabul qilish, a’zolikni to‘xtatib turish, tugatish tartibini tasdiqlash;

birja faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalarning miqdorlarini va ularni undirish tartibini belgilash;

a’zolik badallarining va birja tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning miqdorini belgilash;

tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta’minlash fondini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibini tasdiqlash.

Birja kengashi qonun hujjatlariga va birja ustaviga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **11.4. Fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeksi.**

1992 – 2003 yillarda korporativ boshqaruv bo‘yicha qator ma’ruzalar qabul qilindi, shundan asosiyлари:

- 1) Angliyada Rutmanning moliyaviy hisobot va ichki nazorat haqidagi ma’ruzasi;
- 2) Korporatsiyalar ishtirokchilarining har tomonlama hisobi haqidagi Kinganing ma’ruzasi;
- 3) Angliyalik Grinberining yuqori mansab shaxslarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi ma’ruzasi;
- 4) Angliyalik Xempelaning korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi ma’ruzasi;
- 5) Fransiyalik Venoning korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari haqidagi ma’ruzasi;
- 6) Niderlandiyalik Pitersning korporativ boshqaruvning umum qabul qilingan andozalariga rioya qilmaslik va javobgarlik haqidagi ma’ruzasi;
- 7) AQSHda Sarbeyns - Okslining moliyaviy ekspertlarning auditи bo‘yicha qo‘mita tarkibini aniqlash bo‘yicha qonuni;

8) Angliyalik Xiggsning ish faoliyatini bajara olmayotgan direktorlar haqidagi ma’ruzasi.

O‘zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:

1. 1980 – 1985 - yilgacha mavjud bo‘lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya’ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy halotining rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi.

2. 1987 - 1991 yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarning qatnashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug‘urta sektori rivojlanishiga yo‘l ochildi.

3. 1991 - 1994 yillarda – xususiylashtirish jarayoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatları shakllandı, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko‘rsatib berilmadi.

4. 1994 - 1998 yillardagi korxonalarni xususiylashtirish davri. Hissadorlik jamiyatları to‘g‘risida qonun, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandı, birlamchi investitsion fondlar, depozitarilar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalar, qo‘shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

5. 1998 - 2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning etishmasligi, kapitalning O‘zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko‘rib chiqila boshlandi. Bularning barchasi hissadorlarning o‘z huquqini anglab etishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya’ni korporativ kodeks, hissadorlik to‘g‘risidagi, qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunlar bo‘yicha, shuningdek, jahon

amaliyotida sinalgan me'yor va usullarining aprobatsiyasidan keyin keng qo'llanila boshlandi.

6. 2002-yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to‘g‘risidagi kodeksi, korporativ boshqaruv bo‘yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan joriy etilishi ta’milanmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksioner jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakalotlariga aniqliq kiritib beradi.

7.O‘zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institutsional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izoxlanadi:

8.davlatning korxonalarini xususiylashtirish va ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlashga qaratilgan choralar;

9.davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish shaklida davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni, emissiya ko‘lamlarini kengaytirish va ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish;

10.korxonalar aksiyadorlari huquqlarini davlat va uning vakolatli idoralari tomonidan himoya qilinishining mustahkam qonunchilik va institutsional bazasini yaratish

### **Mustaqil ishslash uchun nazorat savollari:**

1. Listing kompaniyalarini faoliyati nimalardan iborat?
2. Listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli nimalardan iborat?
3. Birjalar faoliyati yo‘nalishlari tashkil etish xususiyatlari tushuntirib bering?
4. Fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeksi nimalardan iborat?
5. Birja kotirovka varag‘iga kiritilgan tovarlarga quyilgan talablar nimalardan iborat?
6. Birja listingi asosiy vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat?

### **Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekistan Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yil 28 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...
8. Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruв asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.
9. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruв va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.
10. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
11. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## **12.-bob. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish**

**Reja:**

**12.1. “Korporativ boshqaruv risklari” tushunchasi va uning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyati.**

**12.2. Risklarning tasniflanishi va uning turkumlari.**

**12.3. Korporativ boshqaruvda risklarni aniqlash usullari.**

**12.4. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo‘llari.**

**12.5. Korporativ boshqaruvda investitsion loyihalarda risklarni baholashning matematik usullari.**

**Tayanch iboralar: risk, noaniqlik, kutilmagandagi holat, xatar, investitsion risk, riskni aniqlash, riskni baholash, omillar.**

### **12.1. “Korporativ boshqaruv risklari” tushunchasi va uning investitsiya faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyati.**

Mamlakatimizdagi korporativ tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalg etish ma’lum darajada uch guruh omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchidan, investitsiya quvvatining mavjudligiga. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste’mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiqtisodiy, bozor, me’yoriy-huquqiy, axborot bilan ta’milish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar kiradi.

Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo‘yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, yetarli darajada jalg qiluvchi bo‘limgan investitsiya sharoitlari, hatto, yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

O‘tish iqtisodida bo‘lgan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha

sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun investitsiya riski riskning muhim turlaridan biridir. SHuning uchun ham riskni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Investitsion loyihalar kelajakka tegishli bo‘lganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo‘lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo‘lgan oqibatlarga ega bo‘lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega deb ataladi.

Riskni ma’lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo‘qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo‘sishimcha harajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Risk - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo‘lib qolish ehtimolidir.

Loyiha riski - bu investitsion loyihani amalga oshirishga halaqt beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig‘indisidir.

Risk, boshqacha qilib aytganda, kutilishi mumkin bo‘lgan xatar -bu investitsiyadan mo‘ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo‘lgan noumidsizlikdir. SHu bilan birga potensial investor tomonidan qo‘yilgan pul mablag‘larini yo‘qotish mumkinligi hamdir.

Risk tushunchasiga juda ham yaqin bo‘lgan noaniqlik tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u riskning aniq turlarini tasniflash uchun "risk" atamasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Noaniqlik deganda, investitsion loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma’lumotlarni to‘la yoki aniq emasligi tushuniladi. Masalan, inflyasiya haqidagi, texnika va texnologiyalardagi o‘zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, obyektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, harajat va natijalarning noto‘g‘ri hisob-kitobi kabi ma’lumotlarning to‘la yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik kelib chiqadi. Bundan tashqari noaniqlik deganda, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatga etorlicha baho bermaslik va boshqa shu kabilar tushuniladi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog‘liq ko‘ngilsiz holatlar va oqibatlar noaniqligi risk tushunchasi bilan izohlanadi.

## **12.2. Risklarning tasniflanishi va turkumlanishi.**

Investitsion rivojlanishga quyidagilar ta’sir ko‘rsatadi: siyosiy, ijtimoiy, savdo va ishga aloqador muhitdagi ko‘pgina o‘zgarishlar; texnika-texnologiyadagi, mehnat unumdarligi va baholardagi o‘zgarishlar; atrof-muhit holati; amaldagi soliqqa tortish, huquq bo‘yicha va boshqalar bo‘yicha muammolar ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi loyihalarda aniq riskning mavjudligini - loyihani muvaffaqiyatsizlikka uchrash xatarini yoki foydani o‘rniga zarar olishi mumkinligini oldindan aniqlab beradi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk - bu bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki bo‘lmaydigan hodisa. Agar bu ijobiy hodisa bo‘lsa (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (harajatlar, zarar, yo‘qotish) natija bo‘lishi yoki hech qanday natija bo‘lmasligi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalar risk darajasini baholashni, uning miqdorini aniqlashni va uni kamaytirish chora-tadbirlarini qo‘llashni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga o‘z sarmoyasini kiritayotgan investor nuqtai-nazarida, shu mamlakatdagi holat, vaziyat investitsion muhit deb ataladi. Investitsion muhit bir qator risk omillarini o‘z ichiga oladi. Bu omillar rivojlanish istiqbollari, ichki va tashqi shart-sharoitlar va vaziyat ta’siri ostida vujudga keladi. Ko‘p hollarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holat va uning rivojlanish istiqbollariga qarab ijtimoiy-siyosiy, ichki va tashqi risklar taxmin qilinadi.

Investitsiya loyihasini risklarini tasnifini turli tizimlari mavjud.

Birinchidan, loyiha faoliyatining bosqichlari va fazalari bo‘yicha tasniflash: investitsiyalash oldi fazasidagi, investitsiyalash fazasidagi, ishlab chiqarish fazasidagi risklar.

Ikkinchidan, loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun risk tahdidlariga ta’sir etishning imkoniyatlarini mezonlari bo‘yicha tasniflash. Shu nuqtai-nazar bo‘yicha riskni: ichki va tashqi risklarga ajratish mumkin. Tashqi risklarga siyosiy risklar va

fors-major risklari kiradi. Fors-major riskiga tabiiy ofatlar: yong‘in, suv toshqini, qurg‘oqchilik kabilar kiradi. Tashqi risklar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida mavjud.

Uchinchidan, riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash:

Sug‘urtalanadigan risklar;

Sug‘urtalanmaydigan risklar.

Sug‘urtalanadigan risklar o‘z navbatida:

➤ kafolat;

➤ sug‘urta;

➤ zahira fondi hisobiga qoplanadigan risklarga bo‘linadi.

Bundan tashqari, loyiha faoliyatining haqiqiy amaliyotiga asoslangan, eng ko‘p uchraydigan risklar ham bo‘lib, ularga loyiha ishtirokchilari e’tibor bersalar ham, hech bir guruhash mezoni doirasiga kirmaydigan risklar ham mavjud. Ular:

- ✓ Iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o‘zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog‘liq risklar;
- ✓ tashqi iqtisodiy risklar-savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish, chegaralarning berqilishi va shu kabi ehtimolliklar riski;
- ✓ siyosiy holatning noaniqligi, hududdagi yoki mamlakatdagi noma’qul ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar riski;
- ✓ texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi yoki noaniqligi;
- ✓ bozor kon’yunkturasining, ya’ni aniq davrdagi iqtisodiyotning joriy holatini harakterlovchi belgilar, masalan, baho, valyuta kurslari, yalpi ichki mahsulot va boshqalarning o‘zgarib turishi;
- ✓ tabiiy iqlim sharoitlarining, tabiiy ofatlar ehtimolining o‘zgarib turishi;
- ✓ ishlab chiqarish texnik risklari-asbob-uskunalarning buzilishi va to‘xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi brak va boshqalar;
- ✓ loyiha ishtirokchilarining o‘zlarini tutishlari, qiziqishlari, maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro‘sni haqidagi

ma'lumotlarning to'liq emasligi, noaniqligi.

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va loyihaning ayrim turlari bo'yicha risklar bo'lishi mumkin. Masalan, konchilik va neft-gaz qazib chiqarish sanoatida geologik riskka, ya'ni zahiralarni to'g'ri baholash riskiga alohida e'tibor beriladi. Kimyo sanoati, kon qazib olish, qora va rangli metollurgiya loyihalarida ekologik riskka katta e'tibor beriladi.

### **12.3. Korporativ boshqaruv tuzilmalar faoliyatida risklarini aniqlash usullari.**

Tavakkalchiliklarning mavjud bo'lishi yechimlarning ehtimol tutilgan variantlaridan birini tanlash zaruratiniz nazarda tutadi, shu munosabat bilan bunday echimlarni qabul qilish jarayonida butun ehtimol tutilgan muqobil variantlar tahlildan o'tkaziladi, ularning ichidan eng rentabellisi va tavakkalchilik darajasi past bo'lgani tanlanadi. Tavakkalchilikning aniq vaziyatlari turli murakkabllilik darajasiga ega bo'ladi va shu bilan bog'liq tanloving muqobilligi turli usullar bilan hal qilinadi. Eng oddiy vaziyatlarda intuitsiyaga va o'tmishdagi tajribaga asoslanadigan o'ziga xos ekspertlik bahosini yo'nalish qilib olish mumkin. Lekin u yoki boshqa murakkab ishlab chiqarish vazifasining optimal hal etilishi zarurligi, masalan, investitsiyalarni sarflash variantini tanlash tavakkalchiliklarni tahlil etishning maxsus uslublarini qo'llanishni taqozo etodi.

Shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, u yoki boshqa loyiha tavakkalchiligini amalga oshirishda kelib chiqadigan oqibatlar va yo'qotishlarning potensial salbiyligiga qaramasdan, tavakkalchilik o'ziga xos «taraqqiyot dvigateli», ehtimol bo'lgan foydaning manbai bo'lib hisoblanadi.

Tavakkalchiliklarga baho berish tavakkalchilik kattaligini (darajasini) belgilashdan iborat bo'ladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda loyiha tavakkalchiliklarini baholashning yaxlit bir nazariyasi yo'q. Ehtimol, buning sababi har qanday nazariyaning amaliyotning umumlashuvi bo'lib hisoblanadigan konsepsiya asoslanishida bo'lishi mumkin, mamlakatimizdagi bozor sharoitidagi investitsiya faoliyati amaliyoti esa hozircha etorli shakllanmagan.

Raqobatchilik – bozor iqtisodiyotining majburiy belgisi – tadbirkorni noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishga majbur etodi, chunki bunday iqtisodiy tizimda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hech biri ham boshqalarning qanday qaror qabul qilishini oldindan bilmaydi; oldga qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga to‘sinqlik qiladigan yana bir qator boshqa ichki va tashqi omillar ham mavjud, buning ustiga, agar qaror tashqi muhitning ahvoli oldindan aytib beradigan holatda bo‘lmaganida yoki tez o‘zgaradigan holatlarda qabul qilingan tarzda ham yaqqol bir xildagi tanlov bo‘lgani bilan ham noaniqlik kelib chiqishi mumkin.

Tavakkalchilik muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda tavakkalchilikni miqdoriy baholash mezonini belgilashga nisbatan bir necha yondashuvlar uchraydiki, quyidagilar ularning asosiyлари hisoblanadi:

- statistik baholash uslubi;
- ekspertlik baholash uslubi;
- o‘xshashliklar uslubidan qo‘llanish;
- kombinatsiyalashgan uslub.

Investitsiya loyihasi tavakkalchiliklarini miqdoriy baholashning bir qator vositalari matematik statistika uslublariga – dispersiya, standartli og‘ishish, variatsiya koeffitsientiga asoslanadi. Statistik uslub nafaqat muayyan loyihaning, shu bilan birga umuman korxonaning muayyan muddat davomidagi (uning daromadlari dinamikasini tahlil qilib) tavakkalchiligini baholashga imkon beradi. Tavakkalchiliklarni baholashning ushbu uslubi afzalliklariga matematik hisobkitoblarning murakkab emasligini, uning kamchiliklariga esa – ko‘p sonli kuzatuvlardan qilinishi (ma’lumotlar hajmi qanchalik katta bo‘lsa, tavakkalchiliklarni baholash shunchalik ishonchliroq bo‘ladi) lozimligini kiritish kerak bo‘ladi.

#### **12.4. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo‘llari.**

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan riskni boshqarish bosqichlari va riskni baholash usullari yordamida risk sababli bo‘ladigan yo‘qotishlarni pasaytirish, ular bilan bog‘liq ko‘ngilsiz oqibatlarni kamaytirish quyidagi usullari qo‘llaniladi.

Loyihalarni moliyalashtirishda riskni taqsimlash usullari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kafolatlar; harid haqidagi forward kelishuv; ishlab chiqarish to‘lovleri; xedjirlashtirish, sug‘urta va svoplar.

Odatda, kafolat beruvchi tomonlar sifatida yoki loyiha egalari-homiylar yoki manfaatdor tomonlar bo‘lishi mumkin.

Loyiha egalari-homiylar. Davlat, sho‘ba korxonalarini nazorat qiladigan kompaniyalar, qo‘shma korxonalardagi ichki va tashqi investorlar va boshqa egalar-homiylar loyihani ishlab chiquvchi kompaniya qarzining kafolatini berishlari mumkin. Agar kompaniya loyihani o‘z hisobidan moliyalashtirish uchun kapitali etishmasa yoki eterli tajribaga ega bo‘lmasa, kreditorlar, odatda, ushbu shakldagi kafolatni talab qiladilar.

Manfaatdor tomonlar. Bu juda muhim guruhga quyidagilar kiradi:

Uskuna va materiallarni sotuvchilar. Loyiha uchun uskuna va materiallarni sotishda, zavodni yoki uskunani ijaraga berishda manfaatdor tomonlar kafolat berishga tayyor bo‘ladilar. Masalan, o‘zida ortiqcha uskunaga ega bo‘lgan kompaniya, shu uskunaga muhtoj loyihani kafolatlashi mumkin.

Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni yetkazib beruvchilar. Mol yetkazib beruvchilar loyiha tugagandan keyin o‘zlarini bozor bilan ta’minlash uchun kafolat berishlari mumkin. Ular loyihani amalga oshish mobaynida yaratilgan yangi quvvatlarda foydalanishdan yutishlari ham mumkin.

Loyihaning yakuniy mahsulotidan foydalanuvchilar. Bular kafolat berishlari va hatto bevosita moliyalashtirishlari mumkin. Barqaror mol yetkazib berilishidan manfaatdor aniq bir xom ashyo iste’molchilarini misol qilib keltirish mumkin.

Qurilish tashkilotlari. Loyihada ishtirok etadigan pudratchilar, odatda qurilish bilan bog‘liq ishlarni bajaradilar va kelgusida buyurtma qabul qilish maqsadida kafolat berishga tayyor bo‘ladilar.

Milliy hukumat va xalqaro agentliklar. Bu tashkilotlar mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy talablari bilan qiziqadilar. Hukumat kafolatlari, loyihaning boshqa ishtirokchilari qoplay olmaydigan risklarni qoplash uchun juda zarur va shu sababli,

moliyalashtirishning yutug‘i uchun hayotiy jihatdan muhimdir.

Boshqa tomonlar. Ko‘p hollarda, yuqorida sanalganlardan tashqari, loyiha qurilishidan aniq bir daromad oladigan boshqa tomonlar ham bo‘ladi va ular kafolat berishga tayyor bo‘ladilar. Masalan, loyiha bilan bir qatorda amal qilayotgan kompaniya loyiha amaliyotida rivojlangan infratuzilmadan yutishi mumkin, shuningdek loyiha amalga oshishi natijasida milliy iqtisodiyotni rivojlanishidan ham yutishi mumkin.

Riskni taqsimlashda kafolat eng ahamiyatli usul, lekin bundan boshqa usullar ham bor. Ba’zida harid haqidagi forward kelishuv va ishlab chiqarish to‘lovlar qo‘llaniladi.

## **12.5. Korporativ boshqaruvda investitsion loyihalarda risklarni baholashning matematik usullari**

Loyihaning tahlilchisi quyidagi imkoniyatlardan birini amalga oshirishga majbur bo‘ladi:

- noaniqligi natijaning buzilishiga eng ko‘p ta’sir qilgan parametrlarni aniqlashtirish;
- javobning sezuvchanligini kamaytirish maqsadida boshlang‘ich ma’lumotlarni ishslash uslublarini o‘zgartirish;
- loyiha tavakkalchiliklari tahlilining matematik modelini o‘zgartirish;
- loyiha tavakkalchiliklarining miqdoriy tahlilini o‘tkazishdan voz kechish.

Hozirgi vaqtida matematik modellarning noaniqlikni hisobga oladigan va uni bayon qilish usullariga ko‘ra farqlanadigan quyidagi klasslari investitsiya loyihasi tavakkalchiliklarini tahlil etish uchun ko‘proq qo‘llaniladi:

- 1) stoxastik modellar;
- 2) lingvistik modellar;
- 3) nostoxastik (uyinli) modellar.

Loyiha tavakkalchiliklarini tadqiq qilish sohasidagi xorijiy adabiyotlar tahlili mavjud uslublarni va ular bilan bog‘liq modellarni quyidagi yo‘nalishlar (yondashuvlar) bo‘yicha tasniflashga imkon beradi:

A. Ehtimollilik taqsimotlarining jalb etilishiga qarab:

- 1) ehtimolliliklar taqsimotlarini hisobga olmaydigan uslublar;
- 2) ehtimolliliklar taqsimotlarini hisobga oladigan uslublar.

B. o‘zgaruvchan ko‘rsatkichning har bir alohida mohiyatini amalga oshirish ehtimolligini hisobga olish va ehtimolliliklar taqsimotlarini hisobga oladigan tahvilning butun jarayonining o‘tkazilishiga qarab:

- 1) ehtimollilik uslublari;
- 2) tanlash uslublari.

V. qurilgan model bo‘yicha natijalovchi ko‘rsatkichlarni topish usullariga qarab:

- 1) tahlilchilik uslubi;
- 2) imitatsion uslub.

Har bir stoxastik kattalik uchun uning faqat bir mohiyati olinishi A yondashuvining belgisi hisoblanadi; tavakkalchilikni ekzogen o‘zgaruvchi bilan bu tarzdagi «quyiltirish»dan maqsad – aniqlik vaziyatida hech qanday o‘zgarishlarsiz tahlil etish uchun ishlab chiqilgan uslublarni qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lishdir.

B yondashuvi uchun tuzilgan model buyicha hisob-kitoblarning natijasi natijalovchi o‘zgaruvchining alohida mohiyati emas, balki ehtimolliklarning taqsimotidan tashkil topadi.

Ehtimollilik uslublari modelning qurilishi va u bo‘yicha hisob-kitoblar ehtimollar nazariyasi tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi, deb faraz qiladi, tanlash uslublarida esa bularning hammasi tanlashlar bo‘yicha hisob-kitoblar yo‘li bilan bajariladi.

Echimlarni qabul qilishni modellashtirish uslublarining qo‘llanilishi B yondashuvining o‘ziga xos belgisidir. Bu yo‘lda maqsadli, optimallashtirilgan va bir tizimli yondashuvar ajratib ko‘rsatiladi.

Maqsadli yondashuvga modelni konstruksiyalashda maqsadlarning aniq berilishi xosdir. Maqsadga oid ko‘rsatkichlarning har qanday o‘zgarishi modelning o‘zining rekonstruksiyasiga olib boradi va yangi hisob-kitoblarni talab qiladiki, bu qo‘shimcha harajatlar bilan bog‘liqdir. Ushbu yondashuvdan shunga o‘xshagan aniq berilgan maqsadli vaziyatlarda doimiy tarzda qarorlarni qabul qilish zarur bo‘lganida

foydalaniш maqsadga muvofiq bo'лadi.

### **Mustaqil ishslash uchun nazorat savollari:**

1. "Korporativ boshqaruv risklari" tushunchasi va uning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Risklarning tasniflanishi va uning turkumlari nimalardan iborat?
3. Korporativ boshqaruvda risklarni aniqlash usullari tushuntirib bering?
4. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari nimalardan iborat?
5. Risklarni turlarini sanab bering?
6. Investitssion risklarni bartaraf etish yo'llarini tushuntirib bering?

### **Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018-yil 28-dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 12.Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 2008. – 260 b.
13. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.
14. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
15. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

## KORPORATIV BOSHQARUV-2 FANI BUYICHA TESTLAR №1

Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risidagi qonunning qaysi moddasi bag‘ishlangan?

1-modda

2-modda

3-modda

4-modda

№2

**Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish, ularning faoliyati va ularni tugatish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlar qaysi me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?**

O‘zbekiston Respublikasining AJ to‘g‘ qonun bilan

O‘zbekiston Respublikasining bankrotlik to‘g‘risidagi qonuni bilan

O‘zbekiston Respublikasining litsenziyalash to‘g‘risidagi qonuni bilan

O‘zbekiston Respublikasining raqobat to‘g‘risidagi qonuni bilan

№3

**Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subyekt**

aksiyadorlik jamiyat deb hisoblanadi

hissadorlik jamiyat deb hisoblanadi

xolding kompaniyalari hisoblanadi

moliya sanoat guruhlari hisoblanadi

№4.

**Aksiyadorlik jamiyat**

yuridik shaxs hisoblanadi

jismoniy shaxs hisoblanadi

xuquqiy shaxs hisoblanadi

yuridik va jismoniy shaxs hisoblanadi

№5 .

**Aksiyadorlik jamiyatni to‘g‘risidagi qonunga muvofiq jamiyat qanday muddatga tuziladi?**

agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi

ustavida belgilab berilgan muddatga tuziladi

agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, 10 yilga tuziladi

agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, 20 yilga tuziladi

**№6**

<b>Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab:</b>
jismoniy shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi.
davlatning imtiyozli xuquqlarini qo‘lga kiritadi.
xuquqiy shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi.
yuridik shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi.

**№7**

<b>Jamiyat belgilangan tartibda qaerlarda hisob varaqlar ochishga haqlidir?</b>
---

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan banklarda va undan tashqaridagi hududlardagi banklarda
O‘zbekiston Respublikasi hududidadan tashqaridagi banklarda
O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan banklarda
O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan banklarda va MDX mamlakatlarida

**№8**

<b>Jamiyat manzili ko‘rsatilgan yumaloq muhriga ega bo‘lishi lozim. Muhrda firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkinmi?</b>
firma nomi davlat tilida yozilishi lozim
firma nomi davlat tilida hamda boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin
lotin imlosida yozilishi lozim
faqat krill imlosida yozilishi lozim

**№10**

<b>Jamiyatning manzili qo‘yidagicha belgilanadi</b>
---

davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyga ko‘ra belgilanadi
damiyatning muhriga ko‘ra belgilanadi
tuzilgan shartnomaga ko‘ra belgilanadi
mahalliy boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi

**№11**

<b>Qimmatli qog‘ozlar rekvizitlari deganda:</b>
---

biror bir turdag‘i qimmatli kogozni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuasi tushuniladi
nobirjaviy bozorda qayd qilingan qimmatli qog‘ozlar majmuasi tushunishdi
fond birjasida qayd qilingan qimmatli qog‘ozlar majmuasi tushuniladi
fond birjasidan tashqarida qayd qilingan qimmatli qog‘ozlar majmuasi tushuniladi

**№12**

<b>Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatları yuzasidan jamiyat oldida</b>
--

javobgar bo‘ladi
javobgar bo‘lmaydi

qonun bilan belgilanmagan birgalikda javobgar buladi
---

#### №13

Agar jamiyatning nochorligi (bankrotligi) jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatidagi shaxsning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, mazkur aksiyador zimmasiga jamiyatning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda uning majburiyatlari bo'yicha

- solidar javobgarlik yuklatilishi mumkin
- javobgar emas
- subsidiar javobgar yuklatilishi mumkin
- davlatning ijtimoiy ko'magidan foydalaniladi

#### №14

**Davlat va uning organlari jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'ladimi?**

- bo'ladilar
- bo'lmaydilar
- qonunda ko'rsatilmagan
- faqat aksiyadorlar javobgar hisoblanadi

#### №15

**Jamiyat davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'ladimi?**

- bo'ladilar
- bo'lmaydilar
- qonunda ko'rsatilmagan
- faqat aksiyadorlar javobgar hisoblanadi

#### №16

**Aksiyadorlik jamiyatlarining shakllari**

- AJ
- MCHJ va QMJ
- konsternlar va konglomeratlar
- sindikat va trestlar

#### №17

**Aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarining eng kam soni**

- kamida 3ta
- kamida 5ta
- kamida 1ta
- cheklanmaydi

**№18**

**Kimlar AJ aksiyalarini sotib oladi?**

- AJ ning muassislari
- oldindan belgilangan doiradagi shaxslar
- AJning aksiyadorlari
- qonunda ko'rsatilmagan

**№19**

**Agar jamiyatga qarashli ovoz beruvchi aksiyalarning qanchasi boshqa ishtirokchi jamiyatga qarashli bo'lsa, bu jamiyat tobe xo'jalik jamiyati deb tan olinadi.**

- 10 fiozdan ziyodrog'i
- 15 fiozdan ziyodrog'i
- 20 foizidan ziyodrog'i
- 30 fiozdan ziyodrog'i

**№20**

**Investitsiya fondi – bu;**

- kupchilik kapital egalarining jamoa sarmoyalarini boshkaruvchi yuridik shaxs;
- kimmatlari kogozlarni chikarish va ularning muomilada bulishi To'g'risidagi maslaxatlar beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
- kimmatlari kogozlar bozorida mijozlar hisobidan emas, fakat uzining shaxsiy hisobidan ish yurituvchi yuridik shaxs;
- kimmatlari kogozlar bozorida mijozlar hisobidan ish yurituvchi yuridik shaxs;

**№21**

- AJda aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli xuquqdan foydalanish muddati**
- aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam bo'lishi mumkin emas.
  - aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 60 kundan kam bo'lishi mumkin emas.
  - aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 30 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.
  - aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 90 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

**№22**

**Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning qaysi moddasi bag'ishlangan?**

- 1-modda
- 2-modda
- 3-modda
- 4-modda

**№23**

**Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish, ularning faoliyati va ularni tugatish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar qaysi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?**

- |  |
|--|
| O'zbekiston Respublikasining AJ to‘g‘risidagi qonuni bilan                 |
| O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish to‘g‘risidagi qonuni bilan |
| O'zbekiston Respublikasining litsenziyalash to‘g‘risidagi qonuni bilan     |
| O'zbekiston Respublikasining raqobat to‘g‘risidagi qonuni bilan            |

**№24**

**Moliya bozorining tarkibiy kismlari;**

- |   |
|---|
| pul bozori; kimmatlari kog‘ozlar bozori; valyuta bozori |
| avtomobil bozori  |
| mehnat bozori   |
| tovar bozori  |

**№25**

**Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subyekt**

- |                                      |
|--------------------------------------|
| aksiyadorlik jamiyat deb hisoblanadi |
| hissadorlik jamiyat deb hisoblanadi  |
| xolding kompaniyalari hisoblanadi    |
| xoliyaviy sanoat guruhlari           |

**№26**

**Jamiyat qanday faoliyat turlarini amalga oshirish huquqlariga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasisiga oladi**

- |  |
|--|
| qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish bilan |
| ishlab chiqarish faoliyati bilan   |
| eksport va import bilan shug‘ullanish xuquqiga ega                                       |
| jamiyatna qayta tarkiblash xuquqiga ega  |

**№27**

**Jamiyat**

- |                                       |
|---------------------------------------|
| yuridik shaxs hisoblanadi             |
| jismoniy shaxs hisoblanadi            |
| yuridik va jismoniy shaxs hisoblanadi |
| qo‘shma korxona hisoblanadi           |

**№28**

**AJ to‘g‘risidagi qonunga muvofiq jamiyat qanday muddatga tuziladi?**

- |  |
|--|
| agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, cheklanmagan |
|--|

muddatga tuziladi.

ustavida belgilab berilgan muddatga tuziladi

agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, 10 yilga tuziladi.

agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, chegaralangan muddatga tuziladi

**№29 .**

**Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab.....**

jismoniy shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi

davlatning imtiyozli xuquqlarini qo‘lga kiritadi

xuquqiy shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi

yuridik shaxs xuquqlarini qo‘lga kiritadi

**№30**

**Jamiyat manzili ko‘rsatilgan yumaloq muhriga ega bo‘lishi lozim. Muhrda firmaning nomi boshqa istalgan tilida ham ko‘rsatilishi mumkinmi.**

firma nomi davlat tilida yozilishi lozim

firma nomi davlat tilida hamda boshqa tilda ham ko‘rsatilishi mumkin

lotin imlosida yozilishi lozim

mumkin emas

**№31**

**Jamiyatning manzili qanday belgilanadi.**

davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyga ko‘ra belgilanadi

jamiyatning muhriga ko‘ra belgilanadi

uzilgan shartnomaga ko‘ra belgilanadi

mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi

**№32**

**Aksiyadorlik jamiyati o‘z majburiyatları yuzasidan kimning mol-mulki bilan javobgar bo‘ladi.**

o‘ziga tegishli aktivlari bilan, o‘ziga tegishli barcha mol-mulki bilan, aksiyadorlarning aksiyalari bilan

qarzga oligan mablag‘lar bilan

investorlarning mablag‘lari bilan

lizing olingan texnikalar bilan

**№33**

**Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatları yuzasidan jamiyat oldida**

javobgar bo‘ladi

javobgar bo‘lmaydi

qonun bilan belgilanmagan

ma’lum qismini to‘lashga ko‘maklashadi

**№34**

Agar jamiyatning nochorligi (bankrotligi) jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatidagi shaxsning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, mazkur aksiyador zimmasiga jamiyatning mol-mulki yyetarli bo'limgan taqdirda uning majburiyatlari bo'yicha

- |  |
|--|
| solidar javobgarlik yuklatilishi mumkin              |
| solidar va subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin |
| subsidiar javobgar yuklatilishi mumkin               |
| davlatning ijtimoiy ko'magidan foydalaniladi         |

**№35**

**Davlat va uning organlari jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'ladimi?**

- |   |
|---|
| bo'ladilar                              |
| bo'lmaydilar                            |
| qonunda ko'rsatilmagan                  |
| faqat aksiyadorlar javobgar hisoblanadi |

**№36**

**Jamiyat davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'ladimi?**

- |                              |
|------------------------------|
| bo'ladilar                   |
| bo'lmaydilar                 |
| qonunda ko'rsatilmagan       |
| to'g'ri javob ko'rsatilmagan |

**№37**

**Aksiyadorlik jamiyatlarining shakllari**

- |                               |
|-------------------------------|
| AJ                            |
| MCHJ va QMJ                   |
| konsternlar va konglomeratlar |
| sindikat va trestlar          |

**№38**

**Aksiyadorlik jamiyatining muassislari tarkibiga kiruvchilarning eng kam soni**

- |              |
|--------------|
| kamida 3ta   |
| kamida 5ta   |
| kamida 1ta   |
| cheklanmaydi |

**№39**

<b>Jamiyatning har bir muassisi uning aksiyadori bo‘lishi majburiymi</b>
ayrim hollarda majburiy emas
majburiy
qonunda ko‘rsatilmagan
mumkin

**№40**

<b>Kimlar AJ aksiyalarini sotib oladi?</b>
--

AJ ning muassislari
oldindan belgilangan doiradagi shaxslar
AJning aksiyadorlari
qonunda ko‘rsatilmagan

**№41**

<b>Aksiyadorlik jamiyat o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga bo‘yicha yopiq obuna o‘tkazishga haqlimi?</b>
umumiy yig‘ilishning qarori bilan
mumkin emas
qonunda ko‘rsatilmagan
ayrim hollarda mumkin

**№42**

<b>Aksiyadorlik jamiyat aksiyadorlarining soni</b>
chegaralanmaydi
50000 ta
davlat tomonidan chegaralanadi
400000 ta

**№43**

<b>Agar AJ aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narxda va shartlarda, ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda qanday ko‘rinishda beriladi?</b>
imtiyozli aksiyalar oddiy aksiyalar ko‘rinishida sotib olish xuquqi beriladi
faqat oddiy aksiyalar imtiyozli aksiya ko‘rinishida imtiyozli esa oddiy aksiya ko‘rinishida sotib olish xuquqi beriladi
har qanday aksiya oddiy aksiya ko‘rinishida sotib olish xuquqi beriladi
qonunda ko‘rsatilmagan

**№44**

<b>AJda aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish muddati</b>
aksiyalar savdoga qo‘yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam bo‘lishi mumkin emas
aksiyalar savdoga qo‘yilgan paytdan boshlab 60 kundan kam bo‘lishi mumkin emas

aksiyalar savdoga qo‘yilgan paytdan boshlab 30 kundan ko‘p bo‘lishi mumkin emas
aksiyalar savdoga qo‘yilgan paytdan boshlab 60 kundan ko‘p bo‘lishi mumkin emas

**№45**

<b>Jamiyat filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkinmi.</b>
mumkin
mumkin emas
ayrim hollarda davlat nazoratida mumkin
o‘zaro kelishilgan hollarda mumkin

**№46**

<b>Agarda jamiyat tuzgan filial va vakolatxonalar ochsa, uning faoliyati bo‘yicha kim javobgar hisoblanadi?</b>
filial va vakolatxona ochishi mumkin emas
filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik ularni tuzgan jamiyat zimmasida bo‘ladi
agar ayrim hollarda davlat tomonidan tuzilgan bo‘lsa davlat javobgan hisoblanadi
faqat filial ochish mumkin

**№47**

<b>Moliya bozori – bu;</b>
moliya xizmatlari bozori
jamiyat mikyosida bush turgan pul mablaglarini jalb etish, bu mablaglardan foydalangani uchun xakini tulash bilan boglik munosabatlar tushuniladi
bozor infrastrukturasining muxim tarkibiy kismi
ijtimoiy Infratzilmaning takribiy qismi

**№48**

<b>Agar jamiyat O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochishi mumkin bo‘lsa, u qanday me’yoriy hujjatlar asosida faoliyat yuritadi?</b>
jamiyat tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish mumkin emas
filiallar va vakolatxonalar joylashgan erdagiga mamlakat qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi
O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlar asosida
xalqaro me’yoriy hujjatlar asosida

**№49**

<b>50.Sho‘ba xo‘jalik jamiyatasi asosiy jamiyatning aybi bilan nochor (bankrot) bo‘lib qolgan hollarda asosiy jamiyat shu‘ba xo‘jalik jamiyatining qarzlarini yuzasidan javobgar bo‘ladimi?</b>
subsidiar javobgar bo‘ladi.
solidar javobgar bo‘ladi

javobgar bo‘lmaydi
birgalikda javobgar buladi

**№50**

<b>Korporativ boshqaruv qaysi organ orqali boshqariladi?</b>
aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi
minoritar aksiyadorlar
kompaniya egalari
direktorlar kengashi

**№51**

<b>Korporatsiyalar xususiyatlariga qo‘yidagilarni kiritish mumkin?</b>
yuridik shaxs statusi
muddatsiz faoliyat yuriitish
aksiyalarni berishdagi cheklashlar
javobgarligi cheklanganligi tamoyili

**№52**

<b>Direktorlar kengashi vazifalari qo‘yidagilardan iborat:</b>
kompanianing rivojlanish strategiyasini aniqlash
moliyaviy xo‘jalik faoliyati ustidan samarali nazoratni olib borishni ta’minlash
ichki nazorat jarayonini tasdiqlash
xatarlarni boshqarish tizimini shakllantirish

**№53**

<b>Direktorlar kengashi qanday maqsadda shakllantiriladi.</b>
asosiy muhokama qilinishi lozim bulgan savollarni oldindan kurib chiqadi;
strategik rivojlanish buyicha qarorlar qabul qilishda takliflar berish;
strategik masalalar buyicha muhokamada ovoz berish;
dividendlarni to‘lash va rag‘batlantirish masalalarini echish;

**№54**

<b>Kompanianing ijroiya organlari -bu:</b>
bosh direktor
umumiy yig‘ilis
direktorlar kengashi
aksiyaorlar kengashi

**№55**

<b>Ijroiya kengashining vakolatlariga qo‘yidagilar kiradi:</b>
kompaniya faoliyatining ustivor yo‘nalishlarini ishlab chiqish
kompaniya faoliyatini strategik boshqarish masalalari
joriy faoliyatni boshqarishdagi ayrim masalalar
kompanianing sho‘ba va mustaqil korxonalari bilan hamkorlikni amalga oshirish

## GLOSSARIY

**Agent** - shartnoma asosida “agentlik to‘lovi” ga amal qilgan holda boshqa shaxsning topshirig‘iga kura birinchi hisob raqamdan ikkinchi hisob raqamga pul o‘tkazish operatsiyalarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxsdir.

**Anderrayter**-shaxs yoki tashkilot ko‘rinishida bo‘lib, u qimma baho qog‘ozlarni ya’ni yangi chiqarilgan aksiya va obligatsiyalarni investorlarga sotishda javobgarlikni va kafillikni o‘z bo‘yniga oladi.

**Asimmetrik axborot** –birinchi guruh yetarli darajadagi axborotga ega bo‘lishi, boshqa gunuhning axborotlarga ega bo‘lmaslik holati.

**Autsayder** – korporatsiya va uni boshqarishda qatnashmaydigan, “Mustaqil direktor” bo‘lmagan, korporatsiyaning ishchisi bo‘lmagan lekin korporatsiyaning aksiyasiga ega bo‘lgan shaxs.

**Affillangan shaxs** – korporatsiyaning faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkaza oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Aksioner kapitali** – aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini emissiya qilish yo‘li bilan shakllantirgan kapitali.

Aksiyadorlik jamiyatining muassislari- aksiyadorlik jamiyatini tuzish to‘g‘risidagi ta’sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar.

**Assotsiatsiya**- Tijorat tashkilotlari o‘rtasida ular faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiyligi manfaatlarni ifodalash va himoya qilish maqsadida tashkil etiladigan birlashma tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir.

**Davr harajatlari** –bu bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan harajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv harajatlari, mahsulotni sotish harajatlari va umumxo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa harajatlar.

**Diversifikatsiya**- har tomonlama rivojlantirish; yirik firmalar-birlashmalar yoki tarmoqlar faolligini kengaytirish.

**Dividend** –bu foydaning soliqlar va majburiy to‘lovlar to‘langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so‘ng aksiyadorlar jamiyatini ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanishi kerak bo‘lgan qismi.

**Ishonchnomma bo'yicha ovoz berish** – aksiyadorlik jamiyatining umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqining boshqa shaxsga ovoz berishlishi.

**Insayder** – kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompaniya haqida tijorat axborotiga ega bo'lgan kompaniya xodimi.

**Institutsional investorlar** – turli xil moliyaviy, jamoaviy, davlat tashkilotlari bo'lib, korporatsiya faoliyatini amalga oshirishda o'z mablag'larini safarbar qiluvchi shaxslar.

**Investitsiyalar** - pul mablag'lari sarflari bo'lib, tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan foyda, yaratiladigan yoki ijtimoiy samara beradigan mulkiy yoki intelektual boyliklarning hamma turlaridir.

**Investitsion faoliyat** - foyda olish yoki boshqa foydali samara olish uchun investitsiyalar qo'yish va amaliy faoliyatni tashkil qilishdir.

**Yillik hisobot**- aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari xodimlariga va ushbu jamiyatning faoliyati bilan qiziquvchi shaxslarga taqdim etiladigan balans-zarar va foyda haqidagi hisobot, auditor va taftish komissiyasi xulosasi-jamiyat rahbariyatining kompaniya faoliyati bo'yicha, kompaniyani rivojlantirish va boshqarish haqidagi izohlari to'plami.

**Kartel-** narxlarni qat'ylashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash yo'li bilan foydani hamkorlikda ko'paytiradigan ishlab chiqaruvchi guruhlar.

**Konsorsium-** bir necha banklar va kompaniyalarning yirik moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish uchun tuzilgan monopolistik birlashma.

**Korporativ boshqaruв** - bu biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashuvini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir.

**Korporatsiya** (lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil subyektini – huquqiy shaxsni

**Konsern-** Manfaatlar umumiyligi, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi bilan bog'langan, yagona mulkchlilik negizi va nazorat organiga ega bo'lgan

korxonalar birlashmasi. Nazorat nizom kapitalida ishtirok etish tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Konglomerat**- Texnologik jihatdan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘p sonli tashkilotlarning birikuvi (birlashish va qo‘sib olish) natijasida vujudga keladigan struktura.

**Kredit** - o‘z egalari qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan ssuda kapitalining maqsadli harakatini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlardir.

**Lizing** - bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarini, qo‘zg‘almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijara berish to‘g‘risidagi shartnomadir.

**Marja** - savdo, birja, sug‘urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog‘ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko‘rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

**Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda**-sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan maisulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut.

**Moliya sanoat guruhlari (MGS)**- MGS tashkil etish haqida shartnomani imzolagan, yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik subyektlari majmui. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasida amal qiluvchi strukturalar va moliyaviy struktura mavjud bo‘lishi shart. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart.

**Majoritar aksiyador** – kompaniya ustidan nazorat qilish uchun yirik aksiyalar paketi egalari.

**Minoritar aksiyador** - kompaniya tijorat va siyosiy masalalarini hal etishda etarsiz aksiyalar paketiga ega shaxslar.

**“Oltin aksiya”** - bu ayrim aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi bo‘lib, u strategik ahamiyatga ega bo‘lgan davlat korxonalari xususiylashtirilayotganda yoki aksiyadorlik jamiyatlarining davlat aksiya paketlari xususiy mulk etib realizatsiya qilinayotganda O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari

ximoya qilinishini ta'minlaydi.

**Sindikat**-bir turdag'i mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining o'z mahsulotlarini yagona savdo tarmog'i orqali sotishni tashkil etish maqsadida tuzilgan korporativ birlashma.

**Trest**- Turli tashkilotlar umumiyligi ishlab chiqarish majmuiga birlashadigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan birlashma. Bunda ular aksiyalar nazorat paketini yoki ishonch asosidagi shartnomani ishonch asosidagi kengashga berib, yuridik, ishlab chiqarish va tijorat mustaqilligini yo'qotadi.

**Xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar)** – bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar.

**Xolding**-Bosh korxonalarning aksiyalar nazorasi paketiga ega bo'lgan va ularga nisbatan belgilangan funksiyalarni bajaruvchi xo'jalik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs (sof xolding, ma'muriy xolding, moliyaviy xolding va h.k.)

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1.Sh. M. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017-yil 2-sentabr. PF-5177. 1-bet.

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 son Farmoni.//Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996-yil 26-aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014-yil 06-mayda tasdiqlangan.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. - Toshkent, 1996.

**4.** O‘zbekiston Respublikasi «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi Qonuni. -Toshkent, 2008.

**5.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PK,-726-sonli Qarori, 2007- yil 7- noyabr.2004.-358 s.

**6.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va davlat budgeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida” PQ-4086 sonli qarori.

**7.** “O‘zbekiston respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘z.R. Prezidentining 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3926-sonli qarori.

**8.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

**9.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi RF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so‘zi. 2017-yil 8-fevral.

**10.** “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon.02.09.2017y. PF- 5177. Xalq so‘zi. 2017-yil 4-sentabr.

**11.** “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 15-maydagi PF-4725 son farmoni.

**12.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2344-sonli qarori.

**13.** Sh. M. Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida parlamentga murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr. №271-272-soni, 2-bet.

**14.** Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston. 2017 y. – 104 b.

**15.** Sh.M.Mirziyoev. BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqi (Nyu York shahri, 2017-yil 19-sentabr).-Xalq so‘zi.2017-yil 20-sentabr.

**16.** Sh.M.Mirziyoev. Konstitustiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy etdirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.-2017-yil 7-dekabr.

**17.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-T.: “O‘zbekiston”. 2018.-80b.

**18.** Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.

**19.** Sh.M.Mirziyoev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” bobsidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 48 b.

- 20.** Zaynudinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.
- 21.** Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv qo‘llanma. -T.: 2011 y.
- 22.** Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
- 23.** Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.
- 24.** Bazelskiy komitet po bankovskomu nadzoru. Osnovnye prinsipy effektivnogo bankovskogo nadzora. Bazel, 1997. -258 s.
- 25.** Edvin Dj. Dolan i dr. Dengi, bankovskie delo i denejno kreditnaya politika. Per. s angl. -Moskva-Leningrad: 1991. -446 s.
- 26.** Finansovyiy menejment. Problemy i resheniya. Uchebnik. Pod.red. A.Z.Bovylevoy. M.: YUrayt, 2012.-903s.
- 27.** Saryov V.V., Kantarovich A.A. Elektronnaya kommersiya. – SPb: Piter, 2015.– s. 92.
- 28.** Lavrushin O.I. Bankovskoe delo: uchebnoe posobie. –M: Finansy i statistika, 2014. – s 366.
- 29.** Investitsii: sistemnyiy analiz i upravlenie. Pod red. K.V.Baldina. 4-e izd. M.: «Dashkov i K», 2012.-288s.
- 30.** Gurkov I.B. Strategiya i struktura korporatsii: ucheb. posob. -2-e izd., pererab. –M.: «Delo» ANX, 2008, s.58
- 31.** Gryaznova A.G. i dr. Nauchnye podkhody k otsenke masshtabov tenevoy ekonomiki v finansovo-kreditnoy sfere i mery po ix snijeniyu. -M.: Finansy i statistika, 2005. -270 s.
- 32.** Osnovы bankovskogo dela v Rossiyskoy Federatsii: Ucheb, posobie/ pod.red. Semenyutы O.G.-Rostov n/D: Feniks, 2001,-448 s
- 33.** Tepman L.N.Korporativnoe upravlenie: uchebnoe posobie. YUniti-Dana 2012 g. 243 s

- 34.** F.Mirzaev. “Banklararo raqobat:mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari” nomli monografiyasi.T.:Moliya-2008y.
- 35.** Hamidulin M.B. Finansovye mexanizmy korporativnogo upravleniya. Monografiya. – T.: Moliya, 2008. –204 s
- 36.** Xoshimov A.A. Korporatsiya shaklidagi tuzilmalarning rivojlanish istikbollari. - T.: Moliya, 2003. - 111 b.
- 37.** Abdullaeva SH.Z. Pul kredit va banklar. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. - 344 b.
- 38.** Achilov M.F., Aliev M.G., Kotov V.A., Teshaev SH.J., Hamidulin M.B. Ryinok kapitala O‘zbekistana: Vchera, segodnya i zavtra. -Tashkent: «Moliya», 2002, -268 s.
- 39.** A.S.Begmatov, M.B.Hamidulin, M.SH.Bo‘taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y.
- 40.** Kapitonov E. A., Kapitonov A. E. Korporativnaya kultura. – M: OAO Rostizdat. 2001.
- 41.** Kravchenko R.S. Korporativnoe upravlenie: obespechenie i zaščita prava aksionerov na informatsiyu. - M.:Spark. 2002.
- 42.** Upravlenie i korporativnyu kontrol v aksionernom obžestve. Pod red. E.P.Gubina. - M.:YUrist. 1999.
- 43.** Adamchuk V.V. i dr. «Ekonomika truda». Uchebnik. –M.: ZAO «Finstatinform», 1999. –431 s.
- 44.** Adamchuk V.V. i dr. Ekonomika i sotsiologiya truda: - Uchebnik dlya vuzov. –M.: YUNITI, 1999.
- 45.** Ekonomika Uzbekistana. Informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2017 god. Tashkent 2018.

M.G. UMARXODJAYEVA, A.R. ISMAILOV

# KORPORATIV BOSHQARUV-2

*O‘quv qo‘llanma*

“*IQTISODIYOT*” – 2019.

*Muharrir:*  
*D.M. Mirhidoyatova*

*Musahhih:*  
*A.O. Matxo‘jayev*

Litsenziya raqami: №10-4286 14.02.2019. Bosishga 09.09.2019 da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog`ozi. Tayms garniturasi. Shartli bosma tabog’i: 13,5.  
Adadi 20 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZARAFSHON FOTO» XK matbaa bo`limida chop etildi, 100066.  
Toshkent sh. Islom Karimov ko`chasi, 49-uy.